

MAXMUDOV SHOKIR KAMOLOVICH

**TALABALARGA MA'NAVIY-HUQUQIY
TARBIYA BERISH TEXNOLOGIYALARI**

(Monografiya)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAXMUDOV SHOKIR KAMOLOVICH

TALABALARGA MA’NAVIY-HUQUQIY TARBIYA BERISH
TEXNOLOGIYALARI
(Monografiya)

“Surxon-nashr”
nashriyoti
Denov-2023

Maxmudov Sh. K., Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalari /monografiya/ Denov“Surxon-nashr”, 2023 yil. 124 b.

Ushbu monografiyada “Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalari” haqida so'z yuritilar ekan, unda yoshlarning jamiyat talablariga mos komil insonni shakllantirish nazarda tutiladi. Talaba yoshlarni jamiyat me'yorlariga xos fazilatlarni ma'naviy-huquqiy tarbiya bilan uyg'unlashtirish imkonini beradigan monografiyadir.

Mazkur monografiya Pedagogika, Psixologiya, Ma'naviyat asoslari, Huquq, Falsafa va Ijtimoiy ish fanlarining na'munaviy dasturi asosida va ularni o'qitish talablari doirasida tuzilgan.

Monografiyaning asosiy maqsadi oliy o'quv yurtlari talabalariga jonkuyar, mehribon ustoz sifatida olib boriladigan ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda barcha davrlarga xos bo'lgan barqaror axloqiy qadriyatlar va jamiyatning ma'naviy-huquqiy qiyofasini belgilab beruvchi ustuvor tartib-qoidalar va me'yorlarga moslashtirish va ularga ko'mak berishdan iborat.

Monografiyada talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish orqali jamiyatga kirib kelayotgan yosh talabalarga to'g'ri yo'l ko'rsatish va ularning kasbiy, ma'naviy-huquqiy qiyofasiga xos bo'lgan tarbiyaviy fazilatlarni to'g'ri shakllantirishdan iborat hisoblanadi.

Ma'sul muharir:

Xudoyqulov X.J. - pedagogika fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

Himmataliev D.O.- pedagogika fanlari doktori, professor

Allayorova S.. - pedagogika fanlari doktori, dotsent

Mazkur monografiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining 2023 yil 25 noyabrdagi 3 sonli Kengash qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Jahonda mediavositalarining rivoji yoshlarning hayoti va sogʻligi uchun xavf tugʻdiradigan gʻayriijtimoiy xatti-harakatlar, hayot tarzimizga zid boʻlgan zararli gʻoyalar va mafkuraviy xurujlarning kelib chiqishiga sabab boʻlmoqda. Xorijiy televideniya orqali berilayotgan koʻrsatuvlar, radioeshittirishlar, internet manbalari, mobil aloqa, kompyuter oʻyinlari, video va kino mahsulotlaridan foydalanuvchi talaba-yoshlar kerakli axborot bilan birga jamiyatimizning axloqiy tartib-qoidalariga zid boʻlgan shafqatsizlik, zoʻravonlik va milliy mentalitetimizga begona boʻlgan boshqa gʻoyalar targʻibotiga ham duch kelmoqda. Natijada yoshlar orasida axborot madaniyatini shakllantirish va ularning maʼnaviyatini yuksaltirish zarurati tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda talabani shaxs sifatida rivojlantirish va uning ijtimoiy faolligini oshirishda mediavositalardan foydalanish texnologiyalarini, innovatsion usullarini takomillashtirish, talaba-yoshlar maʼnaviyatini ommaviy axborot vositalari (OAV) asosida shakllantirishning diagnostik tizimini takomillashtirish, global axborot maydonida talaba-yoshlarni turli gʻoyaviy taʼsirlardan himoyalash va axborot xavfsizligini taʼminlash mexanizmlarini takomillashtirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda yosh avlod taʼlim-tarbiyasi, shaxs kamoloti yoʻlida keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yosh avlodni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy madaniy-tarixiy anʼanalari, urf-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalar amaliyotga joriy etildi. Talaba-yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirish, yoshlarning

ijtimoiy faolligini oshirish, ularni Vatanga sodiq, fidoyi insonlar etib tarbiyalash uzviylik va uzluksizlikni talab qiladigan dolzarb pedagogik jarayon sifatida O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmonida muhim o‘rin egallaydi¹.

O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi O‘RQ-406-sonli, 2017 yil 8 sentyabrdagi «Bolalarni ularning sog‘ligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risidagi» O‘RQ-444-sonli qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 28 iyuldagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi PQ-3160-sonli Qarori, 2017 yil 12 yanvardagi «Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida»gi Farmoyishi, shuningdek, faoliyatga doir boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyovning “Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob halqimiz bilan birga quramiz”, “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz” asarlarida jamiyatga kirib kelayotgan yosh avlod uchun barcha imkoniyatlar yaratilar ekan, yoshlar shakllanishi, ularning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami. – T., 2017. B.39.

ma'naviy-huquqiy tarbiya mavzusi tadqiqotchi uchun asos sifatida xizmat qildi.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarining ayrim nazariy jihatlariga Sharq mutafakkirlari Al Buxoriy², al-Hakim at-Termiziy³, Ibn Sino⁴, Al-Beruniy⁵, Al-Farobiy⁶, Amir Temir⁷, Alisher Navoiy⁸, Yusuf Xos Hojib, Bobur, Mirzo Bedil, Ahmad Donish⁹ va Abdulla Avloniylar ham o'z asarlarida katta e'tibor berishgan.

Respublikamiz olimlaridan ma'naviy-huquqiy tarbiya berish muammolarini A.A.Ismanova¹⁰, Z.T.Salieva¹¹, O.Jamolidinova¹², O.Musurmonova¹³, N.M.Akaeva, R.Safarova, H.Yu.Salomova, Sh.Olimov, B.Xodjaev¹⁴, X.J.Xudoyqulov, M.K.Hoshimova, M.K.Quronov, Sh.Shodmonova, B.P.Shoumarov va N.M.Egamberdieva¹⁵larning ijodiy ishlarida ma'naviy-huquqiy tarbiyaga jamoatchilik hamkorligi masalalari, uning uzviyligi B. Sh. Shermuhammadov¹⁶, X.S.Rajabov, Sh.M.Ruziev, B.M.Umarov, R.S.Samarov, A.Sh.Jumaev va B.N.Zuxurov ilmiy tadqiqot ishlarida

² Al Buxoriy I.I. Adib durdonalari.-Toshkent: O'zbekiston, 1990.-198 b.

³ At-Termiziy al-Hakim, Muhammad ibn Ali. Buduvvu-sh-shan (Hakim Termiziy yo'lining boshlanishi). Tarj. J.Cho'tmatov. Toshkent: Movarounnahr, 2018.- B. 26.

⁴ Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Saylanma. 1-jild. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 1993. - 304 b.

⁵ Abu Rayhon Beruniy. Feruza (Javohirlar haqida naql va hikoyatlar). - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993. - 96 b.

⁶ Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.:A.Qodiriy, 1993. - 223 b.

⁷ Temur tuzuklari: tarixiy adabiyot/ A.Sog'uniy va H.Karomatov.-Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2018.- 160 b.

⁸ Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. 8-jild. - T.: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2013. - 704 b.

⁹ Ahmad Donish. Navodir-ul-vaqoe'.1-tom,-Dushanbe, 1988.-287.

¹⁰ Ismanova A.A. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi pedagogik profilaktika tizimini takomillashtirish. Ped.fan.nomz...diss. avtoref.-T., 2017.

¹¹ Z.T.Salieva. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish. Ped.fan.nomz...diss. avtoref.-T., 2017.

¹² Jamolidinova O.R. Yoshlar sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishda uzviylik va uzluksizlik tamoyillari amal qilishining pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish. Ped. fan dokt.....diss. avtor. -Toshkent; 2015.

¹³ Musurmonova O. Oila ma'naviyati milliy g'ypyp. -T: O'qituvchi, 1999.-200 b.

¹⁴ Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. - Toshkent.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012. - 165 b.

¹⁵ Egamberdieva N.M. Atrof-muhit ta'sirida talabalarni axloqiy tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari. (pedagogika kollejlari misolida) Ped.fan.nomz...diss. avtoref.-T., 2004, 23-b.

¹⁶ Shermuhammadov B. Sh. Yoshlar orasida milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirish («Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati misolida) Ped. fan dokt.....diss. avtor. -Toshkent; 2016.

ham yoshlarda huquqiy tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish tarbiya jarayonlarini tashkil etish usullariga alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda mustaqillik g'oyalaridan ilhomlangan yetuk olimlar talabalarga, ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni mahalliy shart-sharoitlarni, oila va mahalla birligi asosida o'rganish masalalari falsafa, ruhshunos va huquqshunos olimlar A.N. Mahmudova¹⁷, G'.B.Shoumarov, E.G'oziev, V.Karimova, B.Kodirov, M.Mirhosilov, N.Sog'inovlar, J.T.Xolmo'minov, X.T.Odilqoriev, O.Oqyulov, A. Saidov., A.Sh.Muxsimovalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlari (MDH) mamlakatlari olimlaridan A.Ya.Azarov, S.S.Alekseev, O.V. Amosova, G.A.Kuznesov, Ye.N.Kurilenko, A.A.Molchanov, I.B.Mixaylovskaya, S.A.Ivkin, M.V.Motexinaning tadqiqot ishlarida ham talabalarning ma'naviy-huquqiy tarbiya berish muammolariga bag'ishlangan tadqiqot ishlari olib borilgan va o'rganilgan. Mualliflar tomonidan ma'naviy-huquqiy tarbiya berishga yangicha yondashuvlarni va fuqarolarga mos kasbiy fazilatlarni shakllantirish modellarini ishlab chiqish jarayonlari ko'rsatilgan.

Shuningdek, xorijiy olimlardan K.Anderson, D.V.Olshanskiy, G.N.Filonova, M.Entoni, I.Olt, D.Tate, L.A.Lansova, M.F.Shurupova, P.Govard kabilar tadqiqotlarida ma'naviy-huquqiy tarbiyaga bag'ishlangan masalalarni o'rgandilar.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish masalasi hali yetarlicha talabalarning yoshiga mos holda mahalliy shart-sharoitlarni

¹⁷ Mahmudova A.N. Zamonaviy fuqarolik jamiyatida shaxsning huquqiy ijtimoiylashuvi (ijtimoiy-falsafiy tahlil). Fal.fan.nomz...diss. avtoref.-SamDU., 2021.

hisobga olib yoritilmagan. Bugungi kunda yoshlr tarbiyasiga alohida e'tibor berilmoqda va bu borada ma'naviy-huquqiy tarbiya berish jarayonlariga to'xtalib o'tamiz.

1. TALABALARGA MA'NAVIIY-HUQUQIY TARBIYA BERISHNING ROLI VA DAVLAT MIQIYOSIDAGI SIYOSIY AHAMIYATI

Hozirgi kunda o'zgarib borayotgan buyuk O'zbekistonimizning yangi uchunchi renessans davrida, davlat siyosatida bo'layotgan ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalardagi o'zgarishlari va yutuqlari va yangidan-yangi ishlab chiqarishning rivojlanishi, xalqimiz farovonligi uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, ularning qobiliyati va iqtidorini yo'lga qo'yish uchun bo'lgan e'tibor dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Shu bilan bir qatorda, jamiyatda bo'lgan o'zgarishlar ta'lim va tarbiya sohasida ham innovatsion tamoyillarni kirib kelishi va uni ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llashda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish uchun asosiy turtki bo'ldi desak xato qilmagan bo'lamiz. Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish mavzusi bugunki kunning dolzarb muammolaridan biri bo'lib, uni ilmiy jihatdan qayta ishlab, ma'naviy-huquqiy tarbiya berish sohasini yangi yo'nalishlarini izlab, ilmiy asoslangan o'zgartirishga olib keldi degan umiddaman.

Mamlakatimiz prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev 2020-yil 24-yanvar Oliy Majlisga qilgan murojatnomalarida "...O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham

bogʻchadan boshlab oliy oʻquv yurtigacha – taʼlimning barcha boʻgʻinlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat talaba-yoshlar, balki butun jamiyatimiz aʼzolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-maʼrifat, yuksak maʼnaviyat va huquqiy ong kerak. Ilm yoʻq joyda qoloqlik, jaholat va albatta, toʻgʻri yoʻldan adashish boʻladi”¹⁸ - degan purmʼano fikrlarni aytib oʻtdilar.

Talabalarga maʼnaviy-huquqiy tarbiya berish masalasi ham bugingi kunda ahamiyatli masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda taʼlim-tarbiya tizimini yangi bosqichga koʻtarish, jamiyatga kirib kelayotgan talabalarni ijtimoiylashuvida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash sifatini ilgʻor xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik taʼlim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, uzluksiz maktabgacha taʼlim qamrovining oshishi, 11 yillik umumiy oʻrta taʼlim tizimining joriy qilinishi hamda oliy maʼlumotli kadrlar tayyorlash koʻlamining kengayishi munosabati bilan yuqori malakali mutaxassislarga nisbatan yuzaga kelayotgan ehtiyojni oʻz vaqtida taʼminlash maqsadida soʻnggi yillarda mutaxassis kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan bir necha xorijiy va mahalliy oliy taʼlim muassasasi faoliyati yoʻlga qoʻyildi, mazkur taʼlim sohasi boʻyicha xorijiy davlatlar bilan qoʻshma taʼlim dasturlari tashkil etildi.

Shu bilan birga, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari uchun yuqori malakali kadrlar yetkazib berish borasida oʻtkazilgan tahlil natijalari avvalo taʼlim sohasi uchun kadrlar tayyorlash sifatiga eʼtiborni kuchaytirish, sohada ilgʻor xorijiy tajribani keng joriy etish,

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ta'lim infratuzilmasini yaxshilash zarurligini ko'rsatmoqda.

Zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimini bugungi zamon talablari darajasida yaratish, talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda, ularning fuqarolarga mos hati-harakatini ta'minlash hozirgi davr talabiga mos bo'lishi uchun zamin yaratish lozim.

Buning uchun, **birinchidan**, aholining barcha qatlamlarida huquqiy bilimlarni rivojlantirish kerak. Huquqiy bilimlarning shakllanishi axloq-odob me'yorlari, jamiyat talablariga mos qoidalari sifatida maktabgacha ta'limi muassasalaridan boshlab, to oliy ta'lim muassasasigacha tizimli va uzluksiz yo'lga qo'yilishi kerak. Huquqiy bilimlarni oshirishda barcha huquqshinos, ota-ona va pedagoglar jalb qilinsa amaliy natijaga erishish imkoni yuqori bo'ladi. Talaba-yoshlarni hayotga moslashuvlarida "Tarbiyaviy ishlar metodikasi", "Ma'naviyatshunoslik", "Ijtimoiy psixologiya" "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati", «Huquqshunoslik», kurslarini o'rganish muhim kasb egallaydi.

Ikkinchidan, ma'naviy-huquqiy tarbiyaning yangi tizimini ishlab chiqishda turli usullardan foydalangan holda o'smirlar va kattalar uchun yoshiga mos ravishda kitoblar va qo'llanmalar nashr etish lozim. Ma'naviy-huquqiy tarbiyani rivojlantirish maqsadida huquqiy bilimga ega jamoatchilik institutlarida davra suhbatlari, ma'ruzalar, seminarlar, vebinar va shunga o'xshash klastir tadbirlar tashkil etilishi lozim. Huquqshunoslar ishtirokidagi muloqotlar, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari bilan uchrashuvlar, savol-javob kechalari va shuning singari tashkiliy tadbirlar ijobiy samara berishi shak- shubhasizdir.

Buyuk ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat yoshlar tarbiyasiga e'tibor berib, "Har bir mamlakatning tolesi va taraqqiyoti yoshlarga qanday ta'lim va tarbiya berishligiga har tomonlama bog'liqdir"¹⁹, degan ezgu shiorni o'rta tashlagan edi.

Shu bois, mamlakatimizda sog'lom va har qanday illatlardan xoli bo'lgan jamiyatni shakllanishida, ta'lim-tarbiya muhitini yo'lga qo'yishda bugun har birimizning muhim va ustuvor vazifamiz bo'lmog'i lozim. Bu yo'lda to'siq bo'layotgan muammolarni bartaraf etish, ta'lim tizimi sofliги va shaffofligini ta'minlash, ayniqsa, uning obro'siga putir yetkazayotgan korupsiyani bartaraf etish, qonun ustivorligiga amal qilish kechiktirib bo'lmaydigan vazifamiz hisoblanadi.

Ayniqsa, endigina hayot yo'llarida qadam tashlayotgan, beg'ubor qalbi, musaffo ko'zlari ila o'z kelajagiga ishonch bilan boqib turgan yosh yigit-qizlarni korupsiya domiga tortish bu-eng mudhish jinoyat sanaladi, deb takidlaydilar Oliy ta'lim vakillari 17-iyul 2019 yildagi O'zbekiston xalqiga murojaatida.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish uchun, talabalarimizga yaratib berilgan son-sanoqsiz imkoniyatlardan foydalanib ijtimoiy hayotning qaysi sohasi bo'lmasin o'z qiziqishlaridan kelib chiqqan holda bilim egallab, kasb-hunar o'rganib davlatimizning rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shish sohasida, ijtimoiy hayot me'yorlariga va huquqiy qoyidalariga moslashishini va unga amal qilishini talab etadilar.

O'zbek xalqining mustaqillikka bo'lgan intilishini jahon hamjamiyati, xalqaro tashkilotchilik qo'llab-quvvatladi. Dunyoning 140-dan ortiq mamlakati O'zbekiston davlati mustaqilligini tan oldi. 40-dan

¹⁹ Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild: Ilmiy asarlar-T.: "Ma'naviyat", 2000.

ortiq xorijiy mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatildi va bir qancha davlatlarning elchixonalari mamlakatimizda ochildi. O‘zbekiston xalqaro jamiyatning teng huquqli sub’ekti sifatida 1992 yilning 2-martida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi.

Yangi O‘zbekiston Respublikasida rivojlanish imkoniyatlarini shakllantirish uchun qisqa vaqt ichida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalarda juda katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2019 yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son Farmoni²⁰-ga muvofiq, Oliy ta’lim tizimida ta’lim sifatini oshirish, sohadagi mavjud me’yoriy-huquqiy negizini takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalarining xalqaro nufuzini yanada oshirish, oliy ta’limda ma’naviy-axloqiy mazmunni kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma’naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish asosiy maqsad bo‘lib, bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 30-moddasida-Shaxsni hurmat qilish, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish – davlat organlari, jamoat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslarning majburiyatlari bo‘lib hisoblanadi²¹-deb ta’kidlanganligi ham jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni rivojlantirishni taqozo etadi. Shu

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida» 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.-Toshkent 10.09. 2019 y.

²¹ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2019.

sababli, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish maktab, oila va mahalla hamkorligining bugungi ta'lim-tarbiya rivojlanishidagi siyosiy, tarixiy o'rni va ahamiyatini o'rganish zaruriy ehtiyojdir.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan g'oyat ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosini tiklash va unda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi.

Yangi rivojlanayotgan O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda o'zgarishlar sodir bo'layapti. Jamiyatning boshqa, ya'ni talim sohasida, ijtimoiy ta'minot tizimlarida ham o'zgarishlar bo'lib o'tmoqda. "O'zbekiston Respublikasi amalga oshirilayotgan global siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlar shubhasiz, yangi iqtisodiy ongning istiqbolli roli talaba-yoshlarga tegishli bo'lishi lozim"²². Shuning uchun davlat jamiyat oldiga aniq, konkret maqsadlarni qo'ydi.

Hayot faoliyatining turli sohalarda o'zbek yoshlariga imkoniyatlar ochish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish O'zbekiston Respublikasi talaba-yoshlarga oid Davlat siyosatining asosiy maqsadi sifatida namoyon bo'ldi. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni ijtimoiy qullab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, tashkiliy va

²² Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug' hayoti yorug' kelajagi farovon bo'ladi. –T.: "O'zbekiston", 2019.–396 b.

huquqiy chora-tadbirlar talaba-yoshlarning fuqarolik va kasbiy shakllanishga, ijtimoiy faolligining rivojlanishiga sabab bo'ldi.

Shuning uchun hamma sohadagi talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni ijtimoiy himoya qilish shaxs sifatida va kasbiy shakllanishida ularni qullab- quvvatlash O'zbekiston Respublikasi davlat e'tiborining ob'ektidir. O'z oldilarida turgan muhim ijtimoiy masalalarni hal qilishda talaba-yoshlar ma'lum ijtimoiy yordamga mo'htojlik his qiladi.

Hozirgi zamon sharoitda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish jarayoni ma'naviy qiyofaga, ishonch va harakatlariga yangi talablar havola etiladi va taqdim etadi. Bu quyidagilar bilan bog'liq, birinchidan, 2017-2021 yillar uchun to'zilgan O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish buyicha Harakatlar strategiyasi²³-da talaba-yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish asosiy bug'in sifatida qo'yilgan va bo'larning barchasi talaba-yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, ijodiy va ilmiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun ularga sharoit yaratish kabilarni talab sifatida qo'yadi. Harakatlar strategiyasi - bu o'zbek xalqining kelajagini ko'rish uchun yaratilgan bir vosita. Bizning xalqimiz va jamiyatimizning doimiy, maqsadli va barqaror rivojlanishi uchun bu narsa juda zarurdir. Harakatlar strategiyasida bu davlat va jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarni birlashtirishga yunaltirilgan ustuvor yunalishlardan biridir.

Ma'lumki, 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistan Respublikasini yanada rivojlantirish buyicha "Harakatlar strategiyasi"-

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-2021 yillarda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" –T.: O'zbekiston, 2017y.

ning to‘rtinchi, ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yunalishida talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma’naviy-huquqiy tarbiya berishga oid davlat siyosatini takomillashtirishga alohida urg‘u berilgan. Jumladan:

- talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma’naviy-huquqiy tarbiya berishda “...jismonan sog‘lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat’iy hayotiy nuqtai-nazariga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” kabilar ham tilga olingan;

- o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb qilish;

- yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda amalga oshirish, bolalar va yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, ularni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish;

- yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, yosh oilalar uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish;

- yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta’lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma’naviy-huquqiy tarbiya berishda “Harakatlar strategiyasi”-dan keltirib o‘tilgan bandlar ustuvor vazifalarni belgilab beradi. Talabalar yangi fikrlarning generatori,

jamiyatning hayotiy kuchi va energiyasi hisoblanadilar. Yoshlar mamlakatning nafaqat kelajagi, balki buguni hamdir.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish muammolariga e'tiborning kuchayishi uning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi alohida roli bilan talqin qilinadi. Talaba-yoshlar har doim jamiyatning barcha jabhalarida o'zlarini namoyon etadigan eng faol va dinamik ijtimoiy guruh bo'lgan va bo'lib kelmoqda. Ular o'zlarini hayot faoliyatining barcha: siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy-huquqiy, iqtisodiy sohalarda namoyon etadilar. Ushbu ijtimoiy-demografik guruh boshqalarga nisbatan o'zlarining ijtimoiy statusini oshirishni va yangi rollarni o'zlashtirishni maqsad qiladilar.

Ayniqsa, ma'naviy-huquqiy va ma'rifat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berilib, milliy tarbiya sohasida sog'lom fikrli, ma'naviy barkamol inson bo'lgan yoshlarga ushbu tushunchalarning mazmuni, mohiyati, ularning hayotdagi asl maqsadini anglatish borasida jidiy ishlashimizni davrning o'zi taqozo etmoqda. Bu esa har bir insonning ma'naviy dunyosi ayniqsa talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish darajasi bilan belgilanadi. Shu maqsadda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish tushunchalariga «Pedagogika fanidan izohli lug'at»²⁴-da quyidagicha ta'rif beriladi. «Ma'naviyat – (arabcha – ma'nolar majmui) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. U kishining ichki, ruhiy, axloqiy qiyofasi

²⁴ Xasanboev J, To'raikulov X., Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

tushunchasi bo'lib, ma'lum bir axloq me'yorlari, maromlari asosida yashash tarzi, umuman hayotdir».

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqatli yo'lni bosib o'tgan. Ajdolarimiz tomonidan qo'lga kiritilgan qadimiy madaniyati tarkibidan ta'lim-tarbiyaga oid merosi ham alohida o'rin olgan. Xususan, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish tushunchalariga insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shakllana borishi ham o'z navbatida kishilik jamiyatining qonunlariga amal qilib me'yorlarni bajarishi va yuqori ongni qaror topa borishiga yordam bergan. Ma'naviy-huquqiy ong orqali fikr yurita olish qobiliyatiga ega bo'lgan inson kamolotining ta'minlanish jarayoni hamda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti o'zaro uzviy aloqada shakllangan. Mazkur tarixiy jarayon mohiyatini bilish bizga talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish inson ongining juda uzoq davr va murakkab sharoitlarda shakllana borganligidan dalolat beradi.

Jamiyat ma'naviyatsiz bo'lmaganligi kabi me'yor va qonunsiz ham bo'lmashligi, har qanday yuksak jamiyat taraqqiyoti ma'naviy inson ongining yuksakligi orqali barchaga ma'lum. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalari bugungi ma'naviyat-inson, halq, jamiyatning kuch-qudrati. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi, -deydi xalqimiz. Ma'naviy-huquqiy taraqqiyotida davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatning roli nihoyatda katta. Qaysi mamlakatda ma'naviy-huquqiy, madaniy va mafkuraviy ishlarda g'amxo'rlik qilish

davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan bo'lsa, o'sha mamlakatda tinchlik, barqarorlik vujudga keladi, ilm-fan, ma'rifat rivojlanadi. Bu o'z navbatida mamlakat oldida turgan turli eng murakkab muammolarni hal etish imkonini yaratadi. Bu jarayon ta'lim-tarbiya sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini islohotlar yaratib berishdan boshlanadi. "Ta'lim va tarbiyani istiqlol g'oyalari talablari asosida ma'naviy-huquqiy tarbiyani yuqori pog'onaga ko'tarish, kelajagimiz bo'lgan talabalarni shakllantirish davrning qat'iy talabi, jamiyatning ijtimoiy topshirig'i hisoblanadi"²⁵.

Ma'naviy-huquqiy tarbiya jamiyat taraqqiyoti, millat kamolati va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki ma'naviy-huquqiy ong rivojlangandagina jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy barkamollik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o'z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Har bir davlat yoshlar bilan ishlash buyicha tarixiy rivojlanishga va umumiy tizimga bog'lik bo'lgan tasavvurlarga ega. Masalan, haqiqatdan ham talaba-yoshlar sohasi haqidagi tasavvurlar madaniyat, din, ta'lim yoki boshqa bir soha ta'siri ostida rivojlangan ekan.

Yevropa ittifoqining yoshlar masalalar buyicha rezolyusiyasiga binoan umumiy lashtirib shuni aytish mumkinki, "talaba-yoshlar masalalari norasmiy va ma'lumot berivchi ta'limga asoslanadi, rasmiy

²⁵ Karimov I.A. Buyuk kelajak sari.- Toshkent.:O'zbekiston,1998,127-b.

ta'limdan tashqari olib boriladi, yoshlar masalalari buyicha mutaxassislar hamkorligida amalga oshiriladi”²⁶.

Oxirgi paytlarda “Yoshlarga oid davlat siyosati” termini tez-tez jaranglamokda. Uning ta'rifı “Yoshlarga oid davlat siyosati” Qonunining yangi tahririda keltirilgan. Bu yoshlarga bo'lgan e'tiborning yorqin namunasidir. Bu e'tibor yoshlarning ijtimoiy rivojlanishi, aqliy, ijodiy va boshka imkoniyatlarini yuzaga chiqarishni ko'zda tutadigan davlat tomonidan amalga oshirilayotgan tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlardir.

Shu bois, xalq ma'naviyatini rivojlantirish, bugungi talaba-yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni rivojlantirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy ishlarda unga tayanish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan muammodir. Bu yutuqlar demokratik jamiyat qurishni o'zida ifoda etuvchi bozor munosabatlariga asoslangan bugungi hayot bilan bog'liq. Ma'naviyat-huquqiy tarbiya berish inson, xalq, jamiyat va davlatning kuch-qudratidir. Ma'naviyat so'ziga O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagicha ta'rif beradi: «ma'naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning imon irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonni uyg'otadigan qudratli botiniy kuch»²⁷.

Ma'naviyatning negizi va mazmunini belgilaydigan asosiy xususiyatlar, birinchi galda insoning ruhiy pokligi, qalban ulug'lanishi haqida gapirar ekanmiz, insoning dunyoda halol va pok yashashni,

²⁶ To'ychieva X.N. Huquqiy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishning ba'zi masalalari. TDPU. Ilmiy ishlar to'plami. – Tashkent: 1998. 61-67 b.

²⁷ Karimov I.A. Yuksak ma'naviya yengilmas-kuch.-T.: Ma'naviyat,2008 y.

me'yoriy qonun va me'yorlarni o'zi uchun hayotiy e'tiqod, oliy maqsad deb biladigan odamlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Ma'naviy-huquqiy barkamollik bu yosh avlodga ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirib ketgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar, tarixiy meros, urf-odatlar, an'analar, odob-axloq, turmush tarzi, barcha tarixiy yutuqlar va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrash, jamiyatning qonunlari va me'yorlariga amal qilishdan iborat. Shunday qilib, talabalarda ma'naviy-huquqiy ongni tarbiyalashda oila va mahalla hamkorligi, ma'naviy-huquqiy barkamol insonni shakllantirishda asosiy maqsad hisoblanadi. Shuning uchun ma'naviy-huquqiy ongni tarbiyalash jarayonini o'rganishda nazariy jihatlariga alohida e'tibor berish va uni tahlil qilishni taqozo etadi.

Ma'naviyat, ma'rifat va siyosatning o'zaro bog'liqligi davlat rivojidagi o'rniga to'xtalishdan oldin siyosatning mohiyatini ochib berish lozim. "Siyosat – bu muayyan davlatlar hokimiyati, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jamoat tashkilotlarining mamlakat ichki hayotida va xalqaro maydonda xalqlar, millatlar, ijtimoiy guruhlarining maqsad va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatdir",²⁸.

Siyosat har qanday jamiyatda ham davlat faoliyatini ifoda etadi. Chunki, jamiyatdagi barcha jarayonlar va muammolarning qo'yilishi hamda ularning hal etilishi davlatlarda olib boriladigan siyosatning ma'naviy-huquqiy ongni qay darajada rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi. Bu borada siyosatning ma'naviyat bilan bog'liqligi alohida ahamiyatga

²⁸ Xalilov E.X. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o'rni. -T.: O'zbekiston. 2001. - 48 b.

ega. Ular taraqqiyparvar, insonparvar, adolatli siyosat bo'lsa, ba'zan aksincha reaksiya, adolatsizlik siyosati ham bo'lishi mumkin.

Siyosatning ustuvorligi shundanki, u mamlakatda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilishda vazminlik vaziyatini vujudga keltiradi, eng murakkab munozarali muammolarni ham muzokaralar, bahslar yo'li bilan hal qilishga yordam beradi. U ko'proq qurollashishga emas, balki mamlakatning ma'naviy-huquqiy ongini va ma'rifiy imkoniyatlarini rivojlantirishga o'z imkoniyatlarini qaratadi. Ana shu haqiqatni xalqimiz har tomonlama to'g'ri va ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab-quvvatlayotgani oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Prezident Sh.M.Mirziyoev ichki ham tashqi siyosatda taraqqiyparvar, insonparvar va ma'rifatparvar siyosat olib bormoqda. Buning natijasida O'zbekistonning xalqaro maydonda obro'-e'tibori tobora oshib bormoqda. U tanlangan yo'l esa jahondagi mamlakatlar tomonidan tan olinmoqda. Ayniqsa, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishga bo'lgan e'tibor, iqtidorli yoshlar bilan ishlash, «Prezident maktablari»ning tashkil etilishi, maktabgacha ta'lim, umumta'lim maktablaridagi islohotlar bunga misol bo'la oladi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor va men ishonaman, xudo hohlasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham albatta bo'ladi»²⁹ - degan hikmatli so'zlari tarix zarvaraqlarida chinakam uyg'onish - Uchinchi

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasi a'zolariga Murojaatnomasi// Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr.

Renessans davri poydevorini yaratish uchun o'ziga xos da'vat va ishonch hisoblanadi.

Ma'naviy-huquqiy ongni egasi bo'lgan barkamol inson tushunchasining o'zining keng qamrovli, serqirra tushuncha— komil inson tushunchasi, sog'lom avlod tushunchasi bilan hamkor. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimiz darkor. Chunki, bu imon-e'tiqodi va axloqiy-ruhiyati xulq-atvori me'yorlari, ahloq-adob qoidalari bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi.

Ma'naviy-huquqiy ongli barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar va jamiyat qonunlari va me'yorlarni buzulishini istamaydilar. Sog'lom deganda, biz faqatgina jisman baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy-huquqiy ongi boy avlodni aqliy rivojlangan, axloqiy pok, ma'rifatli farzandlarni, avlodni tushunmog'imiz kerak. Prezident Sh.M.Mirziyoev erkin fuqaro, ozod shaxs, barkamol inson haqida gapirib, asosiy to'rt jihatga e'tiborni qaratdi, ya'ni har bir fuqaro:

- o'z haq huquqini taniydigan bo'lsin, buning uchun kurashish lozim;
- o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo'lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samaralarga erishsin;
- atrofida sodir bo'layotgan voqea hodisalarga mustaqil munosabat bildirsa.

Shuningdek, 2017 yil 30 iyun kuni yoshlarga qaratilayotgan e'tibori va talaba-yoshlarning davlat kelajagiga ma'suliyat bilan yondashayotganligiga qarab, talaba-yoshlarning jamiyatga fuqaro sifatida kirib kelishi ma'naviy-huquqiy tarbiyasini yuksaltirish uchun,

intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashini yanada kengaytirish, o'sib kelayotgan yoshlarni o'z mutaxassisligi bo'yicha tayyorlash, ularni rahbar sifatida shakllantirib borish va eng asosiysi yoshlarda vatanga bo'lgan muhabbatini yanada kuchaytirish, yoshlarning ta'lim-tarbiya olishi uchun munosib sharoit yaratib berishga ko'maklashish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, hamda har tomonlama barkamol shaxslar bo'lib yetishishiga munosib hissa qo'shish maqsadida Prezidentimiz tashabbusi bilan «Kamolot» YoIH negizida «Yoshlar Ittifoqi» yoshlar tashkiloti ta'sis etildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 30-iyun kunini «Yoshlar kuni» deb e'lon qildi. Hozirda yoshlar «Yoshlar Ittifoqi»-ga o'z qobiliyatidan kelib chiqqan holda va o'z xohishlari bilan yoshlar tashkilotiga ilk qadamlarini qo'ymoqda. Bunda yoshlar qamrovi cheklanmagan holda, O'zbekistonning barcha yoshlarini ayniqsa talaba-yoshlarni jalb qilish, ularga o'z yo'lini tanlashda ko'maklashish, ularga moddiy va ma'naviy yordamlashishni o'zining asosiy vazifalaridan biri qilib qo'ydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev o'z ma'ruzalarida bir necha bor ta'kidlaganidek, «Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak va bu haqiqatni barcha bo'g'indagi rahbarlar yaxshi tushunib olishi zarur»³⁰.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda yangicha, tizimli yondashuv, talabada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oiladan to oliy ta'lim muassasalarigacha, hamkorlikdagi ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga

³⁰ Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 16-bet

ko'tarish imkonini beradi. Shu munosabat bilan talaba-yoshlarda ma'naviy-huquqiy ongni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31-dekabrdagi «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risda»gi 1059-son qarori qabul qilindi. Uning asosiy maqsadi - yosh avlodda mustaqil va baxtli hayot uchun zarur ijtimoiy malaka hamda fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirishdan iboratdir. Ushbu maqsadga erishish, uchun quyidagi bir qator vazifalarni amalga oshirish belgilab qo'yildi: «ma'naviy-axloqiy-huquqiy ongni tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, ma'naviy-huquqiy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini yo'lga qo'yish»³¹. Ushbu vazifalar doirasida hamkorlik sohasida pedagoglarning moddiy-ma'naviy huquqiy ongni tubdan yaxshilanib, ta'lim sifatini oshirish zaruriy ehtiyojdir.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda milliy va zamonaviy pedagogikaning ilg'or tajribalaridan samarali foydalanish bilan birga, tarbiyalanuvchilar bilan birga tarbiyachilarning ham bilimi va malakasini muntazam oshirib borish lozim. Shundagina talaba-yoshlarda ma'naviy-huquqiy tarbiya berish, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmini to'g'ri yo'lga qo'yilishi mumkin. Xususan, oilada ota-onalarning farzand tarbiyalashga oid bilimlarini muntazam oshirib borishi, bola tarbiyasida milliy tarbiya

³¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risda»gi 1059-son qarori.

ilg'or yutuqlaridan samarali foydalanish, oliy ta'limdagi ma'naviy-huquqiy tarbiya, mahallalardagi «Ota-onalar universitetlari»da ota-onalar uchun farzandlarda yoshiga mos ijtimoiy kompetensiyalarni tarbiyalash bo'yicha, yosh ota-onalarga va mahallada treninglar o'tkazishni yo'lga qo'yish juda muhim masalalardan hisoblanadi. Shu maqsadda talabalarning ijtimoiylashuvida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish zaruriy holat bo'lish bilan birga, zararli odatlar yo'lga kirishiga sabab bo'layotgan omillarga qarshi manzilli profilaktik tadbirlarni amalga oshirish» bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilishi belgilab olindi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 30-iyundagi «O'zbekiston Respublikasi YOshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4768-son Qarori qabul qilindi. Agentlik «yoshlarga oid davlat siyosatini ishlab chiquvchi va amalga oshiruvchi, shuningdek, yoshlarning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy chora-tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshiruvchi davlat boshqaruv organi hisoblanadi»³².

«Yoshlar ittifoqi»ni shakllantirish va uni ijtimoiy harakat tashkiloti sifatida faoliyat yuritishi yaqqol misol bo'la oladi. Zero, biz ishlarni bajarishda ma'naviy-huquqiy va yuksak onglilik qanchalik to'g'ri yo'lga qo'yilsa, bu mamlakatimiz yuksakligidan dalolat beradi.

2021 yil «Yoshlarni qo'llab – quvvatlash va aholi salomatligini mustahakamlash» yili deb e'lon qilindi. Unda yoshlarni ma'naviy-huquqiy tarbiya berish, ilm-fan va ma'rifatga yo'naltirish, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash asosida iqtisodiyotning izchil va

³² O'zbekiston Respublikasi YOshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4768-son Qarori.

barqaror rivojlanishini ta'minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo'nalishlarni aniq belgilab olish muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda, bosib o'tilgan yo'l-oldingi davrdagi erishilgan yutuq va natijalarni to'g'ri baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-huquqiy tarbiya, ma'rifat rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish ham muhim prinsipial ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda so'nggi besh yillik mobaynida amalga oshirilgan islohotlarning samaradorligini oshirish va kelgusi rejalarni anaqilash maqsadida "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asoslanib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi 60 son PF farmonlari 2022 yilning 28-yanvarida imzolandi va 29-yanvarda kuchga kirdi. Qabul qilingan "Taraqqiyot strategiyasi" davlat dasturida 100-maqсад belgilab berildi va uning 70-maqсадida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishga bag'ishlangan bo'lib "Yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash. Yoshlarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o'rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog'lom turmush tarzini mustahkamlash. Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish"³³ masalalari belgilab berilgan. Shuningdek, mazkur badda "Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini

³³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"-gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni. 28.01.2022.

yuksaltirish. Iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish. Yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish. Yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish. Yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro'yobga chiqarish sohasida faoliyat olib boruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish"³⁴ masalalari davlatimizning yoshlarga nisbatan befarq emasligidan dalolat beradi.

Prezident Sh.M.Mirziyoevning talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirishni yangilash borasida oldimizga qo'ygan vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon berar ekan. Shu ma'noda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish o'rgatishga ehtiyoj o'sib bormoqda va bu borada oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ayniqsa, komil inson tarbiyasi, uning ma'naviy-huquqiy tarbiyasini rivojlantirish, bu haqida o'quv-metodik qo'llanmalar va ular asosida darsliklar yaratish ana shunday dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mamlakat va milliy taraqqiyot unga rahbarlik qiluvchi yetakchilarga ham ko'p jihatdan bu ishlar bog'lik bo'ladi. Chunki u mamlakatning qaysi yo'ldan borishi, qanday maqsadlarni ko'zlash va bajariladigan

³⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"-gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni. 28.01.2022.

ishlarini amalga oshirishning strategiyasini belgilab beradi hamda uni real hayotga tatbiq qilish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishga qodir bo'ladi. Shuning bilan birga rahbar uchun xos bo'lgan muhim xususiyat shundan, u o'zi tanlagan yo'lning aniq mo'ljalini, uning kelajakda mamlakatni taraqqiyot qildirishga xizmat qila oladigan imkoniyatlarning aniq mo'ljalini, uning kelajakda mamlakatni taraqqiyot qildirishga xizmat qila oladigan imkoniyatlarini aniq bilishi va talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo'ladi va bu mavzuni o'rganish ayni paytda zamon va davr talabi hisoblanadi.

2. TALABALARGA MA'NAVY-HUQUQIY TARBIYA BERISH TEXNOLOGIYALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviy-huquqiy jihatidan yuksak tarbiyalangan, har tomonlama barkamol shakllangan insonlar jamiyat uchun nihoyatda zaruriy ehtiyojdir. Shuning uchun birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «Yuksak ma'naviyat-yengilmas-kuch» nomli asarida buyuk hikmatlar va shiorlarni yanada balandroq ko'tarib, yuksak ma'naviy-huquqiy tarbiyani mustahkamlash, rivojlantirish hamda takomillashtirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri ekanligiga izoh beradi. Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish, yuksak ongga ega bo'lgan inson, e'tiqodli kishilar o'z maqsadi uchun, vatani uchun jonini fido qilishga ham tayyor yoshlarni shakllantirishda samarali natija beradi.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda eng avvalo faol fuqarolik pozitsiya haqida to'xtalib, fuqarolik huquqlari, ijtimoiy faollik kabi to'zilmalar yig'indisi bilan aniqlanadi.

D.V.Olshanskiy³⁵, G.N.Filonova³⁶larning asarlariga tayanib, “fuqarolik” terminini yoshlarning davlatdagi umumiy ishlarga aloqador ekanligini tushunish, qat'iy ishonch bilan jamiyatning ishlari va muammolarini hal qila olishini aniqlash mumkin. Jamiyatning moddiy va ma'naviy o'zgarishlariga, islohotlariga yunaltirilgan ongli harakatlar asosida ijtimoiy faollik aniqlanadi.

³⁵ Pevsova Ye.A. Teoriya i metodika obecheniya pravu: Uchebnik dlya studentov vissh. Ucheb. Zavedeniy. -M.: Gumanitarniy izdatelskiy sentr VLADOS, 2003. S.186-188.

³⁶ Filonov G. N. Grajdanskoe vospitanie: realnost i tendensii razvitiya // Pedagogika. — 2002. — № 10. — S. 24-29.

Faol fuqarolik pozitsiya — bu shaxsga berilgan tavsifdir. U bilimlarning chuqurligini va hajmini, ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatda ishtirok etishga tayyorligini, fuqarolik, huquqiy va axloqiy sifatlarning shakllanishini, ijtimoiy ahamiyatga ega xulq va faoliyatda tajribaning borligini, o'ziga, faoliyatga, dunyoga, jamiyat hayotiga nisbatan to'g'ri munosabatni ta'riflaydi³⁷.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda fuqarolik pozitsiyasi - bu orttirilgan sifatdir va u insonning butun hayot faoliyati mobaynida rivojlanadi va takomillashib boradi. U butun umrga orttirilgan sifat bo'lib qolmaydi, inson tushgan sharoitlariga qarab o'zgarib boradi va qonun me'yorlariga amal qilgan holda.

Ta'kidlash joizki, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda so'nggi ikki-uch yilda O'zbekistonda ta'limi berish jarayonida va bo'lajak kasb egalarining malakasini oshirish muammolari bo'yicha yangi ilmiy o'zgarishlar ilm-fan sohasida ma'naviy-huquqiy mustaqillik bo'yicha yangicha huquqiy tadqiqotlari olib borilmoqda.

Huquqiy tarbiya - bu shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

³⁷ Azarov A.Ya., Bolotina T.V.. Inson huquqlari: O'qituvchilar uchun qo'llanma: Annotatsiya. - M.: IPK i PRNO MO, 2004. - 208 b.

Huquq – qonun belgilab bergan erk me'yoridir. Axloq odam zimmasiga insoniy majburiyatlarni yuklaydi. Axloq ixtiyoriy, huquq majburiydir.

Huquqiy ong- ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, u jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida - davlat, mulk va mulkiy munosabatlarning paydo bo'lishi, aholining keskin sur'atda tabaqqalashuvi, huquq, huquqiy munosabatlar tushunchalarining paydo bo'lish jarayonida ularga yondosh tushuncha sifatida qo'llanilgan hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tashkil etish chog'ida ko'zga tashlanadi. Huquqiy ong muayyan jamiyatning moddiy hayot tarzi bilan belgilanadigan tasavvur, idrok, tafakkur va e'tiqodlar tizimi bo'lib, ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida murakkab tuzilishga ega.

Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsadi bu talabalarda madaniyatni shakllantirish, ularda huquqiy demokratik davlat sharoitida yashash qobiliyatini tarbiyalashdir.

Ma'naviy-huquqiy tarbiya jarayonining shakllari -bu ma'naviy-huquqiy tarbiyaning tashqi harakatlar usullaridir. Ma'naviy-huquqiy tarbiya turlicha shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan bilim olish, tashviqot-targ'ibot ishlari orqali. Ma'naviy-huquqiy tarbiya olish yoshlarga oylaviy, ijtimoiy munosabatlarda va hayotlarida o'zlarini harakatlarini boshqarishlarida amaliy yordam beradi³⁸.

Maqsad talaba-yoshlarimiz huquq va qoydalarni buzganligi uchun jazo olishdan qo'rqib jinoyatga qo'l urmasliklari kerak, balki huquqbuzarlik notug'riligini bilgan holda va huquqni hurmat etgan

³⁸ Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T.: Fan va texnologiya. 2010 y. 461 b.

holda va vijdonan uning notug‘riligini tushinib huquqbuzarlikga qo‘l urmasliklari kerak.

Talabalarga ma‘naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanib, davlat va hukmatimizning diqqat markazida bo‘lib uning roli va ahamiyati benihoyat kattadir.

“... bugungi davr talablariga mos ravishda har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlaydigan, mamlakatimiz istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, xalq manfaati yo‘lida bor salohiyatini safarbar qiladigan, shijoatli yoshlarni tarbiyalash, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratdi.” – deyiladi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.07.2017 y. № PF-5106 “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab- quvvatlash to‘g‘risida”³⁹-gi farmonlarida.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma‘naviy-huquqiy tarbiya berish kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub‘ekti va ob‘ekti sifatida ta‘riflanadi. Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo‘lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuqaroning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo‘nalishi bo‘yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

³⁹ O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati» to‘g‘risidagi 2016 yil 14 sentabr, O‘RQ-406-son Qonuni. – 1b.

Xulq – xulq-atvor, axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe'l-atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'lining axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi tushuniladi. Insonning axloqiy doirasidagi hatti-harakatlari xulqdan tashqari odob va axloqni o'z ichiga oladi. Odob inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin oila, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida o'zgarish yasaydigan darajada ahamiyat kasb etmaydigan hatti-harakatlardan iborat bo'lsa, axloq muayyan jamiyat, zamon insoniyat tarixi uchun ta'sir eta oladigan turli xatti-harakatlar majmui, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa. Xulq qamrovlilik jihatidan ana shu ikki hodisa o'rtasidagi xususiyatlarga ega; u odobdan keng, axloqdan tor ma'noga ega bo'lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta'sir ko'rsata olmaydi. Lekin oila, mehnat jamoasi, mahalla-ko'y doirasida sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Axloq o'zini ezgulik va yovuzlik, adolat, insonparvarlik, fidoiylilik singari ijtimoiylashgan tushunchalar va tamoillarda namoyon qilsa, xulq yaxshilik va yomonlik, burch mardlik, mehmondo'stlik kabi tushunchalarda aks etadi, odob esa kamtarlik, insoflilik, bosiqlik, halollik, rostgo'ylik va boshqa axloqiy me'yorlarda ifodalanadi.

Huquqiy tarbiya jarayonida yoshlarda quydagi xususiyatlar shakllanadi:

-O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qonunchilik asoslari huquq va majburiyatlarga ehtirom ko'rsatish;

-jamoatdagi tartibni saqlovchi organ va shaxslarga hurmat bilan muomalada bo'lish;

-qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarga qat'iy amal qilish va fuqarolik burchi va mas'uliyatini chuqur his etish;

-jinoyatchilikga qarshi kurashishga shay turish;

-huquqiy demokratik davlat insoniylik tamoyillariga hurmat bilan qarash.

Bugungi kunda, talabalarda ma'naviy-huquqiy tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirish hamkorligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va ma'naviy-huquqiy asosi muhim ahamiyatga ega. Demak, talabalarda ma'naviy-huquqiy tarbiya berishning bir qator huquqiy asoslariga tayanish va ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni va qarorlari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari, nutqlari va ma'ruzalari;
- 4) O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa huquqiy hujjatlar;
- 6) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Xalq ta'lim vazirligi va Maktabgacha ta'lim vazirliklarining farmon va qarorlari;
- 7) Sharq allomalarining asarlarida va ma'naviy-huquqiy fikrlari.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy-huquqiy tarbiya berishda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan belgilab berilgan dastur va konseptual g'oyalar orqali ijobiy natijalarga erishilmoqda. Shuning uchun ham, yurtboshimizning ma'naviy-huquqiy tarbiyaga oid qimmatli fikrlari yoshlarni ma'naviy-huquqiy tarbiyalashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyov ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala

haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda. Albatta, faqat zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallagan, mustaqil fikrlaydigan, doimo el-yurt taqdiriga daxldorlik tuygʻusi bilan yashaydigan siz, aziz yoshlarimiz maydonga dadil chiqib, bugungi kunda hayotning oʻzi oldimizga qoʻyayotgan vazifalarni hal etishga qodirsiz”⁴⁰. Yurtboshimizning mazkur fikrlari yoshlarga maʼnaviy-huquqiy tarbiya berishda quyidagilar asos boʻlaoladi:

a) maʼnaviy-huquqiy muammo hozirgi zamonning hal qilinishi lozim boʻlgan dolzarb masala ekanligi;

b) ushbu muammoni hal etishda yoshlarning keng ishtirokini taʼminlash;

v) maʼnaviy-huquqiy qonunlarga rioya qilish va maʼnaviy-huquq buzarliliklarni oldini olish;

g) yoshlarni bu sohadagi maʼnaviy-huquqiy ongi, maʼnaviyat va madaniyati zamon talabi darajasida boʻlishligini taqozo etadi.

Huquqiy madaniyatning bashorat qilish funksiyasi huquq ijodkorligi va huquqni qoʻllash, qonunlar va huquq tartibotni mustahkamlash, fuqarolarning huquqga mos xatti-harakati, faolligini, butun huquqiy tizim uchun xos boʻlgan anʼanalarni oʻz ichiga oladi. Hozirgi vaqtda ilmiy bashorat qilish va rejalashtirishning elementlari qonunchilik faoliyatida kuchayib bormoqda. Chunki qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va qabul qilishni rejali ravishda amalga oshirish zarur⁴¹.

Umuman olganda qonunni qabul qilinishi bu sohadagi munosabatlarni maʼnaviy-huquqiy tartibga solib, bir qator tadbirlarni

⁴⁰ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. Jismoniy va maʼnaviy yetuk yoshlar-ezgu maqsadlarimizga yetishda tayanchimiz va suyanchimizdir. // Xalq soʻzi, 2017 yil 1 iyul.

⁴¹ Odilqoriev X.T. Davlat va huquq nazariyas. Darslik.- Toshkent. «Adolat» 2018.- 528 b.

olib borilishi talabalar o'rtasida ma'naviy-huquqiy qonunning mohiyatini kengroq tushuntirishga, ma'naviy-huquqiy nazoratni mustahkamlashga oid ma'naviy-huquqiy va madaniyat, talim va tarbiyani zamon talablari asosida olib borishga, kelajak hayotimiz uchun mas'uliyat bilan yashashga hamda, sog'lom va barkamol avlodni dunyoga keltirish va uni tarbiyalashga, eng asosiysi ma'naviy-huquqiy muhitni kelajak avlodga bus-butun qoldirib, qabul qilingan mazkur qonun talablarini qo'llash va bajarishga katta yordam beradi.

Jumladan, "Fuqarolarning aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi huquq va majburiyatlari" qonunning 17-moddasida, aniq ko'rsatilgan. Unga asosan fuqarolar: qulay yashash muhiti; davlat boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan, shuningdek davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi organlardan sanitariya-epidemiologik vaziyat va insonning yashash muhiti holati to'g'risida axborot olish;

- yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan mahsulotning, bajarilayotgan ishlar va ko'rsatilayotgan xizmatlarning xavfsizligi hamda sifati to'g'risida axborot olish;

- aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish;

- aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlari oqibatida o'z sog'lig'iga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishi huquqiga ega.

Fuqarolar aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi hamda boshqa fuqarolarning sog'liqni saqlash va qulay yashash muhitiga bo'lgan huquqlari buzilishiga sabab bo'luvchi harakatlarga yo'l qo'ymasligi

shart. “Fuqarolar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va ularning zimmasida o‘zga majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin”⁴².

Xullas, yuqoridagi ma’naviy-huquqiy qonunlar asosida huquqiy tarbiya berish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning ma’naviy-huquqiy saviyasini, savodxonligini yanada rivojlanishiga, mustahkamlanishiga yordam berib o‘zlarini hayotida va amaliyotda bu qonun talablarini bekami ko‘st amalga oshiradilar.

Ma’lumki, 2020 yil 23-sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunni yangi tahrirda qabul qilindi. “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun 11-bob, 75-moddadan iborat bo‘lib, unda ta’limning umumiy g‘oyalari hamda ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari, ta’lim turlari aniq ko‘rsatilgan. Mazkur qonunning mazmun mohiyatini anglash, yoshlarning ta’lim olishdagi huquqiy bilimlarini oshirishda amaliy yordam beradi.

Talaba-yoshlarni ma’naviy-huquqiy tarbiyalashda **O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari** ham alohida, muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular talaba-yoshlarga ma’naviy-huquqiy tarbiya berishda asosiy huquqiy manba bo‘ladi. Jumladan, so‘ngi yillarida O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlari ma’naviy-huquqiy masalalarini tushunish va ularni o‘z vaqtida hal etishda yordam berib, iqtisodiy va siyosiy ijtimoiy ahamiyatini beqiyosligini ko‘rish mumkin. Umuman mamlakatimizda yangi islohatlardan keyin yoshlarda ma’naviy-huquqiy tarbiya berish sohasida qator qonunlar qabul qilindi.

⁴² Xolmo‘minov J.T. Suv huquqi. Darslik.-T.: TDYuI, 2011.-338- bet.

Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9-yanvardagi, “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni⁴³, xususan talabalarga ma’naviy-huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, ma’naviy-huquqiy ta’lim va tarbiyani olib borishda tub burilish tizimini yaratib berdi.

Xullas, talaba-yoshlarga ma’naviy-huquqiy tarbiya berishda asoslanadigan huquqiy manbalarni o‘rganishni, yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflarni bildirish mumkin:

birinchidan, Prezidentimiz asarlari, nutq va ma’ruzalarida ilgari surilgan vazifalarning mazmun va mohiyatini talaba-yoshlar ongiga singdirish, ularning hayotga to‘g‘ri munosabatini kuchaytirish, Prezidentning konseptual g‘oya va fikrlaridan pedagogika va ma’naviyatshunoslik fanlarini o‘qitishda asosiy manba bo‘lishini ta’minlash;

ikkinchidan, yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish orqali O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunlariga hurmat hissini tarbiyalash, ayni paytda o‘zining fuqorolik huquq va burchlarini anglagan xolda yashashi, jamiyat xayotida ongli fuqaro, erkin shaxs sifatida ishtirok etish malakalarini shakllantirish;

uchinchidan, yoshlarning dunyo va mamlakat miqiyosidagi siyosiy jarayonlarga mustaqil va ongli munosabatini shakllantirish, axborot xurujlariga qarshi faol fuqarolik pozitsiyasini va mustahkam mafkuraviy immunitetni tarbiyalash ijobiy natija beradi.

⁴³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi, ”Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi,10.01.2019 y.,06/19/5618/2452-son.

3. SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDA MA'NAVIY- HUQUQIY TARBIYA BERISH HAQIDAGI MA'NAVIY MEROSDAN FOYDALANISH MUAMMOLARI

Buyuk ma'rifatparvar olim Abdurauf Fitrat "Har bir mamlakatning tolesi va taraqqiyoti yoshlarga qanday ta'lim va tarbiya berishligiga har tomonlama bog'liqdir", degan ezgu shiorni o'rta tashlagan edi.

Shu bois, mamlakatimizda sog'lom va har qanday illatlardan xoli bo'lgan ta'lim tarbiya muhitini shakllantirish, ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar va Sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish amaliy natija berishi ilmiy jihatdan isbotlandi.

Eramizdan oldingi ming yillik o'rtalariga kelib, ibtidoiy jamoa bo'lib yashash an'anasi asta-sekin rivojlana bordi, jahon madaniyatida isoniyat tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlar yaratildi. Ajdodlarimiz tomonidan talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish tushunchalarining ayrim jihatlari mavzusida juda ko'plab afsona va rivoyatlar yaratilgan bo'lib, ular avloddan avlodga og'zaki va yozma ravishda o'tib borgan. Ayniqsa, "Avesto" tarbiyaviy manba sifatida katta ahamiyatga ega. Asarning o'zagi hisoblangan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal kategoriyalari qadimgi ajdodlarimizning axloqiy tasavvurlarini juda ham mazmuniga ekanligidan dalolat beradi. "Fikr, so'z va amal tushunchalarining birligi ibtidoiy insonning ham ajralmas ma'naviy xislati"⁴⁴ edi. Chunki, ularning ong, axloq va boshqalar xususidagi tasavvurlari o'zi mansub bo'lgan jamoa bilan uzviy bog'langanligidan

⁴⁴ Avesto: tarixiy-adabiy yodgorlik/ N.Jo'raev (A.Mahkam tarjimasi). – T.: G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – 732 b.;

dalolatdir. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish tushunchalariga jamoaning fikri, uning ham fikri, jamoaning so'zlari, uning ham so'zlari, jamoaning ishlari uning ham ishlari bo'lgan. Ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarning uyg'unligi – urug'chilik jamiyatining muhim belgisi bo'lib, jamoaning xar qanday topshirig'ini bajarish uning a'zolari uchun muqaddas qonun hisoblangan.

O'rxun - Yenisey yozma yodgorliklarida bayon etilgan qarashlar eng yuksak insoniy fazilatlar sifatida e'tirof etilgan xislatlarni zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida yosh avlodda hosil qilish, ularda vatanparvarlik, mardlik, shijoat, xalq manfaati yo'lida kurashish tuyg'ularini shakllantirishda o'ziga xos yo'llanma, yo'riqnoma bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyoda Islom ta'limoti g'oyalari yoyilgunga qadar bu yerda yashovchi xalqlar ko'p sonli xudolarga, quyoshga, ko'k din (shaman)ga hamda o'zlari muqaddas deb bilgan narsalarga sig'inishar edi. Shu sababli “o'lkada yagona bir g'oyaviy e'tiqod tarkib topmagan bo'lib, bu holat aksariyat vaziyatlarda turli elatlar o'rtasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqarar va o'zaro janjallarga sabab bo'lar edi”⁴⁵.

Islom ta'limoti, musulmonchilikning talablari, ma'naviy-xuquqiy va axloqiy me'yorlari Qur'on Karim va uning tafsirlari, Hadisi Sharifda shariat qoidalari bitilgan qo'llanmalar hamda ilohiyotga oid adabiyotlari mazmunida batafsil ifodalangan. Qur'oni Karim insonlarni tinch-totuv yashashga, birodarlik, tenglik, saxiylik va bir-biriga mehr-muhabbat ko'rsatishga hamda insonni ma'naviy kamolotga erishishida rioya etishi

⁴⁵ Xudoyqulov X. J. Komillik fazilatlar. -T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021y. 60 b.

lozim bo'lgan talablarni bir butun holda mujassam eta olganligi bilan belgilanadi. Jumladan, islom ta'limotida insonning ma'naviy-huquqiy rivojlantirishga katta e'tibor beriladi. Ilm va haqiqatni dalillar yordamida isbotlash, so'zlaganda va amaliy harakatni tashkil etganda aniqlikka e'tibor berish, fikr yuritishda va muayyan faoliyatni yo'lga qo'yishda o'zgalarga taqlid qilishdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi qayta-qayta ta'kidlanadi. "Zumar" surasi, 18-oyatida:

«Mening bandalarimga - so'zga quloq tutib, uning eng go'zaliga (ya'ni, najotga eltuvchi rost so'zga) ergashadigan zotlarga xushxabar bering! Ana o'shalar Olloh hidoyat qilgan zotlardir. Va ana o'shalargina aql egalaridir» – deb ta'kidlanadi.

Sharq uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar ham yaratilib, ta'lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlari haqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi. Xususan, Muxammad al-Xorazmiy bilish nazariyasiga muhim hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib, sinov-kuzatish va sinov metodlariga asos solib, matematik g'oyalar asosida odamlarning hayotiy zarurati yotishini, ilmiy kashfiyotlar odamlarning amaliy talablari asosida paydo bo'lishini asoslagan.

Imom Buxoriy hadis va tasavvuf ilmining yetuk namoyandasi inson huquqlari va uning ijtimoiy mohiyatini Qur'oni Karim va Hadisi Shariflarda qo'yilgan islom hamda shariat talablari asosida ko'rsatib berishga harakat qilgan. "Islomning bu muqaddas manbalarida insonning taqdiri va hayoti Olloh nomi bilan bog'liq holda ifodalab beriladi. Bunda yer yuzidagi barcha insonlarning Olloh oldidagi tengligi g'oyasi, har bir insonga Olloh tomonidan berilgan ne'matlardan

ularning baravar foydalanishi zarurligi g‘oyasi bilan chambarchas bog‘lanib ketganini ko‘ramiz”⁴⁶.

Imom Buxoriyning “Al-adab, al-mufrad” (Adab durdonalari) asarida “ota-ona haqini ado qilish, farzandning ota-onasi oldidagi va ota-onaning farzandi oldidagi haq-huquqlari, ziyorat qilish, turar joyga ega bo‘lish va boshqa shular singari haq-huquqlarning har biri alohida hadislarda berilganki, bunday holni hadislar to‘g‘risida yozilgan har bir asarda uchratish mumkin”⁴⁷.

Jamoat tashkilotlarining paydo bo‘lishi, tuzilishi, turlari to‘g‘risida, davlatning jamiyat hayotidagi roli va o‘rni, davlat hokimiyatini tashkil etilishi va uni amalga oshirishi metodlari haqida Al Buxoriy, al-Hakim at-Termiziy, Al-Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Amir Temir, Alisher Navoiy, Mirzo Bedil, Yusuf Xos Hojib, Bobur, Ahmad Donish, Abdulla Avloniy va boshqalarning asarlaridan boy manba sifatida foydalanishimiz mumkin.

Sharqning buyuk ensiklopedistlaridan Forobiy, Beruniy, Ibn Sino qarashlaridan o‘quvchilarning davlat, uning belgilari, paydo bo‘lish shatr-sharoitlari to‘g‘risidagi bilimlarining to‘liqroq bo‘lishlari uchun foydalanish mumkin.

“Davlat” va “Jamiyat” tushunchalari to‘g‘risida bilish uchun Forobiyning qarashlariga e’tiborni qaratish kerak, u jamiyat davlatga qaraganda qadimiyroq, jamiyat davlatsiz bo‘lishi mumkin, davlat esa jamiyatdan bo‘lakcha bo‘lmaydi, davlat jamiyat rivojlanishining ma’lum bosqichida paydo bo‘ladi degan edi⁴⁸.

⁴⁶ Boboev H. Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘zbekiston. 1997. B. 44.

⁴⁷ Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-Mufrad (Adab durdonalari). T., O‘zbekistan, 1990. B.20

⁴⁸ Xudoyqulov X.J., Xolov O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma.-Termiz-2020y.

Abu Nasr Forobiy inson kamolotga yolg'iz o'zi erisha olmasligini ta'kidlab, boshqalar bilan aloqada bo'lishi, ko'maklashuvi hamda munosabatlariga muhtoj bo'lishini aytadi.

Mirzo Bedil va Ahmad Donishning qarashi ham qiziqarli bo'lib, Bedil davlatning paydo bo'lishini jamiyatdagi turli manfaatni ko'zlovchi ijtimoiy guruhlarining bajarilishi va ular o'rtasidagi hokimiyat, bir-birlari ustidan hukmronlik qilishlari uchun kurashni asosiy shart-sharoit deb ko'rsatgan. Donish esa "siyosiy – huquqiy qarashlar tarixida birinchi bo'lib davlatning paydo bo'lishini xususiy mulkning paydo bo'lishi bilan bog'lab ko'rsatgan"⁴⁹.

Davlatning jamiyat hayotidagi roli va o'rni haqida talabalarning tushunchalarini kengaytirish uchun hozirgi va avvalgi qarashlarni solishtirish yo'li bilan erishish mumkin.

Forobiy, Beruniy, Ibn Sino va Ahmad Donishlarning davlatning asosiy vazifasi haqidagi qarashlari bir – biriga o'xshash.

Talabalarning davlat hokimiyatini tashkil etish to'g'risidagi bilimlarini shakllantirishda ma'rifatparvar, odil hukmdor g'oyasini ilgari surgan Forobiy, Beruniy, Navoiy, Ahmad Donish qarashlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Forobiy yakka hokimlikni ya'ni monarxning hokimiyatining tarafdori bo'lgan, shuningdek u aristokratiya hokimiyatini, demokratiya hokimiyatini ham yoqlagan. Demokratiya uning fikricha, aholi tomonidan saylangan, donishmandlar va davlatni boshqa donishmandlar bilan hamkorlikdagi boshqaruvidir.

⁴⁹ Safarova R. Djuraev R. O'quvchi-yoshlarni «ommaviy madaniyat» xurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari.-Toshkent. "Tafakkur qanoti", 2017. 200 b.

Beruniy davlatni boshqalardan o'zining aqli, adolatliligi va bir qator fazilatlari bilan ajralib turuvchi shaxs boshqarishi kerak, deb hisoblagan.

Forobiy, Beruniy, Navoiyning hukmdorlarga talabini Ahmad Donishning fikrlari to'ldiradi. Uning ta'kidlashicha, davlat hokimiyati adolat, qo'shin, xalq, suv va xazinasiz bo'lishi mumkin emas. Xalqning yaxshi yashashi va davlatning gullab yashnashi odil hukmdorning siyosatiga bog'liq, deb ta'kidlagan edi.

Amir Temurning hukmdorga qo'ygan talablari bugungi siyosiy liderlar uchun ham katta ahamiyatga ega. Temur o'zi amal qilgan va boshqa hukmdorlarga qo'ygan davlatni boshqarishdagi talablarini o'zining "Tuzuklar"-ida ifodalagan. Temur yirik bir imperiyaning hukmdori bo'lishiga qaramay, u bir haqiqatni, ya'ni kuch zo'ravonlikda emas, balki adolatda ekanligini chuqur anglagan edi. Uning yozishicha: "Yomonlikka yaxshilik qil, shunda sening dushmaning do'stingga, himoyachingga aylanadi"⁵⁰.

A. Temurning adolat to'g'risidagi qarashlarini uch yo'nalishga ajratish mumkin: axloqiy; siyosiy; huquqiy.

Temur tuzuklarida yozilishicha A. Temur hukmdor uchun adolatlilik va haqqoniylik asosiy shartdir, deb hisoblaydi. Har bir hukmdor o'z fuqarosi siymosida o'zini ko'rish lozim. Hukmdor o'z xalqiga g'amxo'rlik qilishi, nochorlarni qo'llab – quvvatlashi lozim. "Agar men amaldor tomonidan fuqarolarning yoki askarlarning manfaatlari payxon qilinadigan bo'lsa, aybdorga odil sudlovning haqqoniyligini his etish imkoniyatini yarataman"⁵¹.

⁵⁰ Temur tuzuklari: tarixiy adabiyot/ A.Sog'uniy va H.Karomatov.-Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2018.- 160 b.

⁵¹ Mirzoev B.K.: Harbiy xizmatchilarning huquqiy tarbiyasi: Nazariy va amaliy masalalar: dissertatsiya ... qonuniy Fanlar. - M., 2001 yil. -147s.

Qonunchilikni mustahkamlash muammolarini o'rganishda Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Temur, Navoiy, Yusuf Xos Hojib, Donish, Anbar Otin va boshqalarning aniq fikrlari muhim ahamiyatga ega. Navoiyning fikricha adolat bu – qonunlarga muvofiq holdagi kishilarga bo'lgan munosabat. Jamiyatdagi barcha yomonliklarni u davlat qonunlari va insoniy axloqning buzilishi bilan tushuntirgan. O'quvchilarning qonunchilik to'g'risidagi bilimlarini Ahmad Donish qarashlari yordamida shakllantirish mumkin.

Buyuk shoir va faylasuf Mirzo Abduqodir Bedil davlat insoniyat jamiyatining boylar va kambag'allarga, ezuvchilarga bo'linishi natijasida kelib chiqqan deb tushuntiradi.

Davlat va huquq muammolariga Ahmad Mahmud – Ahmad Donish - ham doimo e'tibor bergan. Davlat, deb qayd etadi. A. Donish – xalq bilan podsho o'rtasida xalqni talon - taroj va o'g'irlikdan himoya qilish maqsadida tuzilgan shartnoma natijasida shakllanadi.

Alisher Navoiyning o'z asarlaridagi hukmdorlarga qarata aytgan murojaatlari alohida e'tiborga loyiq: “O'zing hohlamagan narsani, xalqingga ham ravo ko'rma, haddan tashqari nazoratdek, nazoratsizlik ham zararlidir”⁵² va boshqa fikrlari e'tiborga molik.

Alisher Navoiy ilm-fanning inson kamolotidagi o'rni va bilimlarni o'qib o'rganish asosida hosil qilingan aql va idrokning inson xayotidagi ahamiyati hamda aqliy tarbiya va uning mohiyatini yoritishga e'tibor qaratadi. Alloma insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususida so'z yuritib, mazkur sifatlarning har biriga ta'rif beradi. Qanoat, sabr, tavoze (adab), o'zgalarga nisbatan mehr-muhabbatli

⁵² Xudoyqulov X. J. Komillik fazilatlar. -T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021y. 60.

bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabi xislatlarni ijobiy fazilatlar sirasiga kiritadi.

Abdulla Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. «Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar»⁵³.

Sharq falsafasi va axloq ilmida mazkur axloqiy hodisa, juda qat'iy chegaralangan bo'lmasada, bir-biridan qat'iy tarzda olib qaralgan. Yevropada esa xulq bilan axloq ko'p hollarda almashtiriladi yoki ular bir-biriga sinonim tushunchalar sifatida talqin etiladi. Xulq o'zicha, «sof» olinganda mavhum axloqiy hodisa, u inson xatti harakatlarida aniqlik kasb etadi; ijobiy hatti-harakatlarda namoyon bo'lishi xushxulqlilik, salbiy a'mollardagi ko'rinishi - badxulqlilik deb ataladi. «Xushxulq inson muloyim, shirinsuxan, mehribonlik bilan munosabatda bo'lsa, badxulq odam qo'pol, og'zi shaloq, bemehr bo'ladi»⁵⁴.

O'zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quydagicha ta'rif beradi: «Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdur. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur»⁵⁵.

⁵³ Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud- axloq. –T.: O'qituvchi.1992.-14 b.

⁵⁴ Djuraev R.X., Tolipov O'.Q., va boshqalar. Pedagogik atamalar lug'ati. Toshkent – 2008.

⁵⁵ A. Avloniy. Turkiy guliston yo xud axloq. T. : "O'qituvchi", 1992-y., 14-bet.

“Axloq – inson hayotida o‘z-o‘zini idora qilish me‘yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini, halol ishlab, to‘g‘ri hayot kechirish mezonlarini o‘rgatadi”⁵⁶.

Ibn Sino: “Axloq har bir kishi uchun o‘z-o‘zini idora qilishi ilmidur”⁵⁷ deb uning mazmunini ifodalab bergan edi. Axloq me‘yori va qoydalari tarixiy taraqqiyot davomida tarkib topib, takomillashib borgan va kishilarda birgalikda yashash sharoitidan, tabiiy ehtiyojidan, ijtimoiy manfaatlari va hayotiy talablaridan kelib chiqqan va ular muayyan tarixiy davrdagi kishilarning xati-harakati, yurish-turishi va boshqalarga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘lgan. Ana shu tartib –qoidalarsiz biron-bir jamiyat bo‘lmagan va bo‘lmaydi ham.

Bu haqda donishmand Suqrot naql qiladi: “Tarbiya qiyin ish va tarbiya shart-sharoitlarini yaxshilash har qanday kishining ham muqaddas burchlaridan biridir, chunki o‘zini va tevarak-atrofdagilarni ma’lumotli qilishdan ko‘ra muhimroq ish yo‘q”⁵⁸.

Fuqarolar jumladan talabalarning ijtimoiy, siyosiy-huquqiy saviyasi, bugungi kun g‘oyalarining ular ongida shakllanishi Ona-Vatan, yurt istiqboli yo‘lidagi demokratik islohatlarni izchil ta’minlashda sharq mutafakkirlari merosidan foydalanish muhim omil sifatida xizmat qiladi.

⁵⁶ Gafarov Z.M., Karimova O.A. Huquqiy metodik o‘qitish: O‘quv qo‘llanma.-T.: O‘qituvchi. 1996.-232 b.

⁵⁷ Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika nazariyasi va tarixi.-T.: Fan va texnologiya. 2010 y. 461 b.

⁵⁸ Odilqoriev X.T. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.- Toshkent. «Adolat» 2018.-528b.

4. TALABALAR ORASIDA DEVIANT XULQ-ATVORINING KELIB CHIQISH SABABLARI, ULARNING MA'NAVIY- HUQUQIY IJTIMOIIY NAZORAT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Bugungi dunyo taraqiyotida talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalari va ularni takomillashtirish alohida ahamiyatga ega bo'lgan muammo hisoblanadi. Buning uchun talaba haqida to'xtalib uning ijtimoiylashuviga e'tibor beramiz. Talaba yoshlar aholining alohida toifasini tashkil etadi. Ular jamiyatda o'zining alohida funksiyasiga ega, va bu funksiyalarni hech bir ijtimoiy guruh bajara olmaydi va amalga oshirolmaydi. Talaba yoshlar o'zlarining o'tmishdoshi tomonidan fanda texnikada, ta'limda, madaniyatda, adabiyotda, san'atda, inson hayot faoliyatining barcha sohalarida ishlab chiqilgan yangiliklarni tezda qabul qiladi.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ularning aniq soni, jinsiy-yoshga oid tuzilishi, hududiy taqsimoti, aniq ijtimoiy holati, roli, statusi bilan ta'riflanadi, ijtimoiylashuvining alohida bosqichi bilan farq qiladi, bu bosqich doirasida yoshlar hayot faoliyatining asosiy bosqichlarida o'quv-professional, ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy ma'naviy-huquqiy qiziqishlar shakllanishi va amalga oshishi orqali namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, talabalik endigina ijtimoiy hayotga qadam qo'yayotgan insonlar bo'lib, u hali mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-huquqiy, oilaviy-maishiy, jarayonlar bilan birlashmagan bo'ladi.

Yoshga oid bunday bosqich o'zini ijtimoiy jihatdan va shaxs sifatida anglash bilan bog'liq. Shuning uchun, bu yoshda yosh yigit-

qizlarda maqsad sari intilish, qat'iyatsizlik, tashabbuskorlik kabi shaxsiy sifatlarni mustahkamlash zarur. Yoshlik chog'ida talabaning ma'naviy-huquqiy, ijtimoiy-axloqiy motivlari, javobgarlikka, sodiqlikka qiziqish faoliyati batamom shakllanib bo'ladi, ammo ba'zi bir yoshlarda ma'naviy yetuklik hali yetarli shakllanmagan, ishonuvchan, mustaqil fikrga ega emaslar, natijada ularning hati-harakatlarida deviant xulq ko'rinishlari ko'zga tashlanadi.

O'qishdan tashqari vaqtda talabalarda vaqtinchalik bandlik muammolari yuzaga keladi, shuningdek yoshlarning qo'shimcha mehnat qilishlarini ta'minlash tizimining yo'qligiga duch keladilar. Bo'sh vaqtning past madaniyati, ba'zida esa aqliy, ijodiy salohiyatlarini amalga oshirishda imkoniyatlarning yo'qligi talabalarning huquqqa qarshi harakatlariga, talabalar shaharchasida tartibsizliklar ko'tarishiga sabab bo'ladi. Afsuski, bugungi kunda yoshlar muhiti orasida kashandalik, alkogol qabul qilish, narkomaniya va taksikomaniyaning tarqalishi kengayib bormoqda. Yoshlar o'rtasida yosh sog'lom oilani shakllantirish, demakki sog'lom bola tug'ilishi masalalari dolzarbdir. Yosh insonlar o'rtasida nikohlar sonining kamligi favqulotda choralar qabul qilish zaruriyatiga olib keladi.

Yuzaga kelgan vaziyatni yoshlarning ijtimoiy faolligi, ularning kasbiy va ikkilamchi bandligi muammolari, narkomaniya va taksikomaniyaning rivojlanishi, fuqarolikning sust rivojlangan hislari, yoshlarga oid davlat siyosatining ustuvor yunalishlarining amalga oshishi orientatsiyasi bilan tahlil qilish talaba yoshlarga nisbatan mahalliy organlar faoliyatining asosiy maqsadlari: shaharda yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga talaba yoshlarning tez va ijobiy ko'rinishlari uchun sharoit yaratish, shahar hamjamiyatining o'ziga xos

sharoitlariga talaba-yoshlar salohiyati rivojlanishining yo‘nalishlari kabilari aniqlanadi.

Talaba yoshlarning ta’limi va mehnatga bo‘lgan qiziqishlari, ta’lim ijtimoiylashuvining umumiy muammolari, jamiyat va ta’limning o‘zaro aloqadorligi ko‘zga tashlanadi.

U ta’lim jarayoni va u bilan bog‘lik faoliyat yoshlarning mustaqil hayotga qadam qo‘yishi va o‘zlarini namoyon qilishlari vositasi ekanligini asoslagan. Tanlashning nisbiy erkinligi javobgarlikka, o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘lishga imkon yaratadi.

Talaba (lotinchadan *studens*, *studentis* - tirishqoqlik bilan ishlovchi, o‘qish bilan shug‘ullanuvchi) bu “oliy, ba’zi mamlakatlarda o‘rta ta’lim muassasasi o‘quvchisi”⁵⁹. Qadimgi va o‘rta asrlarda o‘zini anglash jarayoni bilan band bo‘lgan har qanday shaxsni talaba deb ataganlar. XII asrda universitetlar tashkil etilgach, ularda tahsil oluvchi shaxslar (boshlang‘ich va ta’lim beruvchi) uchun “talaba” termini ishlatila boshladi; keyinchalik o‘qituvchilar uchun ilmiy unvonlar (magistr, professor) joriy qilingach “talaba” termini faqat o‘quvchilarga nisbatan ishlatila boshlandi.

Talabalik ham umumiy xislatlarga, ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega yoshlarning alohida qismini kasb etadi.

Talabalik - termini aniq soni, jinsiy-yoshga oid tuzilishi, hududiy taqsimotni ta’riflaydigan ijtimoiy-demografik guruh oliy ta’lim muassasalari talabalarini anglatadi; ma’lum ijtimoiy holatni, rolni, statusni anglatadi; ma’lum psixologik-ijtimoiy xususiyatlari bilan ta’riflanadigan va yoshlarning katta qismi bosib o‘tadigan ijtimoiylashuv bosqichini (talabalik yillari), alohida fazani anglatadi.

⁵⁹ Abzalov E.M. Pravovoya kultura i pravonarushenie molodeji. –T.:1997.21s.

“Talabalik — bu harakatchan ijtimoiy guruh, uning maqsadi moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishda yuqori professional va ijtimoiy rolni bajarishni ma’lum dastur asosida tashkillashtirishdir”.

Ilmiy-texnikaviy inqilob talabalikning holatida va tarkibida katta siljishlar olib keldi. Ma’lumotli kadrlarga ehtiyoj talabalar sonining tez oshishiga, aholining umumiy qismi o‘rtasida ularning salmog‘i, ayniqsa yoshlar guruhlarida ularning roli oshishiga olib keldi.

Respublikamizda OTMlarning ko‘payishi sababli talabalar soni ham oshib shaharlarda odam ko‘paydi. Yoshlarni ilm fan va innovatsiya sohasiga jalb etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 17 oktyabrdagi 832-son “O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzurida Yoshlar innovatsiya markazini tashkil etish to‘g‘risida”, 2020 yil 22 maydagi 313-son “Respublika hududlarida Yoshlar texnoparklarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va 2021 yil 19 apreldagi 222-son “Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug‘ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo‘llab-quvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlar qabul qilindi.

Talabalik ishlab chiqarish tizimida mustaqil o‘rinni egallamaydi, talabalik statusi shak-shubhasiz vaqtinchadir, talabalikning ijtimoiy holati va o‘ziga xos muammolari ijtimoiy tuzum xarakteri bilan ta’riflanadi, oliy ta’lim tizimining milliy xususiyatlarini o‘z ichiga olgan holda, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi darajasiga bog‘lik bo‘lgan holda aniqlashtiriladi.

Shunday qilib, talabalik mehnatning ijtimoiy taqsimoti tizimida asosiy rolni bajaradi, ushbu mehnat taqsimoti moddiy va ma’naviy qadriyatlar ishlab chiqarishida muntazam ishtirok etmagan holda aql-zakovat funksiyalarini bajarishga tayyorgarlikni nazarda tutadi, shunga

qaramasdan, talabalik o'quv shaklining vositali ishlab chiqarish va ishlab chiqarmaydigan mehnatida qisman ishtirok etadi, bu rol jamiyatda o'sib boradi.

Bugungi kunda oliy ma'lumot olishning maqsadi talabalar tomonidan professional bilim, ko'nikma va mahoratlarning o'zlashtirilishi bilan birga axborot, kommunikativ, tadqiqotga oid, umummadaniy kompetensiyalarning (sohalarning) o'zlashtirilishidir. "Talabalik jarayonida faqatgina professional bilimlarni to'plash emas, balki shaxsning faol rivojlanishi ham sodir bo'ladi"⁶⁰. Talabalik yoshi mansub bo'lgan kech o'smirlik davrida to'liq voyaga yetish, shaxsning avvalgi sifatlarini yangi mazmun bilan to'ldirish, ijtimoiy yetilganlikning shakllanishi, fuqarolik pozitsiyasi kabilar sodir bo'ladi.

Butun pedagogik jarayonning muhim tarkibiy qismi bo'lib o'quv jarayoni namoyon bo'ladi. O'qish murakkab, ko'pqirrali, ko'pkomponentli jarayon, u sezilarli ravishda o'zining mohiyatini bir ma'noda ta'riflashni qiyinlashtiradi.

Talaba o'quv jarayonida tashkilotchi bo'ladi. O'qishning asosiy vazifasi - talabalar tomonidan yangi bilimlarni, faoliyatning usullarini qidirish va ochish, ularni o'zini rivojlantirish rejimiga kiritishdir.

Talabalarning motivatsion sohasi butun o'qish yillari mobaynida jushqinligi, o'zgarishi mumkinligi bilan ajralib turadi. Shuning bilan birga ba'zan talabalarda me'yordan og'ish, me'yorlarga amal qilmaslik va qonunga zid harakatlarni ham kuzatish mumkin.

Talabalarning ijtimoiylashuvida deviant xulq-atvorining kelib chiqish sabablarini o'rganish, ularning ma'naviy-huquqiy ijtimoiy

⁶⁰ Madaliev Z. D. Yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish va takomillashtirish muammolari: muallif. dis... yuridik fanlar nomzodi. - Toshkent 1992. - 21 b.

nazorat mexanizmlarini shakllantirish asosiy muammo sifatida o'rganiladi va ularni bartaraf etish doimiy takomillashtirib boriladi.

Jamiyat har doim inson xulq-atvorining nomaqbul shakllarini imkon boricha kamaytirishga harakat qilgan. Barcha holatda teng ravishda yoqimsiz odamlar, daholar va zolimlar, dangasalar va o'ta mehnatsevarlar, kambag'allar va boylar bo'lib kelgan. O'rta me'yordan ham ijobiy, ham salbiy tomonga bunday turdagi og'ishishlar jamiyatning barqarorligiga tahdid solib kelgan.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya me'yordan og'ishadigan xulq-atvor inson harakatlarining katta qismini qamrab oladi. Og'ishning oralig'i, shuningdek buziladigan me'yorlarning xarakteriga bog'liq holda ularning uchta darajasini ajratish mumkin:

1. Odob-axloq me'yorlaridan arzimagan darajada, ya'ni me'yordan og'ishish.

2. Huquq me'yorlarining unchalik sezilarli bo'lmagan darajada buzilishi, bu uchun jinoiy javobgarlik tayinlanmasligi ijtimoiylashuvda delekvent xulq-atvor deb ataladi.

3. Jinoiy huquq me'yorlarining jiddiy ravishda buzilishi jinoyat yoki jinoiy xulq-atvor deb ataladi.

Shunday qilib, jamiyat fikrining noroziligini keltirib chiqaradigan har qanday xulq-atvor og'ishi yoki jamiyat me'yorlarini buzulishi deb ataladi. Bular har doim me'yor va qonun doirasida nazorat qilinadi. Bularni kengroq ma'noda deviant ya'ni me'yordan og'ish xulq-atvorining asosiy shakllariga quyidagilarni kiritadilar:

1.Ichkilikbozlik; 2. Giyohvandlik; 3.Jinoyatchilik; 4.O'z joniga qasd qilish; 5.Fohishabozlik; 6. Qimorbozlik.

Talaba-yoshlar ba'zida bularga tavakkalchilikka asoslangan holda ham kirib qolishlari mumkin. Og'ishadigan xulq-atvor shakllarining barcha xilma-xilligini 3 guruhga bo'lish mumkin: xususan deviant, delikvent va jinoiy.

Bugungi kunda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda deviant xulq-atvor muammolariga bo'lgan qiziqish ortmoqda. Bunday og'ishlarning ilmiy o'rganilishi jinoyatni o'rganish sohasida, ijtimoiylashuvda, ijtimoiy ishda, pedagogikada amalga oshiriladi. Antik davrda og'ishdagi xulq-atvor sabablarini o'rganish nazariy ishlanmalar darajasida o'rganishni talab etadi. "Demokrit, Sokrat, Platon, Aristotel, Epikur va antik falsafaning boshqa namoyondalari axloqning, odobning, huquq va qonunlarning, ijtimoiy me'yorlar va ijtimoiy og'ishish mazmunining kelib chiqishi va roli tushunchalariga asos solganlar"⁶¹.

Ijtimoiy me'yorlar va og'ishishlar muammolariga ratsionalistik va insonparvarlik (gumanistik) yondashuvlar, ma'rifat davri namoyandalarining ijodida aniq va tiniq keltirilgan. "Ijtimoiy me'yorlar buzilishining asosiy sabablarini u insonning ehtiroslar ta'siriga moyilligida va adashish xususiyatlarida ko'radi"⁶².

Ijtimoiy me'yorlardan og'ishishning barcha shakllarini J.J.Russo xususiy mulk paydo bo'lishining natijasi, insonlar o'rtasida tengsizlikning kuchayishi, jamiyatning boylar va kambag'allarga ajralishi deb hisoblagan. Uning fikricha, axloqqa zid har qanday harakatlar, huquqbuzarliklar, jinoyatlar uchun jamiyat va unga yaqin bo'lganlar javobgardirlar. Ijtimoiy mushkullikdan chiqish yullarini

⁶¹ Tatarinseva Ye.V. Pravovoe vospitanie, metodologiya i metodika. - M.: Visshaya shkola, 2007. - 231s.

⁶² Knyagin K.N. Sotsialnye instituti pravovogo vospitaniya// Demokratiya i pravoprimenenie. - Krasnoyarskiy, Un-t. - 1994. - S. 41-44.

“Russo mavjud ijtimoiy munosabatlarni, davlatni va huquqni tubdan qayta tashkil qilishda”⁶³ deb hisoblaydi.

Tabiat va jamiyatdagi ijtimoiylashuvda, davlat va huquq, odob-axloq, din va estetika haqidagi falsafiy ta’limotlar kontekstida ijtimoiy me’yorlar va og’ishlar masalalarining chuqur nazariy ishlanmasi I.Kant, I.G.Fixte va G.Gegellar tomonidan keltirilgan.

XIX asr oxiri — XX asr boshida ijtimoiylashuvning tadqiqotlari og’ishadigan xulq-atvorning insonlar mavjudligining ijtimoiy shartlari bilan bog’liqligini aniqlaganlar. Deviant xulq-atvor bo’yicha tadqiqotlarning boshida E.Dyurkgeym turgan, u “anomiya” tushunchasini kiritgan. “Anomiya tushunchasi ostida u hayotda maqsadning yo’qligi, ajralib qolganlik va yolg’izlik hissi sababli yuzaga kelgan insonning og’ishadigan xulq-atvorini tushungan, bo’lar avvalgi me’yorlar, qadriyatlar real munosabatlar bilan mos kelmagan, yangilari hali tasdiqlanmagan paytda jamiyatning tashkil etilmaganligi, unda insonlar xulq-atvorining aniq axloqiy tartibi yo’qligi bilan bog’liq”⁶⁴.

E. Dyurkgeym tezkor ijtimoiy, iqtisodiy o’zgarishlar jamiyat tuzilmasida tartibni buzgan paytda anomiya rivojlanadi deb hisoblagan. “Ijtimoiy anomiya” nazariyasining asoschisi R. Merton bu terminni rivojlantirgan va o’zgartirgan. Og’ishadigan xulq-atvor bilan ijtimoiy struktura o’rtasidagi chambarchas bog’liqlikka urg’u bergan holda R.Merton “ijtimoiy strukturalar jamiyatning alohida a’zolariga bosim o’tkazadilar va ularni yaxshi qoidalardan og’ishish yo’liga o’tishga undaydilar”⁶⁵ deb hisoblaydi. Anomiya “madaniyat” va “ijtimoiy

⁶³ Kurilenko Ye.N. Konfliktologiya kak sostavlyayushaya grajdanskogo vospitaniya molodyoji. - M. 2001.

⁶⁴ Kurilenko Ye.N. Formi i metodi sotsialno-pedagogicheskoy raboti s podrostkami deviantnogo povedeniya: Metodicheskoe posobie dlya rabotnikov sotsialnix slujb. - Belgrad, 1995. - 42s.

⁶⁵ Mixaylovskaya I.B. i dr. Yuridicheskaya pomosh naseleniyu: potrebnosti i vozmojnosti. - M., 2005.

struktura” o‘rtasidagi me‘yorl qonuniy vositalar v ehtiyojlarni qondirishning yangi (noqonuniy) usullarini izlash o‘rtasidagi nizo yoki kelishmovchilik natijasini namoyon etadi.

Deviant xulq-atvor (lot. *Deviatio* — og‘ish, chetga chiqish) ostida quyidagilar tushuniladi:

1. Jamiyatda yuzaga kelgan yoki rasman o‘rnatilgan “ruhiy salomatlik, huquq, madaniyat yoki axloq me‘yorlari” ga mos kelmaydigan insonning xatti-harakatlari.

2. Jamiyatda yuzaga kelgan yoki rasman o‘rnatilgan me‘yorlarga (standartlarga, andozalarga) mos kelmaydigan, inson faoliyatining ommaviy shakllarida aks etgan ijtimoiy hodisa.

Ijtimoiy o‘zgarishlar deviant xulq-atvor yo‘li bilan amalga oshiriladigan inson hayot faoliyati bilan ijtimoiy tizimlarning ishlashi bog‘liq bo‘lgani uchun xulq-atvordagi og‘ishish tabiiy va zarurdir. Ular individual tajribaning oshishiga xizmat qiladi. Bu asosida yuzaga keladigan “insonlarning ijtimoiy-madaniy, ma‘naviy-axloqiy holatidagi va xulqidagi xilma-xilliklar jamiyat takomillashishining ijtimoiy rivojlanish amalga oshishining shartlari hisoblanadi”⁶⁶.

Deviantlikni me‘yorlarga tayanmagan holda aniqlab bo‘lmaydi. Me‘yor tibbiyotda - bu butunlay sog‘lom odam, pedagogikada - barcha fanlardan yaxshi o‘qiydigan o‘quvchi, ijtimoiy hayotda jinoyatlarning bo‘lmasligi. Barchasidan qiyini ham bu ko‘pchilik insonlarga xos bo‘lgan ba‘zi xususiyatlar jamlanmasi va xulq-atvor andozasi sifatida me‘yorni aniqlashdir.

⁶⁶ Spynjar N.F. Pravovaya pedagogika. - M.: MGUKI, 2010. -13s.

Shunday qilib “funktional (individual) me’yor individning yagona ekanligini hisobga oladi, lekin ko‘pchilik insonlarga, hodisalarga xos bo‘lgan ba’zi xususiyatlarni aks ettirmaydi”⁶⁷.

Ijtimoiy me’yor - bu majburiy real xulq-atvor emas, normativ xulq-atvor esa - bu shunchaki tez-tez uchrab turadigan namuna emas. Bu tushuncha asosan “to‘g‘ri” va “xos” xulq-atvorning ijtimoiy ekspektatsiyalariga (kutilgan natijalariga) ta’aluqli bo‘lgani uchun, me’yorlar qandaydir qonunchilikning borligini nazarda tutadi, o‘zida rozilik va ko‘rsatma belgisini, ya’ni biror narsani bajarish, yoki aksincha biror bir harakatga qo‘yilgan taqiqni mujassamlashtiradi.

Shunday bo‘lsa ham me’yorni va devitsiyani chegaralash zarur, bunda “me’yor” quyidagilarni kasb etadi:

- 1.O‘rtacha, barqaror, ommadan ajralib turmaydigan biror narsa;
- 2.Atrof-muhitga ko‘proq moslashgan biror narsa.

Ijtimoiy me’yor tarixan vujudga kelgan jamiyatdagi chegarani, o‘lchovni, joiz bo‘lgan (mumkin bo‘lgan yoki majburiy) xulq-atvorni, insonlarning, ijtimoiy guruhlarining faoliyatini ta’riflaydi. Jismoniy va biologik jarayonlarning tabiiy me’yorlaridan farqli ravishda ijtimoiy me’yorlar jamiyat ishlashining muqobil qonuniyatlarida insonlar ongi va xatti-harakatlaridagi mos yoki noto‘g‘ri aksi natijasi sifatida vujudga keladi.

“Delinkvent xulq-atvor” tushunchasi huquqiy va ijtimoiy me’yorlar buzilishining ancha keng spektrini qamrab oladi. Delikvent xulq-atvor - bu jinoiy kodeksdagi huquqbuzarliklar nuqtai nazaridan jazo tayinlanmaydigan kichik bezorilik, do‘kondan kam miqdorda mahsulot

⁶⁷ Garafullina M.M. sennostnie orientatsii studentov v uchebnoy deyatelnosti kak ob’ekt pedagogicheskogo vozdeystviya// Yedinstvo obucheniya i vospitaniya studentov. - Kazan, 1999. - S.226-228.

o'g'irlash, transport vositalarida yoki bozorlardagi mayda o'g'rilik, og'ir tan jarohati yetkazmasdan mushtlashish, aldov va hokazolar. Yoshlar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarlikning sud yoki ma'muriy kuzatuviga tegishli ancha yuqori darajasiga ishora qiladi.

Masalan, bezori yoshlar guruhi o'zining biror a'zosi navbatdagi hiylada qatnashishdan bosh tortsa, buni deviatsiya deb baholaydi. Bu hiylalar militsiya, ko'p fuqarolar tomonidan deviant xulq-atvor deb baholanadi.

Umuman delikvent xulq-atvor qonun bilan ta'qib qilinadigan xatti-harakatlarga qaraganda kengroq spektrni qamrab oladi. Shunday qilib, xulq-atvor huquqqa qarshi bo'lmasa ham, xulq-atvorning ko'pgina turli shakllari jamiyatning muhokamasiga yoki rad etishiga duch kelishi mumkin, masalan, senzura (odob qoidalariga) to'g'ri kelmaydigan, ya'ni haqoratli so'zlar, "axmoqona ulfatchilik" ka qo'shilish, belgilangan vaqtda kelmaslik odati, tinimsiz ichkilikbozlik. Deviantlik bo'yicha tadqiqotlar narkotik moddalar iste'mol qilishdan to futbol bezoriligigacha, hatto jodugarlik va afsungacha bo'lgan xulq-atvorning ko'pgina turlarini o'z ichiga olgan va bularga delikvent va deviant degan tamg'a qo'yilgan.

Deviatsiya ijtimoiylashuvida ananaviy jinoyatchilikka qaraganda o'rganish ob'ekti sifatida xulq-atvorning ancha keng, bir xil bo'lmagan toifasini oladi.

Bu borada ingliz olimlarining fikricha, yoshlik yoshdagi jamiyat a'zolari odatiy huquqbuzarliklar, ya'ni o'g'rilik, buzg'unchilik, begonalarining uyiga bostirib kirish kabilarni sodir etganda, yoshlik yoshidan yuqori yoshdagi guruhlar zo'ravonlik bilan bog'liq bo'lgan jinoyatlarni allaqachon sodir etib bo'lgan bo'ladi. Shahar bosqinchilik

tudalarining tashkil topishi, jinoiy submadaniyat, chegaralangan imkoniyatlarni o'rganish natijalaridan foydalangan holda yoshlar jinoyatchililigi ijtimoiy nazariyalari jinoyatlarni tushuntirishga harakat qiladi.

Masalan, yoshlar jinoyatchiligini tahlil qilish, xavfli guruh, hisoblanadigan bolalar, huquqbuzar bolalar, inqirozli oilalar bilan ishlashda yangi yondashuvlar zarurligini tushunish Respublika ijtimoiy moslashuv markazi va BMTning Bolalar Fondi doirasida "Oila va bolalarni qo'llab-quvvatlash"⁶⁸ xizmati tashkil etilishiga olib keldi. U yerda qiyin hayotiy vaziyatga tushgan oilalarga yordam berish bo'yicha maqsadli ishlar olib boriladi, muomala ko'nikmasini, oilalarda tarbiyani shakllantirish bo'yicha ishlarning yangi shakllari qo'llaniladi. "Oilalar va bolalarni qo'llab-quvvatlash xizmati ijtimoiy muammolarning keng spektri bilan ishlashiga to'g'ri keladi, kuchli tomonlarini aniqlash, oilada munosabatlarni mustahkamlash uchun xizmat qiladigan oila ichidagi resurslarni topish yuqoridagi muammolarning yechimidir"⁶⁹.

Jinoiy xulq-atvor borasida alohida to'xtalib o'tish lozim. Jinoyatchilikka bo'lgan umumiy maqbul qarashlardan biri bu quyidagi: "jinoyatchi - bu shunchaki yomon odamlar; ularga bo'lgan yagona munosabat - bu ularni jazolashdir"⁷⁰. Avvallari bir bo'lak non o'g'irlaganlari uchun odamlarni osganlar, ba'zilariga esa kuydirib tamg'a bosganlar, quloqlarini kesganlar. Lekin bunday qattiq jazolar ish bermadi: osish va jarohat yetkazishga qaramasdan yuz yilliklar mobaynida jinoyatchilik yuqori darajada bo'lib qolaverdi.

⁶⁸ Inson huquqlari. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro bilim. Faktlar bayoni. -1999 yil, - 2-son.

⁶⁹ Inson huquqlari. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro bilimlar. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. - Nyu-York, 1998 yil.

⁷⁰ Tojixanov U., Saidov A. Davlat va huquq asoslari.-Toshkent.: IIV Akademiyasi, 2002.496-499-betlar.

Shuningdek, islom olamida jamiyatdagi zuravonliklarning katta qismi qotillik hisoblanib. Qurbonlarning ko‘pchiligi - bu ayollar, ular o‘zlarining erlari, aka-ukalari yoki otalari tomonidan “adyulter” (zino, xiyonat) jinoyatini sodir etgan deb o‘ldiriladi, bunday jinoyat an‘anaviy axloq ta’siriga tushadi. Oiladan tashqarida biror erkak bilan arzimagan suhbat ham huquqbuzarlik hisoblanadi. Bunday jamiyatdagi qattiq jazolar avtoritar ijtimoiy strukturaga mos keladi va bu struktura guruhlar o‘rtasidagi ichki umumiy aloqalarga, marosimlar to‘siqlarga ega.

Deviant xulq-atvor 2 guruhga bo‘linadi:

1. Ruhiy sog‘liq me‘yorlariga mos kelmaydigan xulq-atvor, ya’ni insonda aniq yoki yashirin psixopatologiya bo‘ladi, bunda guruhni asteniklar, shizoidlar, epileptoidlar, aksentuativ (alohida urg‘uli) harakterga ega shaxslar tashkil etadi.

2. Inson maishiy hayotining ma’naviy-axloqiy me‘yorlariga to‘g‘ri kelmaydigan xulq-atvor, bu narsa ijtimoiy patologiya (me‘yor holatdan chiqish) turli shakllarida namoyon bo‘ladi - ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik va boshqalar. Bunday xulq-atvor nojuya xatti-harakat yoki jinoyat shaklida namoyon bo‘ladi.

Deviant xulq-atvorning ijtimoiy jihatlariga izoh berar ekanmiz ijtimoiy tadqiqotlarning boshqa sohalariga qaraganda ijtimoiy omillarning tipologiyasi, sabablari, dalillari, deviant xulq-atvorni o‘rganishlarning katta qismining e’tiborini tortgan. Shu bilan birga, fikrlarning, nazariyalarning konsepsiyalarning ko‘pligi hatto oddiy ta’rifda ham noaniqlik, qarama-qarshilik borligidan dalolat beradi. Buni og‘ishadigan xulq-atvor deb hisoblash mumkin. Ijtimoiy kompleks me‘yorlarining buzilishi deviant xulq-atvorning negizini tashkil etadi, bunda tadqiqotchilar kelishuvga kelishi biroz qiyin bo‘ladi.

Agar yosh huquqbuzar jinoyatda ayblanib qamoqqa olinsa, bu uning kelajagiga va kelajakdagi martabasiga qattiq ta'sir qiladi. Bu turli yo'llar bilan sodir bo'ladi. Bunday ta'sirlardan bir insoniy xarakterga ega: o'zini hammaga o'xshash deb hisoblagan kishi endi o'zini qandaydir o'zgacha narsa deb hisoblay boshlaydi. Endi ularga jinoyatchi, yosh huquqbuzar tamg'asi bosiladi: "bu tamg'a tufayli ular jinoyatchi tashkilotlar turiga tushib qoladi. Bu yo'ldagi har bir qadam ularga avvalgidek me'yorli inson emas, balki boshqa bir odamga aylandi degan hisni uyg'otadi. Ular jinoiy o'xshashlikni o'zlashtiradilar"⁷¹.

Barcha insonlar qonunni buzadilar deb taxmin qilinadi. Lekin ularning ba'zilar ko'lga tushadilar, ayblanadilar, ularga tamg'a bosiladi, shuning uchun ular to'liq jinoyatchiga aylanadilar. Agar sudlangan yoki qamalgan jinoyatchi kambag'al, boshqacha bir siymo bo'lsa, demak ular kimlarningdur "ijtimoiy nomaqbul", "ijtimoiy deprivatsiya qilingan" degan fikrga mos keladilar, ular sudlangan, qamalgan degan ehtimollikka mos keladigan qatlamdir. Kollejdagi haykal o'g'iraydigan, universitetning xotin-qizlar bayramida qizlarni zo'rlaydigan yigitlar to'dasi shunchaki hayfsan bilan qutilib ketadilar, chunki bunday turdagi xatti-harakatga "kollejdagi sho'xlik" tamg'asi beriladi. Xuddi shunday narsani sodir etgan oddiy kambag'al yosh yigit esa voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudga yuboriladi va "jiddiy jinoyatchi"⁷² degan mavqeni qozonadi.

Ta'kidlanishicha, jinoyatchini ko'pincha nafaqat huquqni muhofaza qilish organlarining harakatlari, balki qonunning o'zi ham yaratadi. Jinoyatlarning katta qismida aniq qurbon bo'ladi. Lekin ma'lum bir

⁷¹ To'ychieva X.N. Shaxs huquqiy ongini shakllantirishda huquqiy ta'limning o'rni va uning ilmiy-amaliy muammolari. P.f.n.avtoref. –Tashkent: 2009. -22 b.

⁷² Myullerson R.A. Prava cheloveka: idei, normi, realnost. -M.,1992. -123s.

jinoyatlar borki, ularda qurbon bo‘lmaydi, ular ba’zida “xizmat jinoyatlari” deb ham ataladi. Bular giyohvand moddalar iste’mol qilish, qimor o‘yinlari, fohishalik. Odatda bunday jinoyatlar haqida “jabrlanuvchi” huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilmaydi, chunki bunday jinoyatlardan ikkala tomon ham manfaat ko‘radi (yoki manfaat ko‘rishga harakat qiladi): qurbon o‘z xohishi bilan jinoyatchining oldiga keladi. U quyidagi aniq misolni keltiradi:

“giyohvand moddalar oldi-sotdisi jinoyat hisoblanmagan, biror bir shaxs tomonidan giyohvand moddasini sotib olish jinoyat degan qonun qabul qilingandan so‘ng u jinoyatga aylandi”⁷³. Davlat organlari qiyofasidagi jamiyatga tegishli qonunlar qabul qilib, bunday harakatlarni jinoyat darajasiga chiqardi. Qanchalik bugungi kunda giyohvand moddalar sotuvchilari bundan eng ko‘p manfaaddor, chunki giyohvand moddalar qonuniylashtirilsa, sotuvchilarning ulkan foydasi amalga oshmay qoladi.

Jamiyatning “me’yor” qismi qabul qilgan umumiy me’yorlarni buzgan a’zolarining deviant harakatlarni qoralayotganda yakdillik darajasini yuqoridagi yaxlitlik yuzaga keltiradi. Umumiy ayblov marosimlari sababli (har qanday sud majlisi bunday marosimlar harakteriga ega va shunisi bilan ajralib turadi) yaxlitlik hissi kuchayadi. Muqaddas insonlardan tashkil topgan jamiyat ham nimadan jinoyat chiqarishni izlab topishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, muqaddas insonlar ham o‘zlarining muqaddas asosiy qoidalariga ega, bunga bo‘ysunmagan kishilar boshqalar singari jazolash marosimiga yuborilish uchun tanlab ajratib olinadilar, bunday jazolash marosimi esa vaziyatni

⁷³ Tojixonov U. Huquqiy madaniyatning ilmiy-nazariy muammolari: muallif. dis... dr. huquq fanlar nomzodi. - Toshkent 1995.-312-lar.

fojiaga, mojaroga aylantirib yuboradi va qonunlarning ahamiyatini yanada oshiradi.

Hayotning noxush sharoitlari, oiladagi tarbiya, bilim olishdagi muammolar va shu bilan bog‘liq o‘qishdagi omadsizliklar, atrofdagilar bilan o‘zaro munosabatlar ko‘ra olmaslik va shu asosida yuzaga keladigan nizolar, sog‘liqdagi turli psixofizik og‘ishish ruhiyatdagi inqirozga, mavjud bo‘lish mazmunini yo‘qotishga olib keladi.

“Ichkilikbozlik, fohishalik, o‘z joniga qasd qilish, jinsiy kasalliklar natijasida yuzaga keladigan deviant xulq-atvor, huquqbuzarliklar, giyohvandlik”⁷⁴ kabilar deviant xulq-atvor namoyon bo‘lishining asosiy shakllaridir. Ushbu tushunchalar orasida farq bor. Ularning har biriga batafsil to‘xtalish lozim.

Ichkilikbozlik — spirtli ichimlikka patologik (me‘yor bo‘lmagan holda) ruju qo‘yish, bu narsa shaxsning ijtimoiy- ma‘naviy tanazzuliga olib keladi. Aroqxo‘rlik — bu alkogolni me‘yoridan ziyod ichish, u shaxsning sog‘ligiga tahdid solish bilan bir qatorda ijtimoiy moslashuvni ham buzadi. Rossiya sotsiologlari o‘tkazgan kuzatuvda shu narsa aniq bo‘ldiki, yirik ishlab chiqarish korxonalarda 99% erkaklar va 97% ayollar alkogol iste‘mol qilishar ekan. Ko‘p holatlarda ichkilikbozlikning sabablari bu: “ko‘ngilxushlik, yaqin atrofdagilarning ta’siri, ichish an‘analarini davom ettirish, unutilmas kunlarni nishonlash, er-xotin o‘rtasidagi yoki oiladagi janjallar, ishdagi noxushliklardir”⁷⁵. Afsuski bu holatlar Rossiyadagidek yuqori ko‘rsatgichga ega bo‘lmasada bizning respublikamizda ham uchraydi.

⁷⁴ Shoumarov G. B. O‘zbekiston ta’lim tizimida psixologik xizmat muammolari// Yangi turdagi o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari.—Toshkent, 1998.—B. 13-15.;

⁷⁵ Rusinov R.K. Problemi pravovogo vospitaniya. - Sverdlovsk. 1998. - 120s.

Alkogolga bog‘lanib qolish asta-sekin shakllanadi va u ichadigan odam organizmida sodir bo‘ladigan murakkab o‘lchovlar bilan ta’riflanadi. Spirtga ruju qo‘yish inson xulq-atvorida namoyon bo‘ladi: halovatsiz bo‘lib, ichishga tayyorlanish, qo‘llarni ishqalash, hissiy ko‘tarinkilik “Ichkilikbozlik staji (muddati)” qanchalik ko‘p bo‘lsa, ichish shunchalik kam lazzat keltiradi.

Ichkilikbozlikning shakllanishiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi: nasldan naslga o‘tadigan omillar, harakter, shaxsning individual xususiyatlari, atrof-muhit ta’siri.

Ichkilikbozlikni keltirib chiqaradigan omillarga moddiy ahvolning, ta’limning past darajasini ham kiritish mumkin.

Fohishalik (lotinchadan “prostitution” sha’niga isnod keltirmoq, badnom qilmoq). Olimlar fohishalik bo‘yicha quyidagi ahamiyatli belgilarni ajratib ko‘rsatadilar:

1. Mashg‘ulot turi - mijozlarning jinsiy ehtiyojlarini qondirish;
2. Mashg‘ulot xarakteri - turli shaxslar bilan jinsiy aloqa shaklidagi tizimli kasb-kor, u hissiy intilishsiz amalga oshiriladi va mijozning jinsiy ehtirosalarini har qanday shaklda qondirishga yunaltirilgan;
3. Mashg‘ulot sababi - pul yoki moddiy boylik ko‘rinishida oldindan kelishilgan mukofot, bu narsa fohishaning asosiy yoki ko‘shimcha daromad manbai.

Boshqa ko‘plab ijtimoiy og‘ishishlar kabi fohishalikning sababi bu ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy etik omillar. Biroq o‘ziga xos sabablar ham mavjud. Ayollarning ba’zilari kuchli libido (jinsiy intilish)-ga ega va ularning intilishi yuqori bo‘ladi, shuning uchun ular sport kabi jinsiy aloqaga boradilar. Yana bir sabab bu fohishani o‘rab turgan muhit. Bular reketirlar, suteniyorlar, “malina”ni ta’minlovchilar, ular fohishalar bilan

o‘zaro munosabat qilish uchun o‘z me‘yorlarini o‘rnatadilar va fohishalarni o‘z “Qonunlariga”⁷⁶ bo‘ysuntiradilar.

Ko‘pgina ekspertlarning hisoblashicha, achinarlisi shundaki, fohishalik muqarrar, uning ko‘payishiga bo‘lgan ehtiyoj bu fiziologik ehtiyoj. Fohishalik - bu jinoyatchilik, ichkilikbozlik va deviantlikning boshqa turlari singari ijtimoiy muammo.

Fohishalik xavflimi? Albatta, birinchidan, fohishalik - bu ijtimoiy haromtomoqlikning turi. Fohishalik tanosil kasalliklarining va OITSning tarqalishiga sabab bo‘ladi. Bunday ayollar o‘z sog‘ligini va dunyoga sog‘lom avlod keltirish imkoniyatini yo‘qotadilar. Ayolning ma‘naviyati tushib ketadi, u uyatni, vijdonini, e‘tiqodini, jirkanish hissini yo‘qotadi. Fohishalikni tugatadigan omillar bu “aholining hayot darajasini oshirish, jinsiy tarbiya dasturini amalga oshirish, ijtimoiy tengsizlikni bartaraf qilish, fohishalik orqasidan tekinxo‘rlik qilayotgan sutenyorlarni jinoiy javobgarlikka tortish”⁷⁷ kabilar bo‘lishi mumkin.

O‘z joniga qasd qilish - bu ongli ravishda o‘z jonidan mahrum qilish yoki o‘z joniga qasd qilishga urinish. O‘z joniga qasd qilish xulq-atvori - bu halokatli xulq-atvor, bunga yana alkogol iste‘mol qilishni, giyohvand moddalar qabul qilish, davolanishga qattiq qarshilik ko‘rsatish, mast holatda transportni boshqarish, o‘z-o‘zini qiynash, mushtlashish va janjallarga ongli ravishda ishtirok etishni misol keltirish mumkin.

O‘z joniga qasd qilish xulq-atvori o‘smirlarda hayotiy tajribaning yetishmasligi, hayotiy orientirni aniqlay olmaslik bilan ta’riflanadi.

⁷⁶ Baranovskiy N.A. Sotsialnie i lichnostnie determinanti otklonyayushegosya povedeniya: avtoref. dis. d-ra sosol. Nauk.-Minsk,1993.-S. 30.

⁷⁷ Ivkin S. A. Podgotovka studentov pedagogicheskogo vuza k pravovomu vospitaniyu shkolnikov (Tekst): dis.... kand. ped. nauk. - M., 2003. - 167s.

Bulardan tashqari boshqa sabablar ham mavjud, quyidagilar keng tarqalgan sabablar:

- yaqin atrofdagilari orasida sevimli insondan ajralish yoki rad etilgan sevgi;

- o‘z qadr-qimmatining tahqirlanishi;

- qattiq toliqish;

- alkogol yoki psixotrop moddalar iste‘mol qilish natijasida shaxsni himoya qiluvchi mexanizmlarning buzilishi;

- toksikomaniya va giyohvandlik;

- o‘z joniga qasd qilgan insonni obruli hisoblab, unga o‘zini o‘xshatish;

- frustratsiya (psixik holat) yoki affekt (qattik hayajon) holatidagi kuchli agressiya (tajovuz), qo‘rquv, bunda inson o‘zini nazorat qilolmaydi.

O‘z joniga qasd qilish holatining sabablarini aniqlash uchun uning dalil va bahonalari muhim rol o‘ynaydi shu holatga olib kelgan aniq holatni baholashga imkon beradi. Ma’lumotlarning yetishmasligidan har doim ham dalil va bahonalarni aniqlab bo‘lmaydi.

Oiladagi, ishdagi, o‘qishdagi muhit, ijtimoiy muhitdagi holat, ijtimoiy adolatga amal qilish, moddiy jihatdan ta‘minlanganlik va boshqa muqobil shartlar orqali ijtimoiy muhit ta’riflanadi, bular inson xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi va inson ularni o‘zgartirishga qurbi yetmaydi.

Giyohvandlik – “giyohvand moddalarga jismoniy va psixologik jihatdan bog‘lanib qolish kasalligi, ularga berilish asta-sekin organizmning jismonan va ruhan ozib-to‘zib ketishiga olib keladi”⁷⁸.

Giyohvandlik ijtimoiy oqibatlariga olib keladi. Jinoiy elementlar uchun bu pul topishning oson yuli. Giyohvand moddalarni haddan ziyod iste’mol qilish o‘limning ko‘payishiga olib keladi, ayniqsa yoshlar orasida, shuningdek “bir dasta” jismoniy va ruhiy kasalliklarni chaqiradi.

Giyohvandlik sababli jinoyatlar sodir etiladi, chunki “lomka (sinish)” paytida nashavand har qanday jinoyat sodir etishga qodir. “Giyohvand moddalarini o‘zlashtirish shaxsga qarshi bir qator jinoyatlarni sodir etish uchun asos bo‘ladi: o‘g‘rilik, bezorilik. Giyohvandlik naslga ham ta’sir ko‘rsatadi. Bolalar jiddiy jismoniy va ruhiy kasalliklar bilan dunyoga keladi, bu esa oilaning buzilishiga olib keladi. Nashavand zavol topadi, chunki giyohvand moddalarga qul kabi bog‘lanib qolish axloqsiz harakatlarni sodir etishga majbur qiladi”⁷⁹.

Hayotning turli sharoitlaridan qoniqmaslik giyohvandlikning psixologik sub’ektiv sabablaridan biri: shaxsiy qiyinchiliklar, ijtimoiy-madaniy sohalaridagi kamchiliklar, to‘g‘ri taqsimlanmagan bo‘sh vaqt, ijtimoiy adolatsizlik, turmushdagi tartibsizlik, o‘qish yoki ishda omadsizlikka uchrash, insonlardan ko‘ngli sovishi.

Giyohvandlikni kelib chiqish sabablarini o‘rganishda nashavandning shaxsiyati muhim o‘rin egallaydi. Demografik (aholishunoslikka oid), yoshga oid va ijtimoiy-tibbiy jihatlar nazarda tutiladi. Nashavandlar orasida erkaklar ko‘pchilikni tashkil etadilar.

⁷⁸ Brenchev Z.A. Pravovoe vospitanie molodeji v sovremennix usloviyax: avtoref. dis... kand. yurid. nauk. - M. 1987. - 21s.

⁷⁹ Kurilenko Ye.N. Konfliktologiya kak sostavlyayushaya grajdanskogo vospitaniya molodyoji.- M. 2001.

Yana bir muhim holat - bu giyohvand moddalarning asosiy iste'molchilari bu 12-25 yoshdagi yosh insonlar.

Giyohvandlik - yoshlar kasalligi. U eng mehnatga layoqatli insonlarni ijtimoiy hayotning me'yor oqimidan chiqaradi. Aynan shuning uchun u mamlakat kelajagiga tahdid soladi. Butun dunyo bo'ylab nashavandlar orasida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi va o'sish tezligi ham shular orasida yuqori. Giyohvand moddalarga berilish bugungi kunda o'rtacha 13 yoshni tashkil etadi.

Giyohvandlikni oziqlantiradigan manbaa bu mikro muhit. Oila, ko'chadagi muhit katta rol o'ynaydi. "Ko'chada, maktabda, ishda bir dona nashavand bo'lsa ham u atrofdagilarga halokatli tarzda ta'sir etadi. Avvaliga giyohvand modda ziyofatdagi noz-ne'mat kabi tekinga beriladi, keyinchalik esa qarzga, ya'ni pul talab qilinadi"⁸⁰.

Ijtimoiy og'ishishning u yoki bu shakllari har bir jamiyatga xos. Bugungi kunda katta ijtimoiy muammolardan biri - bu "giyohvand moddalarni ishlab chiqarish, sotish va tarqatish, bunday narsa har qanday davlat xavfsizligiga tahdid soladi"⁸¹.

Giyohvandlik katta ijtimoiy oqibatlariga ega, ya'ni huquqbuzarliklarning sonini oshiradi, insonlarning, ayniqsa yoshlarning jismoniy, ma'naviy salomatligiga ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy jamiyatda aynan voyaga yetmaganlar, ya'ni bolalar va o'smirlar yuqorida sanab o'tilgan salbiy ijtimoiy hodisalarga ko'proq duchor bo'ladilar.

Shunday qilib, ijtimoiy nazoratni amalga oshirishdagi eng muhim amaliy vosita bu ijtimoiy sanksiya va ijtimoiy rolni talab qilish. Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy sanksiyalar tizimi jamiyat a'zolari

⁸⁰ Nikitin A.F. Chto takoe pravovaya kultura. - M.:Prosveteniya. 1998.-109 s.

⁸¹ Odilqoriev X.T. Davlat va huquq nazariyas. Darslik.- Toshkent. «Adolat» 2018.-528b.

tomonidan ko'rsatmalarning bajarilishini ta'minlashga yo'naltirilgan, bu ko'rsatmalar o'sha jamiyat a'zolarining roli biln bog'liq. Jamiyat hayotining biror sohasini nazorat qiladigan tamoyillardan, qoidalardan, me'yorlardan tashqari har qanday institut (shu institutning o'zi tomonidan qamrab olingan) qoidalarini bajarmagan yoki buzgan individlarga qo'yiladigan sanksiyalarni o'z ichiga oladi. Ba'zi sotsiologlarning fikricha, sanksiyalarni umumiyashtirish orqali ijtimoiy omillar mukofot omilini oldindan bilish yoki jazo olish xulq-atvorini nazorat qiladi va shu tufayli jamiyat mavjud.

Eng avvalo, ijobiy sanksiyalar ajratiladi - jamiyat yoki biror bir guruh uchun xush keladigan, ular tomonidan ma'qullangan harakatlarga beriladigan mukofot, salbiy sanksiyalar - ma'qul bo'lmagan, institutsional hisoblanmagan, turli deviant harakatlar uchun jazo yoki tanbeh. Bundan tashqari, sanksiyalarni rasmiy - yozma manbalarda keltirilgan, rasmiy shaxslar yoki organlar tomonidan qo'yilgan sanksiyalar va norasmiy shaxslar, odatda yaqin atrofdagilar tomonidan aytilgan (yoki og'zaki bo'lmagan shaklda) tanbeh yoki tahsin kabi sanksiyalarga bo'lish mumkin.

Jamiyat va uning turli tarkibiy qismlari a'zolarining konformizmini (bo'ysunuvchanlik) mustahkamlash, xulq-atvorning "ijtimoiy ma'qul" shakllarini kengaytirmoq, deviant xulq-atvorga to'sqinlik qilmoq, deviantni ijtimoiy me'yorlarni, bajarishga yo'naltirmoq kabilar ijtimoiy nazoratning mohiyati.

Ijtimoiy barqarorlik va ikkinchi tomondan shaxsiy erkinlik o'rtasida mutanosiblikka erishish usullarini topishga va o'rganib chiqishga harakat qilishdan oldin avvalo, ijtimoiy qadriyatlarni birlashtirishga asoslangan ichki axloqiy va ijtimoiy, nazorat muhim deb hisoblaymiz. U

ijtimoiy nazoratni alohida bir vosita insoniyat tabiati bilan ijtimoiy kuchlar o'rtasidagi o'zaro munosabatni ta'minlaydi desak maqsadga muvofiqdir.

Olimlar ijtimoiy nazoratning 3 ta shaklini ajratib ko'rsatganlar:

- Elementar, asosan majburiy, ya'ni sanksiyalar;
- Ijtimoiy fikr;
- Ijtimoiy institutlarning faoliyati.

Tolkat Parsons o'zining "Ijtimoiy tizim" kitobida "sanksiya berish xulq-atvor orqali me'yordan og'ish yo'qoladi va ijtimoiy barqarorlik o'rnatiladi, mana shular, ijtimoiy nazorat jarayoni"⁸² deya ta'riflagan. U ijtimoiy nazorat amalga oshirilishining 3 asosiy usulini tahlil qilgan.

1. Izolyatsiya, ya'ni yakkalab qo'yish, buning mazmuni shundan iboratki, deviant xulq egasi va jamiyatning boshqa a'zolari o'rtasida o'tib bo'lmas chegara qo'yiladi, deviantni qayta tarbiyalashga yoki axloqini to'g'rilashga hech qanday harakat qilinmaydi.

2. Ajratib qo'yish – deviant xulqli insonning boshqa odamlar bilan bog'lanishini cheklash, lekin jamiyatdan to'liq yakkalab ajratib qo'yilmaydi; bunday yondashuv deviantning to'g'rilanishiga sabab bo'ladi va deviant umum qabul qilingan me'yorlarni bajarishga tayyor bo'lganida u jamiyatga qaytadi;

3. Reabilitatsiya, deviant me'yor hayotga qaytishga va o'zining jamiyatdagi rolini to'g'ri bajarishga tayyorlanish jarayoni.

Ijtimoiy nazoratning tipik tizimiga 8 ta asosiy komponentlar (tarkibiy qismlar) kiradi:

⁸² Kurilenko Ye.N. Konfliktologiya kak sostavlyayushaya grazhdanskogo vospitaniya molodyoji.- M. 2001.

1. Individdning (o'zini o'rab turgan) ijtimoiy muhit bilan faol munosabatida namoyon bo'ladigan individual harakatlar — bu aqliy, ishlab chiqarish, moslashuv xarakterining har qanday harakati;

2. Baholarning ijtimoiy shkalasi, jamiyatda ijtimoiy muhitning yuqoridagi harakatlarga reaksiyasiga bog'liq bo'lgan muqobil borliq;

3. Toifalashtirish, baholarning ijtimoiy shkalasining, biror bir individual harakatni ma'lum baholash toifasiga mansubligining natijasi bo'lib namoyon bo'ladi (umumiy ko'rinishda bu ijtimoiy ma'qullash yoki ijtimoiy tanbeh);

4. Ijtimoiy anglashning xarakteri, har qanday individual harakatni toifalashtirish shunga bog'liq, ijtimoiy baholash, ijtimoiy guruhning vaziyatga bergan bahosi ham shunga bog'liq (ijtimoiy persepsiya);

5. Ijobiy va salbiy sanksiyalar vazifasini bajaradigan ijtimoiy harakatlarning xarakteri va mazmuni, bu xarakter ijtimoiy anglash holati bilan bevosita bog'liq;

6. Baholarning individual shkalasi, bu qadriyatlarning ichki tizimining oliy maqsadning, individdning hayotiy qiziqishlari va intilishining hosilasi;

7. Individdning o'zini o'zi toifalashtirish (biroq bir rolni qabul qilish, o'zini birovga o'xshatish, ya'ni ma'lum toifadagi shaxslarga o'zini tenglashtirish) bu baholarning individual shkalasi natijasi;

8. Individual anglash xarakteri, individdning o'zini-o'zi toifalashtirish, individdning kelgusidagi harakati shunga bog'liq bo'ladi, individdning kelgusidagi harakati ijtimoiy baholash harakatiga bo'lgan reaksiya.

Shunday qilib, ijtimoiy nazoratni amalga oshirishdagi eng muhim asbob va amaliy vosita bu ijtimoiy sanksiya va ijtimoiy rolni talab qilish.

Jamiyatdagi mavjud ijtimoiy sanksiyalar tizimi talaba va jamiyat a'zolari tomonidan ko'rsatmalarning bajarilishini ta'minlashga yo'naltirilgan, bu ko'rsatmalar o'sha jamiyat a'zolarining roli bilan bog'liq. Jamiyat hayotining biror sohasini nazorat qiladigan tamoyillardan, qoidalardan, me'yorlardan tashqari har qanday qoidalarni bajarmagan yoki buzgan talabalarga qo'yiladigan sanksiyalarni o'z ichiga oladi. Ba'zi ijtimoiy fikrlarcha, "sanksiyalarni umumiyashtirish orqali ijtimoiy omillar mukofot omilini oldindan bilish yoki jazo olish xulq-atvorini nazorat qiladi va shu tufayli jamiyat mavjud"⁸³.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish ko'p jihatidan jamiyatdagi bugungi sistemani qanday tashkil qilish belgilariga va sanksiyalar tipologiyasi bilan bog'liq. Eng avvalo, ijobiy sanksiyalar ajratiladi - jamiyat yoki biror bir guruh uchun xush keladigan, ular tomonidan ma'qullangan harakatlarga beriladigan mukofot, salbiy sanksiyalar - ma'qul bo'lmagan, ma'naviy-huquqiy tarbiya buzilgan deb hisoblangan, turli deviant harakatlar uchun jazo yoki tanbeh belgilangan. Bundan tashqari, sanksiyalarni rasmiy - yozma manbalarda keltirilgan, rasmiy shaxslar yoki organlar tomonidan qo'yilgan sanksiyalar va norasmiy shaxslar, odatda yaqin atrofdagilar tomonidan aytilgan (yoki og'zaki bo'lmagan shaklda) tanbeh yoki tahsin kabi sanksiyalarga bo'lish mumkin.

Jamiyatda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish va uning turli tarkibiy qismlari a'zolarining buysunuvchanlik xususiyatlarini mustahkamlash, xulq-atvorning "ijtimoiy ma'qul" shakllarini kengaytirmoq, xulq-atvorda me'yordan

⁸³ To'ychieva X.N. Huquqiy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishning ba'zi masalalari. TDPU. Ilmiy ishlar to'plami. -Tashkent: 1998. 61-67 b.

og'ishga to'sqinlik qilmoq, deviantni ijtimoiy me'yorlarni, bajarishga yo'naltirmoq kabilar ijtimoiy nazoratning mohiyatini oshiradi.

Talabalarning hayotga moslashishlari va ma'naviy-huquqiy bilimlarini oshirishi maqsadli komponentda keltirilib mavjud holatni o'rganish keltirilgan. Vazifali komponentda texnologiyani aniqlash, motivlarni ishlab chiqish, tarbiyaviy tadbirlar ishlab chiqish vazifalar komponentdida keltirilgan. Natijaviy baholash komponentida mezonlari: motivatsion, emotsional-kognitiv, ma'naviy-huquqiy xulq-atvor, huquqiy ongni baholash darajalari yuqori, o'rta, quyi deb olindi. Yakuniy natijalar komponentida talabalarning ijtimoiyilashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiyani takomilashtirishga doir bilimlarni va ijobiy sifatlarni rivojlantirish orqali yetarlicha baholandi.

5. TALABALARGA MA'NAVY-HUQUQIY TARBIYA BERISHNING AMALIY SHAKLLARI, USLUBLARI VA VOSITALARI

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda turli amaliy tadbirlarning shakl va usullardan foydalanish, uni ta'sirchanligini oshirib fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish jarayonini mustahkamlash uchun oliygohlarlarda o'tkaziladigan tadbirlar uzluksiz yoshlar qumitasi va oila va mahalla hamkorligidan foydalanish orqali tashkil etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov "Tarbiya ong mahsuli, ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, ongni o'zgartirib bo'lmaydi"⁸⁴, -deb ta'kidlagan edi. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ular ongini, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad ozod va obod jamiyatni barpo eta olmaymiz.

Shunday ekan, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni bugungi kun talabi asosida olib borishda turli zamonaviy usul va shakllardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Dars jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda faqat pedagogik-amaliy uslublar orqali tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish darsning ajralmas qismi hisoblanadi. "Pedagogsiz va talabasiz hamda o'quv dastur va rejasiz dars o'tib bo'lmagani kabi, pedagogik

⁸⁴ Karimov I.A. "Istiqlol va ma'naviyat".-T.: O'zbekiston,1994 yil, 9-bet.

usullar va uslublarsiz fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya darsni amalga oshirib bo'lmaydi"⁸⁵.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish jamiyat, atrof-muhitidagi do'stlar va ustozlar bilan, talabaning tartibga solingan o'zaro aloqadagi faoliyatidir. Ijtimoiylashuv jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish usuli deb, ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llaniladigan chora-tadbirlar tushunilsa, uslub deganda shu ta'lim-tarbiya usullarining qo'llanish tartibi tushuniladi. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayoni uzatish, qabul qilish, anglash, o'quv axborotni esda saqlashni hamda olingan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutadi. Ta'lim jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish bevosita o'quv axborotini va uni mantiqiy o'zlashtirishni anglashni tashkil qilishni ko'zda tutadi.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish bilan birga ma'naviy-huquqiy bilimni uzatish va uni ko'nikmaga aylantirish usullaridan tashqari, o'quv faoliyatini rag'batlantirish hamda ta'limga burch va mas'uliyatni asoslash usullari ham mavjud. Shu bilan bir qatorda, ma'naviy-huquqiy ta'lim jarayonini nazorat qilish va ma'naviy-huquqiy ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish usullari ham mavjud bo'lib, ularsiz ham ta'lim-tarbiyani amalga oshirib bo'lmaydi.

Talabalarni ma'naviy-huquqiy tarbiyalash jarayonida ma'naviy-intellektual rivojlanish sifatlarini aniqlashning aniq, maqsad va vazifalari ishlab chiqish ham o'ta muhimdir. Unda talabalarning ma'naviy-intellektual shakllanish sifatlaridagi yutuq, va kamchiliklarini

⁸⁵ Karimova O.A. Huquqiy tarbiya metodikasi.Toshkent.TDPU,2000,63-b.

rag'batlantirish, tuzatish, tarbiya mazmunini, usul, uslub va tashkiliy shakllarini yaxshilashga mos tuzatishlar kiritilishi ko'zda tutiladi.

Talabalarda ma'naviy-huquqiy tarbiya bilimini, aqliy kamolotlarini nazorat qilish va baholash davlat miqyosidagi muhim masala hisoblanib, nazorat va baholash jarayoni talaba bilimini boyitishga, ular shaxsini rivojlantirishga va tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Zero, ma'naviy-huquqiy bilimlarni nazorat qilishda qo'yiladigan ball va baholar o'quvchida qanday taassurot qoldirganini, o'rtoqlarining o'qishidagi yutuq va kamchiliklariga qanday munosabatda bo'lishlarini doim kuzatib borish va ular faoliyatini ijobiy baholash uchun kerak bo'ladi.

Umuman olganda talabalarining ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish usullarini ikki qismga bo'lish mumkin, ya'ni:

1. Talabalarining ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish orqali.
2. Talabalarining ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya bilim berish orqali.

Fikrimizcha, bu ikki jarayon bir-biridan farq qilib, asosan yagona bir maqsadga qaratiladi.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish usullariga ijobiy ma'naviy-huquqiy xulq atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti, jamiyatdagi o'rni, ijtimoiy-muhit bilan o'zaro bog'liqligi, jamiyat me'yorlari va qonun talablariga binoan o'z faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil etish jarayoni kiradi.

Umuman olganda, talabalarining ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalari ona Vatanga, atrof-muhitdagi insoniy munosabatlarga nisbatan axloq-odob fazilatlarini

tarkib toptirish maqsadida ularning ma'naviy-huquqiy ongi, huquqiy ma'naviyati va madaniyatiga ya'ni irodasiga ta'sir etish yo'llariga aytiladi. Har qanday jarayonda, talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish usullari ma'naviy-huquqiy tarbiyaning maqsadi va mazmunidan kelib chiqib, jamiyatda fuqaroga mos ma'naviy-huquqiy ongni muhofaza qilish, inson odob-axloq dorisidagi tarixiy boyliklaridan oqilona foydalanish va ularni kelajak avlod uchun saqlash maqsadida komil inson shaxsini tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi va ularning ijtimoiy faoliyatidagi ishtirokini ham o'zida namoyon etadi.

Zero, o'qituvchi qo'llayotgan ma'naviy-huquqiy tarbiya berish usul va vositalar ta'sirida talabalarning ma'naviy-huquqiy ongida va xulqida o'z shaxsini o'zgartirish istagi vujudga kelishi mumkin. Ya'ni talabalarning yoshi ulg'aygan sari ularning ma'naviy-huquqiy tarbiya jarayonidagi faolligi va mustaqilligi oshadi, ular o'qituvchi yoki tarbiyachilar rahbarligida va o'z tashabbuslari, intilish va istaklari bilan yangi-yangi ma'naviy-huquqiy fazilatlarga ega bo'lib, ma'naviyat va huquq bilan o'zlari o'rtasidagi jarayonni mukammallashtiradilar.

Bundan ko'rinib turibdiki, "talabalar o'zini-o'zi ma'naviy-huquqiy talablar asosida tarbiyalamasa, ma'naviy-huquqiy bilimlari natijasida erishgan aql farosatlarini ishga solmasa, ma'naviy-huquqiy tarbiyadan ko'zlangan natijaga erishib bo'lmaydi"⁸⁶.

Fikrimizcha, ma'naviy-huquqiy tarbiyaviy usullarni tegishli vazifalariga qarab quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin bular: ma'naviy-huquqiy bilimlarni o'rgatish, ishontirish, ibrat-namuna, tushuntirish va uqtirishdir.

⁸⁶ To'ychieva X.N. Huquqiy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishning ba'zi masalalari. TDPU. Ilmiy ishlar to'plami. – Tashkent: 1998. 61-67 b.

O'rgatish usulidan foydalanganda, talabalarning jamiyat bilan o'zaro munosabatini, ilk marotabadagi ma'naviy-huquqiy odob-axloq fazilatlarini tarkib toptirish maqsadida ularni ma'naviy-huquqiy munosabat bilan o'zaro bog'liqlik, ma'naviy qonunlar va boshqa me'yortiv hujjatlar talabiga rioya qilish jamiyat me'yorlari va milliy qadriyat boyliklaridan oqilona foydalanish va ma'naviy-huquqiy tarbiya odobiga o'rgatib borishni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, "talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni o'rgatish uchun talabalarning yoshi va ma'naviy-huquqiy tarbiya sharoitlariga qarab o'zgarib turishi mumkin"⁸⁷. Demak, tarbiyachi ma'lum bir ma'naviy-huquqiy topshiriqlarni (jamiyat me'yorlardan oqilona foydalanish va ularni ma'naviy-huquqiy og'ishdan muhofaza qilish, jamiyat me'yorlariga zid harakatlardan saqlanish, ma'naviy-huquqiy qonunlardan oqilona foydalanish) berishi mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, talaba-yoshlar bu topshiriqlarni bajarish davomida zarur ma'naviy-huquqiy axloq-odob qoidalarini egallab olishi mumkin. O'rgatish usuli har qanday sharoitda ham, talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiyani chambarchas, o'zaro bog'liq holda olib borilishini taqozo etadi va bir-birini to'ldirib boradi.

Ishontirish usuli, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ularning ma'naviy-huquqiy ongli dunyoqarashini shakllantirish orqali ishonch e'tiqodini aniq maqsadga yo'naltirish uchun ularning ma'naviy-huquqiy tarbiyasiga, his tuyg'ulari va irodasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish usullari kiradi. "Talaba-yoshlar hayotida ishontirishning ma'naviy-huquqiy tarbiyaviy jihatdan muhim va qimmatli bo'lganini tushuntirib berish va ishontirish,

⁸⁷ Karimova O.A. Yoshlar huquqiy tarbiyasining asosiy yo'nalishlari. -T.: O'zbekiston, 1999. 22-b.

jamiyatdagi me'yordan og'ish haqidagi hikoya va suhbat, ma'naviy-huquqiy o'qish, na'muna ko'rsatib ishontirish singari shakl va usullaridan keng foydalaniladi"⁸⁸.

Zero, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda o'qituvchi tomonida ko'rsatilgan ma'naviy-huquqiy qonunlarga o'zaro hurmat bilan qarash va ularni talablarini bajarish, jamiyat boyliklariga nisbatan oqilona munosabatda bo'lish, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda tegishli ma'naviy-huquqiy qoidalarga rioya qilish va unga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ma'naviy-huquqiy muammolarni hal etishda o'zbekona urf-odatlardan ko'proq foydalanishni tushuntirilishi ham yaxshi natija beradi.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ibrat-namuna usulidan kengroq foydalanish katta ahamiyatga egadir.

Ibrat va namuna talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish usuli talaba-yoshlar hayotida taqlidchilikka asoslanadi va boshqalarning ma'naviy-huquqiy xulq-atvorini, jamiyat va uni boyliklaridan foydalanish hamda qadriyatlarga amal qilgan holda talabalarda ma'naviy-huquqiy ongini shakllantirishdan iborat bo'ladi.

Hayotimizda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda muammolarni oldini olish va jamiyatni huquqiy muhofaza qilish masalasida o'zlarining yaqinlari, tevarakatdagi kishilarning ma'naviy-huquqiy xatti-harakati va xulq-atvorlarini kuzatib boradilar, ya'ni ularga taqlid qiladilar, ammo ular o'zlari uchun ma'qul bo'lganlariga taqlid etadilar va qabul qiladilar. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya

⁸⁸ Akaeva N.M. va boshqalar. Huquqni o'qitish metodikasi. Metodik qo'llanma. – T.: Fan. 2010.

berish jarayoni shunday shakllanadiki, talabaga oliygohga borishi bilan u taqlid etadigan va ergashadigan yoshlar doirasi kengayib boradi. Ularning ijtimoiylashuvi qanchalik ko‘proq chuqurlashib borgan sari, jamiyat me‘yorlariga amal qilish va uni muhofaza qilish masalalarga nisbatan o‘z huquqiy muomala va munosabati, ma‘naviy-huquqiy dunyoqarashi, fikri, ilmiy-nazariga tayanib ish olib boradi.

Umuman olganda, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma‘naviy-huquqiy tarbiya jamiyat to‘g‘risidagi g‘oyalar, ma‘naviy-huquqiy qonunlarni mustahkamlashdagi ijobiy hollarni mustahkamlashdan oqilona foydalanish va ezgu ishlarda taqlid qilish uchun yaxshi namuna bo‘ladi.

Tushuntirish va uqtirish usulida asosan talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma‘naviy-huquqiy tarbiya berishda jamiyatning ma‘naviy va moddiy hayotidagi eng muhim me‘yor va qonunlariga mos ma‘naviy-huquqiy voqea va hodisalar to‘g‘risida axborot berish asosida talaba-yoshlar diqqat-e‘tiborini ma‘naviy-huquqiy voqeylikka, jamiyatni muhofaza qilish sohasidagi o‘z konstitutsion burchiga ongli munosabatni shakllantirishga qaratishdan iborat bo‘ladi.

Bunda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma‘naviy-huquqiy tarbiya berishda jamiyatni muhofaza qilish sohasida ko‘rsatilgan namunali ma‘naviy-huquqiy qoidalarga taqlid qiladilar, biroq me‘yor, qoida va talablar aniq misol va faktlar asosida tushuntirilsa, ularni talabalar ravshan anglab oladilar, bu qoida esa ularning kundalik hayot tarziga aylanadi.

Uqtirish orqali talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma‘naviy-huquqiy tarbiya berishda talabalar ongida hamisha yangi bilimlar saqlanib qoladi. Uqtirish orqali olingan yangi ma‘naviy-huquqiy

fazilatni o'quvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan o'qib olinishini ta'minlashga asoslanishi mumkin. Ma'naviy-huquqiy tarbiyani olib borish jarayonida uqtirishning ma'lum bir ijobiy natijaga erishishi talabanning ma'naviy-huquqiy madaniyati, saviyasi, bilimi va obro'siga ham bog'liqdir.

Shuning uchun ham, talabalarni ma'naviy-huquqiy tarbiyalash jarayonida barcha huquqiy fazilat va afzalliklarni tushuntirishda jamiyatni ma'naviy-huquqiy muhofaza qilish va ma'naviy-huquqiy ishonarli aniq dalillar keltirish, isbotlash va ishontirish lozim. Har qanday sharoitda, "ma'naviy-huquqiy tarbiyani olib borishda uqtirishni ta'minlash uchun talabalarni o'zlaridagi qobiliyatlariga ishongan holda, kelajak avlod uchun jamiyat me'yorlarini saqlashga undash, ma'naviy-huquqiy muammolarni oldini olishga yo'naltirishi lozim"⁸⁹, bu esa talabalarga ma'naviy-huquqiy fazilatlarni puxta o'qib olinishini ta'minlaydi.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish uchun o'z oldiga qo'yilgan ma'naviy - huquqiy talablarni mohiyatini va o'rnatilgan talab darajasida huquqiy me'yor yoki qonun talablariga rioya etishlari lozim bo'lib turganda, ular itoatsizlik ko'rsatsa va belgilangan ma'naviy-huquqiy talablar va ularni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun talablarini buzsa, ularni bu tartib qoidalarini bajarishga majbur qilish ham lozim bo'ladi.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishga oid talablarni buzuvchilarga nisbatan beparvolik bilan qarash esa jamiyatga, uning me'yorlariga ziyon keltiradi, vaholanki bu holat

⁸⁹ Amosova O.V. Texnologiya podgotovki studentov k vospitatelnoy rabote v sovremennix usloviyax. - Irkutsk: IGLU, 2000. - 220s.

hattoki talaba-yoshlarning ma'naviy-huquqiy faoliyatiga ham katta salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agarda, talaba ma'naviy-huquqiy tarbiya berish jarayonida ular tomonidan ijtimoiy qonun talablari holatlarini buzilishini ko'rib, unga e'tiborsizlik qilib ketaversa, talabalar tomonidan ma'naviy-huquqiy qonun talablari, uni muhofaza qilish, jamiyat me'yorlaridan oqilona foydalanish qoidalarini buzilishi davom etaveradi.

Demak, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda, ularga nisbatan o'ta talabchan bo'lish, ma'naviy-huquqiy me'yorlarni muhofaza qilish va fuqarolarga xos huquqiy muammolarni hal qilishda ularga g'amxo'rlik qilish, yo'l ko'rsatish katta ahamiyatga ega bo'lib, barcha usullarni birga olib borishni taqozo etadi. Biz quyida talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ta'lim muassasalarida ma'naviy -huquqiy tarbiya berishning ayrim shakl va usullarini taklif qilamiz.

Bulardan tashqari talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda quyidagilardan foydalanish va kuchaytirish jarayonida o'zining ijobiy samarasini berishi mumkin.

Birinchi so'rov "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" kursidan ma'ruzalar o'qilishidan avval hamda, kurs ma'ruzalari tugagandan keyin ikkinchi so'rov olindi. Ijtimoiy tadqiqot shuni ko'rsatadiki, talabalarning boshlang'ich bilim darajasiga ko'ra "O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati" kursidan ma'ruzalar tugagandan so'ng ma'naviy-huquqiy bilim va tarbiya darajasi ko'rsatkichlari ancha yuqoriligini ko'rish mumkin.

Xullas, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ularning ma'ruzagacha va undan so'ng olingan anketa so'rovnoma natijalari bizga ma'naviy-huquqiy ta'lim va tarbiya

samaradorligini aniqlashga yordam berdi. Shu bilan birga ma'ruza boshlashdan oldin talabalarning boshlang'ich ma'naviy-huquqiy bilim darajasi ham aniqlab olindi. Olingan natijalarni, materiallarni solishtirish mazkur kursning joriy o'quv yildagi samarasini oshirishga va kelgusi ishlarda aniqliklar va ma'lum xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda, ta'limning turli xil shakl va metodlaridan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy ta'lim va tarbiya berishda uning o'ziga xos bir qator shakllaridan foydalaniladi. Bularga "fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy masalalarga oid ma'ruza, munozara va amaliy mashg'ulotlar hamda, mustaqil ta'limlar kirib, ular oliy ta'limning ko'p qirrali yo'nalishlari va shakllaridir",⁹⁰.

Yuqoridagilardan ko'zda tutilgan maqsad, talabalarda huquqning mustaqil sohasi sifatida, jamiyatimizda ma'naviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi chuqur nazariy bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Shuningdek, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishning asosiy shakli sifatida zamon talabiga mos bo'lgan qisqa ma'ruzalar ham katta ahamiyatga ega.

Ma'ruza-talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ta'limning asosiy shakli sifatida, aniq maqsadni ko'zlab, belgilangan vaqtda talaba-yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida tegishli guruhlarda olib boriladigan mashg'ulotdir.

Ma'naviy-huquqiy tarbiya mavzusiga oid "ma'ruza darsini aniq maqsadi, mazmuni, hajmi ta'lim standartlari (o'quv reja, dastur, darslik

⁹⁰ Karimova O.A., Gafarov Z.M. Metodika pravovogo vospitaniya i pravogo obucheniya.– T.: O'qituvchi, 1996.

yoki qo‘llanma) asosida”⁹¹ belgilanadi. Ma’naviy-huquqiy ta’lim-tarbiya jarayonida ma’ruza darsi o‘quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli bo‘lib, bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi maqsadga muvofiqdir.

1. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma’naviy-huquqiy tarbiya berishda ma’ruza darsi sinfda, aniq dars jadvali asosida belgilangan vaqtda olib boriladi.

2. Ma’ruza darsi tajribali o‘qituvchi rahbarligida butun guruh va alohida talabalar bilan ishlash shaklida o‘tkaziladi.

3. Ma’naviy-huquqiy ta’lim-tarbiyaga qaratilgan ma’ruza darsida, o‘quv fanining xarakteri, o‘tilayotgan materiallarning mazmuniga qarab turli usullar va vositalar asosida olib boriladi va ma’naviy-huquqiy ta’lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim beradi hamda, keyingi ma’naviy-huquqiy bilimlarni o‘zlashtirish uchun zamin yaratadi.

Munozara darsi esa talabalar jamoasining faol ishi bo‘lib, uning asosiy vazifasi ma’naviy-huquqiy tarbiyaning nazariy masalalarni tushunib yetishiga, amaliy ish faoliyatini ma’naviy-huquqiy me’yorlari bilan bog‘lashga, mavzu va ayrim savollar yuzasidan tahlil qilish, umumlashtirish va xulosalar chiqarishga o‘rgatadi.

Shuningdek, talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma’naviy-huquqiy tarbiya berishda mavzuga oid munozara ilmiy bahs, tortishuv olib borish ko‘nikmalarini hosil qilib, og‘zaki nutq so‘zlash va jalb qilish mahoratini ham oshiradi. “Munozara mashg‘ulotlarida qo‘shimcha ma’naviy-huquqiy adabiyotlar, kodeks va boshqa huquqiy qonun manbalari bilan ishlash uchun talabalarga alohida daftar bo‘lishi

⁹¹ Tatarinseva Ye.V. Pravovoe vospitanie, metodologiya i metodika. - M.: Visshaya shkola, 2007. - 231s.

maqsadga muvofiq bo'lib, bu esa ularni ma'naviy-huquqiy bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi"⁹².

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda mustaqil o'z ustida ishlash ham yaxshi natija beradi. Bu talabaiyoshlar tomonidan amalga oshirilib ma'naviy-huquqiy metodik materiallarda belgilangan tegishli savollarni mustaqil ravishda chuqur o'rganishni, zarur huquqiy axborotlarga ega bo'lishni, talabalarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishni hamda o'rganilayotgan ma'naviy-huquqiy tarbiyaga oid fanni mustaqil tahlil etish ko'nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda mustaqil ish jarayonida talabalar, ma'ruzada o'z aksini topgan savollarni alohida o'rganadilar, ularning mazmunini tashkil etuvchi savollar to'g'risida umumiy tasavvurga ega bo'lish uchun mavzu bo'yicha tavsiya etilgan ma'naviy-huquqiy adabiyotlar bilan tanishish orqali kelgusi mashg'ulot darsiga tayorgarlikdan boshlashlari zarur bo'ladi.

Hozirgi paytda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda yangi bir qator zamonaviy usullarini qo'llanilishi ham muhim ahamiyatga egadir.

Birinchi usul-axborat-vertual usulidir. Mazkur usulni talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy huquqiy tarbiya berishda qo'llanilishi uchun talabalarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan va internetga ilanish imkoniyatlari yaratilgan bo'lishi lozim. Bunday

⁹² Sabzaaliev F. Yoshlarning huquqiy ongiga ta'sir etish shakllari va usullari // Bozor iqtisodiyoti muammolari DTKN 1997. - B. 33-35.

usullardan foydalanish talabalarning ma'naviy-huquqiy bilim olishlarini mustahkamlaydi.

Zamonaviy kompyuterlardan, smartfon va planshet orqali oldindan yaratilgan mashg'ulot materiallarini o'zlari uchun qulay va zarur vaqtlarda ko'rish, takror bajarishda, tahlil qilish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

Ikkinchi usul-interfaol usulidir. Bugungi kunda talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ma'naviy-huquqiy ta'limni olib borishda noan'anaviy dars uslubiga kiruvchi ushbu interfaol usulidan foydalanish dars jarayonini samaradorligini oshirishga katta yordam beradi.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya jarayonida, ushbu mavzuni kengroq o'rganish maqsadida uyga vazifa qilib bir necha topshiriq berishi mumkin:

a) jamiyatda yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish jarayonida va inson o'rtasidagi o'zaro nizolar va me'yordan og'ishga bog'liqliq haqida tegishli muammoli vaziyatlarni eslash;

b) talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish jarayonida dunyoning inson hayotidagi o'rni va ularni foydali tomonlarini ma'naviy-huquqiy tahlil qilish hamda baholash;

v) talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda mavzuga oid hikmatli so'zlar, donolar fikri va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "ma'naviy-huquqiy tarbiyaga amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha qabul qilingan maxsus

dastur to'liq amalga oshirilishi tarafdorimiz"⁹³-deb ko'rsatgan g'oyalari talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiyaga oid masalalarni o'rganishga katta yordam berib ularni bu sohadagi bilimni mustahkamlaydi.

Uchinchi, yangi pedagogik informatsion usulida talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy ta'lim-tarbiya berish jarayonini kengroq va qiziqarli olib borish lozim bo'ladi. Buning uchun talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy ta'lim-tarbiya berishda, yangi pedagogik texnologiyalar asosida ma'naviy-huquqiy ta'lim berishning quyidagi tartibini tavsiya qilish mumkin: ma'naviy-huquqiy ta'limning umumiy maqsadlarini ishlab chiqish; ma'naviy-huquqiy o'quv maqsadlarini tasniflash va ularni modullarga ajratish; ma'naviy-huquqiy ta'lim maqsadlarini nazorat shaklida ifodalash; ma'naviy-huquqiy ta'limni o'quv maqsadlariga erishish vositalari va usullarini aniqlash; erishilgan ma'naviy-huquqiy o'quv maqsadlarini baholash va hokazo.

Shuningdek, talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish jarayonida jamiyatdagi me'yorlardan foydalanish va amal qilishni ma'naviy-huquqiy baholash, muammolarni ahamiyatini zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida tushuntirish ham muhim ahamiyatga egadir.

Xullas, talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda turli xil shakl va usullardan foydalanish katta ahamiyatga ega bo'lib, quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

⁹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi.//Xalq so'zi, 2017 yil 20 sentabr.

- talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda tarixiy meroslarimizning huquqiy ahamiyatidan foydalanish, zero, Qur'oni Karim, Hadisi shariflar, Hidoya va boshqa manbalardagi ma'naviy-huquqiy holatlar bo'yicha ko'rsatmalardan foydalanish;

- asosiy qonunimiz Konstitutsiya asosida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish qonunlarimizning maqsadini aniq ko'rsata bilish, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga oqilona fikr yuritib jamiyat boyliklarini kelgusi avlodlarga sof holatda yetkazish, qonunlarning buzilishiga yo'l qo'ymaslik ma'naviy-huquqiy ta'limning muhim vazifalaridan biri bo'lib qolishi kerak.

- talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda yuksak ongi, madaniyatini va tafakkurini ham rivojlantirish zarur bo'ladi. Bunda esa turli ma'naviy-huquqiy tarbiya berishning ilg'or shakl va usullaridan, xususan, turli ko'rgazmali qurollar, televidiniya, audio va video apparatlar, kodoskop, slaylar va kompyuter texnikasi kabi vositalardan foydalanish;

- talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda talabalarga ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar jarayonida ma'naviy-huquqiy onga oid Prezident asarlari, farmonlari, Vazirlar Maxkamasining qarorlari hamda boshqa normativ huquqiy hujjatlar mohiyatini ham kengroq tushuntirish zarur. Yangi texnologiyalarni tashkil qiluvchi ta'limning ma'naviy-huquqiy mavzuga oid suhbat, bahs, munozara kabi faol usullaridan ham foydalanish yaxshi natija beradi.

Bundan tashqari talabalarni ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishning ma'naviy-huquqiy tarbiyasi samaradorligini oshirishda o'tkazilishi mumkin bo'lgan reja asosidagi huquqiy

tadbirlarini yanada kuchaytirish va uni zamonaviy talablar asosida takomillashtirib borish lozim bo‘ladi.

6. TALABALARGA MA'NAVY-HUQUQIY TARBIYA BERISHDA OILA, JAMOATCHILIK VA MAHALLA HAMKORLIGI MUNOSABATLARI

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish haqida so'z yuritilganda eng avvallo oila, uning o'rni va funksiyalari haqida to'xtalar ekanmiz bu eng qadimgi ijtimoiy institutlardan biri bo'lib, u dindand, davlatdan, armiyadan, ta'limdan, bozordan ancha oldin vujudga kelganligini unitmasligimiz lozim.

Kundalik tasavvurda va maxsus adabiyotlarda "oila" tushunchasi ko'pincha "nikoh" tushunchasi bilan tenglashtiriladi. Bu terminlar umumiydir, ammo sinonim emas. "Oila mavjudligining asosiy nuqtasi - bu odatda nikoh, qurishdan iborat. Ro'yxatga olingan nikoh erkak va ayol oila ekanligini anglamaydi"⁹⁴. Ushbu ikki tushunchani ajratish uchun nikohga kengroq ta'rifni ko'rib chiqish lozim.

"Yuridik ensiklopedik lug'at"da nikohga quyidagi ta'rif berilgan: nikoh bu ayol va erkak o'rtasidagi erkin, xohishiy, teng huquqli ittifoq, u o'zaro muhabbatga, hurmatga asoslanadi, nikoh oila qurish uchun, huquqlar tengligini tug'dirish uchun, er-xotin vazifalarini yuzaga keltirish uchun quriladi.

Dunyo olimlari ushbu tushunchani ochib berar ekan, nikoh ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarning tarixan o'zgaruvchan shakli, nikoh yordamida ayol va erkak o'zlarining jinsiy hayotini tartibga soladi, ijozat beradi, o'zlarining oilaviy, qarindoshlik o'rtasidagi huquq va nikoh jinslar o'rtasidagi ma'lum ijtimoiy munosabat, u tomonlar o'rtasida ma'lum huquqlar, vazifalar borligini ko'zda tutadi.

⁹⁴ Karimova O.A. Oila huquqi. – T.: 2008. 6. b.

Nikoh - bu oila qurish va naslni davom ettirish maqsadida ayol va erkak o'rtasida to'zilgan doimiy ittifoq, er-xotin bir-biriga va farzandlariga nisbatan shaxsiy, mulkiy huquq va vazifalari sohasida yuridik oqibatlar yuzaga kelsa nikoh, qonun tomonidan himoyalanaadi va homiylik qiladi⁹⁵ (oilani ta'minlash, meros qoldirish va boshqa).

“Nikoh - eng avvalo ikkita katta insonlarning kelishilgan vazifalarini rasman tan olish jarayoni”⁹⁶. Lekin har bir nikoh ittifoqi oila hisoblanmaydi: eng aniq misol - bu soxta nikohdir.

Nikoh ayol va erkak o'rtasidagi munosabatlarning tarixan o'zgaruvchan ijtimoiy shakli, o'zlariining oilaviy, ota-onaga oid huquq va vazifalarini o'rnatadilar. Qadimgi zamonlardan mavjud bo'lib kelgan nikoh munosabatlarining axloqiy me'yorlari diniy, yuridik ko'rsatmalar bilan to'ldiriladi, buning yordamida mamlakat va jamiyat nikohni himoya qiladilar, ko'rsatmalarni buzganlarni esa jazolaydi.

“Oila va nikoh haqida gap ketganda, ular har xil tarixiy davrda vujudga kelganligini hisobga olish lozim, oila munosabatlarning biroz murakkab tizimini kasb etadi, chunki oila nafaqat er-xotinni, balki ularning farzandlarini, qarindoshlarini, o'zlariiga yaqin bo'lgan, muhim bo'lgan odamlarni ham birlashtiradi”⁹⁷.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ko'plab fanlarni o'rganish uchun oila ob'ekt bo'lib xizmat qiladi: psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, demografiya, etika va boshqalar, bu fakt oila haqidagi har xil ta'rif kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

⁹⁵ Vosiqova M.S. Oila va qonun. – T.: Adolat, 1996. -96 b.

⁹⁶ Xo'janiyozov T. Oila tarixi va huquq. T.: Adolat, 2006.

⁹⁷ Xo'janiyozov T. Oila tarixi va huquq. T.: Adolat, 2006.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda "Oila" va "nikoh," tushunchalarini tahlil qilib ularni jamiyat me'yorlariga tayyorlar ekanmiz, eng avvallo, "yosh oila" tushunchasini muhokama qilishdan boshlasak maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki talabalar aynan oila qurish ostonasida bo'lib, ba'zilar oila qurgan lekin oila masuliyatni hali to'la o'z bo'ynilariga olmagan yoshlar hisoblanadi. "Yosh oila"⁹⁸ - bu nikohning dastlabki 3 yilida (bola tug'ilsa, nikoh davomiyligining cheklovi bo'lmaydi) er yoki xotin 30 yoshgacha to'lmagan oilalardir.

Oilalar quyidagi asoslarga ko'ra bir-biridan farqlanadi: bolalar soniga ko'ra, tarkibiga ko'ra, oilada kim boshliq ekanligiga ko'ra, ijtimoiy tarkibning bir xilligiga ko'ra, oilaning turmush tarziga ko'ra, iste'molchilik munosabatlariga ko'ra va boshqalar. Shuningdek, oilaviy taj ham klassifikatsiyaning asosi bo'la oladi. "Er-xotinning yoshiga, birga yashagan yillariga qarab oilani yosh oilaga, o'rta yoshdagi oilaga, katta yoshdagi oilaga va qari juftlikka ajratish mumkin"⁹⁹.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda yosh oila zamonaviy jamiyatning asosiy qismi bo'lib, vaqt o'tishi bilan yosh insonlarda ayniqsa talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda oila qurish istagi tug'iladi. Birgalikdagi hayotning ilk yillarida er-xotin bir qator muammolarga duch keladi. Shuningdek, yosh er-xotin o'zlariining yangi bir-birlarining odatlariga, qiziqishlariga ko'nikishlari kerak. Shunday oilalar borki, turmushning ilk yillari juda qiyin kechadi. Er-xotin bir-birining xarakteriga ta'sir etishga harakat qiladi. Moddiy, hissiy tobelik

⁹⁸ Otaxo'jaev. F.M. Yuldosheva Sh.R.Oila huquqi. –T.:Adolat, 2007.-231 b.

⁹⁹ Karimova O.A. Qonun, oila, farzand va jamiyat. – T.: 2001. -12 b.

yosh oilani mustaqillikka, javobgarlikka, yetuklikka erishishga undaydi. Moddiy yetuklikka qaraganda pedagogik yetuklikka erishish qiyinroq kechadi. Birgalikda biror bir narsani hal qilayotganida yoshlarda yetarlicha malaka bo'lmaydi, oilaviy muammolar muhokama qilinganda shu narsa aniq bo'ladiki, qaror qabul qilish uchun yosh er-xotinda ma'lumot ham yetarlicha bo'lgan, o'zlariining qiziqishlarini ham yaxshi tushunib yetganlar, lekin ular kelishilgan holda harakat qila olmaganlar, chunki ularda hamfikrlilik bo'lmagan, yuzaga kelgan muammoni birgalikda emas, bir-birlari o'rniga hal qilishga o'ringanlar.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda yosh oilaning o'ziga xosligi shundaki, u shakllanish, jadal rivojlanish jarayonida turadi, uning a'zolari o'rtasida munosabat beqaror bo'ladi, ijtimoiy rolni o'zlashtiradilar, mustaqil ijtimoiy sub'ekt sifatida jamiyatda ijtimoiylashuviga erishadi. Yosh oila boshqa turdagi oilalardan shunisi bilan ajralib turadiki, u qarindosh-urug'chilik, ota-onalik munosabatlari bilan emas, balki er-xotinlik munosabatlari bilan ta'riflanadi.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda shuni ta'kidlab o'tish joizki, professional ta'lim olish uchun, ishga joylashish uchun yoki boshqa sabablar bilan qishloqdan shaharga kelgan yoshlar bir necha moslashish bosqichini boshdan kechirishlariga to'g'ri keladi. Aynan mana shunday yoshlarda ota-onasi uyidagi qonunlarni ulardan o'zilgan holatda amalda sinab ko'rish va oilaviy ko'rsatmalarning amaliy qimmatini tekshirib ko'rish imkoni tug'iladi. Bunday malakaning oshishi xulq-atvorga sezilarli tuzatishlar kiritishga imkon beradi. Xususan, boshqalarga nisbatan, boshqalarning fikriga, odatlariga nisbatan tolerantlik hissi paydo bo'ladi.

Haqiqatdan ham yosh oilaning munosabatlari jiddiy sinovlarga duch keladi, masalan, oilaning tarkibiy inqirozi. Er- xotinda tez-tez go'yoki bir-biridan uzoqlashgandek his uyg'onadi. Bu his oilada erkakning xiyonati bilan bog'liq, bu holat oilaviy qoidalarga va vazifalarga ham ta'sir ko'rsatadi. Bu qiyinchiliklar hissiy "ajralish"ning asosiy sababi va haqiqiy ajralishni ham keltirib chiqarishi mumkin. Farzand tug'ilishidan so'ng bo'ladigan oilaviy rivoj ularning qiyin davrlar kutayotganini anglagan holda er-xotin qo'ygan hissiy, moddiy poydevorga bog'liq. "Farzand tug'ilishining dastlabki kunlaridan boshlab er-xotin o'z ota-onasidan nafaqat psixologik, balki moddiy yordam ham so'rasa, mustaqillik yuqoladi. Bu holatda vaqtinchalik bo'lsa ham oila disfunktsional bo'lib qoladi, disfunktsional oila bu o'z vazifalarini bajara olmaydigan oila"¹⁰⁰.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda bola tarbiyasida otaning rolini aytib o'tish lozim. Bizning yurtimizda bola tarbiyasi ko'p jihatdan onaning vazifasi degan qolip mavjud. Ba'zi erkaklar bola bilan ko'proq shug'ullanishga qarshilik ko'rsatmaydi. Lekin ota-onasi bilan birga yashaydigan yosh otadan ushbu xohishni amalga oshirish imkoniyati juda kam, chunki 2 ta ayol (ona va qaynona) bir bola uchun yetarli deb hisoblanadi. Otaning bola parvarishida ishtirok etmasligi asta-sekin yashirin qoida bo'lib qoladi, tarbiyalash funksiyasidan o'zi istamagan holda chetlashtirilgan ota endilikda bu narsani bajarishga harakat ham qilmaydi. Ayol homiladorligi davrida yoki bola tug'ilganida o'zaro munosabatlar bir muddatga sovigan bo'lsa, farzand tarbiyasida otaning ishtirok etmasligi hissiy aloqani yanada battarroq

¹⁰⁰ Nikitin A.F. Chto takoe pravovaya kultura. - M.:Prosveteniya. 1998.-109 s.

buzadi. Oila noxush holatda bo'lib qoladi, muammoli vaziyatda ota albatta tanbeh oladi.

Oila farzand ko'rishdan manfaatdor, bugungi kunda bu iqtisodiy ehtiyoj emas, ko'proq axloqiy-hissiy ehtiyojdir (farzand ota-ona qariganida farovonlik, ta'minlanganlik kafolati)¹⁰¹. Qandaydir ma'noda farzandsiz oila bu mukammal bo'lmagan oiladir. Nasl qoldirmagan insonlar yoshi kattargach zaiflik, bo'shlik hissini boshdan kechiradilar. Oxirgi yillarda 2-3 kishidan iborat oilalar ulushi ko'paygan, qariyb 1/3 (birdan uch qism) qism yoki 30% oilalarda voyaga yetmagan farzandlar bor. Bular farzandlarini katta qilib bo'lgan yoki farzand ko'rishni xohlamagan oilalar. Farzandsizlik ko'rsatkichi shunchaki mavjud emas, afsuski bu kursatkich farzand ko'ra oladigan yoshdagi oilalar, eng avvalo yosh oilalar o'rtasida keng tarqalgan. Bir tomondan, bu ko'rsatkich yuzaga kelayotgan moddiy-iqtisodiy qiyinchiliklar bilan, farzandni "ijtimoiy hashamat predmeti"-ga aylantirish xohishi bilan bog'liq, boshqa tarafdin esa, so'rov qilinganlarning javobiga ko'ra, yosh insonlar ta'lim, ish, malaka oshirish, bo'sh vaqtni ko'ngildagidek o'tkazish, o'z qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish borasidagi erkinlikni yuqotishni istamaganlari sababli, ma'naviy-axloqiy inqiroz sababli, zamonaviy jamiyatni zabt etgan qimmatbaho narsalar, ya'ni hashamatli narsalar, mashina, zotdor it olishni xohlaganliklari sababli farzand ko'rishni xohlamaydilar, shuncha narsaga joy topiladi, ammo farzandga joy yo'q. Shu sabablar tufayli yosh oilalar birinchi farzand tug'ilishini keyinroqqa suradilar, ikkinchi farzand tug'ilishini, ayniqsa uchinchisini umuman rejalashtirmaydilar ham.

¹⁰¹ Odilqoriev X.T. Fuqaroviy jamiyatda oila huquqi. – Ayol va oila huquqi –Tashkent: 1999- B. 90-97.

Oilaga xos bo'lgan pedagogik hamjihatlik ota-ona va farzandlar ijtimoiylashuvi masalalarining muvaffaqiyatli bajarilishiga olib keladi. Oilaning ijtimoiy- madaniy funksiyasining asosiy mazmunini ana shu ijtimoiylashuv tashkil etadi. Ba'zi dastlabki ijtimoiylashuv funksiyasini ajratib ko'rsatadilar, oila birinchi va asosiy ijtimoiy guruh, u bola shaxsiyatining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Aynan oilada ota-ona va farzandlar o'rtasida tabiiy-biologik va ijtimoiy aloqalar chatishib ketadi, bu aloqalar shaxs rivojlanishining va erta bosqichda farzandlar birlamchi ijtimoiylashuvining o'ziga xos xususiyatlarini ta'riflaydi. Oila bolaning jismoniy, ijtimoiy rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolaning rivojlanishi tabiatiga, o'zi tug'ilib o'sgan davlat madaniyatiga mos bo'lishi uchun oila bolani jamiyatga asta-sekin kiritib boradi. "Ota-onaning to'g'ridan-to'g'ri funksiyasi bu - insoniyat to'plagan ijtimoiy tajribaga, o'z mamlakatining madaniyatiga, axloqiy me'yorlariga bolani o'rgatishdir"¹⁰².

Ijtimoiylashuv o'z ichiga tarbiya masalasini oladi (ba'zi mualliflar tarbiyaviy funksiyani alohida ko'rsatadilar), lekin shu bilan chegaralanib qolmaydi. Shaxsning asosiy ehtiyojlarining o'xshashligiga ko'ra, faoliyatning turli sohalarida insonning kelajakdagi xulq-atvorini tartibga soladigan asosiy madaniy qadriyatlarni, inson o'ynashi kerak bo'lgan rollarning ssenariysini oila shakllantiradi.

Bola tarbiyasida, uning shaxs sifatida shakllanishi uchun oilaning muhiti va mikroiklimi ahamiyatlidir. Ota-onaning bolaga tarbiyaviy ta'siri munosabatda namoyon bo'ladi, buning mazmuni esa panoh va kattalarning kichiklarga ko'rsatgan g'amxo'rligidir. Xarakteriga ko'ra,

¹⁰² Sabzaaliev F. Yoshlarning huquqiy ongiga ta'sir etish shakllari va usullari // Bozor iqtisodiyoti muammolari DTKN 1997. - B. 33-35.

ota-ona talabalarining va ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning turli xususiyatlari mavjud.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda oila uchun iqtisodiy funksiyani amalga oshirish biroz muammoli, lekin katta yosh avlod vakillariga muammoli tuyulgandek emas. Chunki pedagogik jihatdan zamonaviy yoshlar biroz iqtisodiyoti voqeliklarini yaxshi anglaydilar, o'z shaxsiy biznesini yaratishga intiladilar, oila qurish uchun moddiy baza kerak ekanligini tushunadilar.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda, jamiyatda oila beradigan narsani oiladan tashqarida ham olish mumkin. O'zining iqtisodiy tomonlarini ta'minlash uchun yosh inson oila qurishi, nikohdan o'tishi shart emas, sanoatlashuv davridan oldin bir necha kishilarning iqtisodiy harakatlari kooperatsiyasi (har xil jins va yoshdagi) ularning har birining yashab qolishiga yordam bergan. Shaxsiy daromadning o'sishi oilaviy bog'liqlikning kamayishiga olib keldi. Sanoatlashuv davridan keyingi jamiyatda iqtisodiy jihatdan yakka holda yashash (albatta ishlasa) hatto osonroq ham bo'lib qoldi.

Oila me'yorda ishlashi uchun, unda o'zining barcha asosiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyati bo'lishi kerak. Yosh insonlar nikoh qurayotganlarida va oilaviy hayotning qoidalarini o'rnatayotganlarida albatta eng muhim narsalar haqida o'ylashlari kerak: "qaerda yashash, nima hisobiga yashash, oilani moddiy ta'minlashni kim o'z zimmasiga oladi yoki er-xotin bu vazifani bir qancha muddatga o'zaro taqsimlab oladilarmi"¹⁰³. Muhabbat va pullar bular bir-biriga mos kelmaydigan tushuncha bo'lib eshitiladi, lekin ko'p hollarda bu tushuncha oila mavjud bo'lishining garovidir, ayniqsa bugungi kunda.

¹⁰³ Xalilov E.X. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o'rni. -T.: O'zbekiston. 2001. - 48 b.

Oilaviy juftliklarning katta qismi oila byudjetining asosiy qismini oziq-ovqat mahsulotlariga, maishiy kimyo vositalarini va kiyim-kechak sotib olishga, uy orendasiga (ijarasiga), uy-joy va kommunal xizmatlar to'loviga, transport xizmati to'lovlariga sarflaydi. "Yosh oilalarning kam qismi oila byudjetining asosiy qismini kredit to'lashga, ko'chmas mulk yoki mashina olish uchun yig'ib qo'yishga, oilaviy dam olishga, ota-onasiga moddiy yordam ko'rsatishga sarf qilishi mumkin"¹⁰⁴. Olingan natijalar yosh oilalarning hayot darajasi past ekanligini ko'rsatadi, bu esa faqatgina asosiy ehtiyojlarni qondirish imkonini beradi.

Yosh oila uy-joy masalasida katta qiyinchiliklarga ham duch keladi. Ota-onasining moddiy imkoniyatlaridan va er-xotinning birining moddiy mustaqillik darajasidan kelib chiqib, yosh oila qurilishining 3 varianti uchraydi:

- a) yosh er-xotin ota-onasi bilan birgalikda (yoki urning, yoki xotinning ota-onasi bilan) yashaydi;
- b) yosh er-xotin ijarada yashaydi;
- v) yosh er-xotinda birdaniga alohida uy bo'ladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda yosh oilalar juda ko'p. Ularning bir qismi uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj. Yosh oilalarning juda kam qismi yaxshi sharoitli, kichik hajmda bo'lsa ham uyiga ega. Bu vaziyat yosh er-xotin urning ota-onasi bilan birga yashashi kerak degan qolip bilan, erkin bozorda uy-joy narxlarining qimmatligi bilan bog'liq.

Oila ko'ra turib, yosh oila moddiy va uy-joy muammolarini o'ylaydilar. Biroq, tadqiqotlardagi ma'lumotlarga ko'ra, uy-joy va moddiy ta'minlanganlik oila barqarorligiga bevosita ta'sir etmaydi. Lekin baribir moddiy jihatdan yomon bo'lgan hayot sharoiti nizoli

¹⁰⁴ Musurmonova O. Oila ma'naviyati milliy g'ypyp.-T: O'qituvchi, 1999. 200 b.

vaziyatni kuchaytiradi, bu nizo boshqa narsa sababli yuzaga kelgan bo'lsa ham.

Shunday qilib, yosh oilada bir qator muammolar bo'ladi. Ulardan asosiylari moddiy-maishiy va uy-joy muammolari; pedagogik-psixologik muammolar; yosh er-xotinning ishga joylashish muammolari. Yosh oila o'zining barcha funksiyalarini amalga oshirishi uchun, ushbu muammolarning kompleks yechimi zarur.

Shunga ko'ra talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish oiladan boshlanadi va oiladagi ma'naviy-huquqiy tarbiya turli toifalarda bo'lishi mumkin:

- 1) Ijtimoiy ilg'or yo'nalishdagi oilalar;
- 2) Ziddiyatli yo'nalishga ega bo'lgan oilalar;
- 3) Ma'naviy – axloqiy va huquqiy jihatdan past darajadagi oilalar;
- 4) “Me'yor” munosabatlarga ega bo'lgan oilalar.

Bularning xammasi oila masalasida bolalarni ma'naviy, axloqiy-huquqiy jihatdan tarbiyalashda qator dolzarb pedagogik muommolarni keltirib chiqaradi.

Bu esa bolani oiladagi ma'naviy-huquqiy va axloqiy tarbiyalanishiga bog'liqdir. Shuni ta'kidlash kerakki, kishilarning ma'naviy hayoti ham jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Ma'naviyat bo'lmasa, mustaqillikni mustahkamlab bo'lmaydi. Chunki u ijtimoiy taraqqiyotning poydevoridir. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda oiladagi o'zaro munosabatlar alohida ko'zga tashlanadi.

Ma'naviy-huquqiy jihatdan qudratli davlat iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lib ketishi mumkin. “Ma'naviy boy xalq o'z mamlakati oldida turgan

tarixiy vazifani to‘g‘ri anglab yetsa, davlatning ma’naviy-huquqiy salohiyati moddiylashadi”¹⁰⁵.

Oilaviy tarbiyaning o‘ziga xos sharqona jihatlarini yoritib beruvchi ko‘plab asarlar borki, ularda oldinga surilgan ma’naviy – axloqiy va huquqiy qarashlar hanuz to‘la o‘rganilib, amaliyotga qo‘llanilgani yo‘q. “Bularni chuqur o‘rganib, milliy istiqlol nuqtai nazaridan tahlil etsak, milliy – axloqiy qadriyatlarning yangidan – yangi jihatlarini kashf etgan va amalda qo‘llash imkoniga ega bo‘lgan bo‘lamiz”¹⁰⁶.

Talabalarga ma’naviy-huquqiy tarbiya berishda, bu ma’naviy-huquqiy va axloqiy xislatlarga katta ahamiyat beriladi, uni oilada har bir yoshga har doim alohida ta’kidlab turiladi. Chunki avlodlar vorisligi xudi shunda ko‘rinadi. Ota–onalarning farzandlariga, farzandlarning ota–onalarga g‘amxo‘rligi ana shu ma’naviy-huquqiy fazilatlarida bilinadi.

Talabalarga ma’naviy-huquqiy tarbiya berishda unga ta’sir etadigan barcha sohadagi o‘zgarishlar va yangiliklar hayotda ko‘zga tashlanadi. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma’naviy-huquqiy tarbiya berishni iymon, vijdon, halollik, poklik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik singari xislatlarni shakllantirish, ta’lim – tarbiya sohasidagi asosiy maqsadlar hisoblanadi. Aqlan yetuk, axloqiy pok va jismonan baquvvat, shuningdek, milliy mas’uliyat tuyg‘usini anglab yetgan yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi.

Bu holat esa qator omillarni taqazo etadi:

¹⁰⁵ Spynjar N.F. Pravovaya pedagogika. - M.: MGUKI, 2010. -13s.

¹⁰⁶ Musurmonova O., Sharipova D, Axmedova S. Oila, xotin-qizlar huquqiy madaniyati va sog‘lom avlod masalalari. –T.; 2007.

1) Farzandning ma'naviy-huquqiy rivojlanishi – murakkab va ziddiyatli jarayon bo'lib, u ichki va tashqi tarbiyaviy sharoitlar ta'sirida yuz beradi. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish rivojlanishidagi ichki va tashqi sharoitlarni yetarli baholasmaslik yoki ortiqcha baholash umuman tarbiyaviy jarayonga g'ayri ilmiy yondashishga olib keladi. Buning uchun ota – ona qanday sharoitda talabaning xulq – atvorini belgilaydigan axloqiy qoidalar uning xatti – harakati uchun asos bo'lishini anglab yetmog'i kerak.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishni har bir oila ijtimoy munosabatlarni o'ziga xos tarzda aks etiradi. Oiladagi o'zaro munosabatlar alohida olingan har bir holatda o'ziga xos tomonlarga ega bo'ladi. Bu munosabatlar o'ziga xos ma'naviy qiyofaga ega bo'lgan kishilarning o'zaro ta'sirining natijasidir.

2) Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish, o'z ota–onalarining hatti–harakatlari, butun hayotiy faoliyatlarini kuzatib yuradi. Ota – onaning har bir hatti – harakati puxta o'ylangan va ma'lum bir maqsadga qaratilgan bo'lmog'i lozim. Tarbiyaning boshlanishi, nasli – nasabidan meros sifatida o'tadigan dastlabki ko'nikmalardan boshlanadi.

3) Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda oila o'ziga xos hissiyotlar olamidan iborat bo'lib, unda ijobiy, salbiy his – tuyg'ular jamul-jam bo'ladi.

Agar oilada o'zaro hurmat va ishonch bilan birga, yaxshi kayfiyat asosidagi sog'lom muhit qaror topgan bo'lsa, bu talabaning hissiyotiga ijobiy ta'sir etishi tabiiydir. Talaba atrofidagi kishilar bilan qanday kayfiyatda bo'lishi, muomila qilishi unda salbiy va ijobiy xislatlarni

shakillantirar ekan uning hissiyotiga, ma'naviy-huquqiy va axloqiy dunyosiga ham, ma'naviy tafakkuriga ham sezilarli ta'sir etadi.

4) Talaba o'zgalarga nisbatan xamdardlik tuyg'ularini o'zlarida singdirish bilan birga kishilar g'am-tashvishlariga sherik bo'lib, ularga dalda berib ko'ngil ko'tarishni ham o'rganib boradi. U ota-onasiga, oilaning barcha a'zolariga g'amxo'r va mehribon bo'la boshlaydi. Natijada u boshqalar uchun fidoyilik qilish zarurligini tushinib yetadi.

5) Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda oiladagi maishiy turmushda talabaning ishtirok etishi ham axloqiy tarbiyaning muhim omili hisoblanadi. Chunki bola hayoti asosan uy va jamoatchilik sharoitida o'tadi. Oilaviy munosabatlarda uchrab turadigan kundalik tashvishlarni ko'rib, kattalarning uy mehnati bilan band bo'lishi, bo'sh vaqtini qanday o'tkazishi, oila a'zolari o'rtasidagi mehnat taqsimoti uning ongida o'z aksini topadi. Oila a'zolari o'rtasidagi ma'naviy-huquqiy muomila madaniyati oilaviy tarbiyada muhim rol o'ynashi shakl – shubhasizdir. Ota – onalarning ma'naviy-huquqiy va axloqiy jihatlari qancha boy bo'lsa, ular o'z farzandlariga nisbatan jiddiy va mas'uliyatli yondoshib, bu fazilatlarni farzandlarida ko'rishni orzu qiladilar.

6) Har qanday ota-onaning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbati o'z farzandiga ko'rsatiladigan asosiy tarbiyaviy omillardan biriga aylanadi. Bunda ota-onaning talaba yoshlarga bo'lgan mehr-muhabbati emas, balki ota-onalarning bir-biriga bo'lgan muhabbati ham alohida ahamiyatga ega. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ularning o'zi ham bunga befarq emaslar, ular qanchalik yosh bo'lmasin baribir hamma narsani juda yaxshi ko'rib, murg'ak qalblari esa uni sezib turadi.

Ijtimoiy tarbiyaning roli va imkoniyatlari qanchalik o'sib bormasin, oilaviy tarbiya inson hayotining asosiy negizi bo'lib qoladi. Anna shu tarzda oiladagi shaxsiy munosabatlar shakllanib u alohida ahamiyat kasb etadi.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ma'naviy-huquqiy va axloqiy ko'nikmalar berishning asosiy maqsadi talabada ma'naviy-huquqiy va axloqiy fazilatlarini hosil qilish va ularni rivojlantirish, ularni yaxshi xulq – atvorga o'rgatish, ularda ijobiy hatti – harakatlar, ko'nikma va odatlarni vujudga keltirishdan iborat. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, avlod – ajdodlarimiz axloqiy, ma'naviy-huquqiy fazilatlarni bir – biriga o'rgatib, bir – biridan o'rganib kelgan.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda ularning ma'naviy-huquqiy va axloqiy qoidalar asosida, tarixiy zaruriyat natijasida vujudga keladi va rivojlanib boradi.

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish orqali ular hamisha ijtimoiy munosabatlar ta'sirida bo'ladi va natijada shaxsning ma'naviy qiyofasi, dunyoqarashi, g'oya va tasavurlari, hamda insoniy fazilatlari o'zgarib boradi. Oilaviy tarbiyadagi yangi mezonlar mustaqillik mohiyatini, zamon ruhiyatini, istiqbol istiqbolini ifodalaydi. Bu mezonlar Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev asarlarida, hukumat qarorlarida, "Xalq ta'limi haqida" gi Qonunida o'z aksini topgandir. Ulardan kelib chiqadigan asosiy maqsad barkamol insonni tarbiyalashdan iborat. Bu maqsadga erishishda oila, mahalla va maktab hamda jamoatchilik hamkorligini talab etadi. Bu talabni amalga oshirish uchun bugungi sharoitda ta'lim–tarbiya tizimi va ota – bobolarimizning komil inson haqidagi ma'naviy-huquqiy va axloqiy ta'limotini keng qo'llash lozimligini ko'rsatadi. Ayniqsa oila va

mahalla hamkorligi alohida ahamiyatga ega. “Oilada bola tarbiyasini yo‘lga qo‘yishda mahallalarning roli benihoyat kattadir”¹⁰⁷. Chunki qadimdan o‘zbek xalqi mahalla – ko‘y va qo‘ni – qo‘shnilar bilan hamjihatlikda yashab kelganlar.

Talabalarga ma’naviy-huquqiy tarbiya berishda har bir oila biron-bir tadbir o‘tkazmoqchi bo‘lsa, avvalo mahalla bilan, uning obro‘li oqsoqollari bilan maslahatlashgan, o‘zlarining turli muammolarini shu yerda hal qilishga harakat qilganlar. Qayerda mahalladoshlar o‘rtasida odamgarchilik, mehr-oqibat kuchli bo‘lsa, u yerda mahalla-kuy va qo‘ni –qo‘shnilar bolalar tarbiyasiga alohida e’tibor bergan. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma’naviy-huquqiy tarbiya berishda nuroniylarimiz yosh oilalar uchun turli maslahatlarini darig‘ tutmagan. Eng muhimi, mahalla faoliyatida erkaklar ham, xotinlar ham baravar ishtirok etganlar. Shunga ko‘ra ham mahallani har bir oilaga bo‘lgan ta’siri ijobiy darajada sezilarli bo‘lib kelgan. Mahalla faoliyati o‘zbek xalqining ijtimoiy hayotida, yoshlarni ma’naviy-huquqiy tarbiyalashda muhim rol o‘ynab kelganligi uchun ham u milliy qadriyat hisoblanadi. Ayni vaqtda mahallalarda yangidan-yangi ma’naviy, ilmiy qadriyatlar vujudga kelgan, shakllangan va rivojlangan, xalq hayotiga singib borgan.

Milliy mustaqillikka erishishimiz sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz tiklanishi mahallalarning an’anaviy faoliyatini keng yo‘lga qo‘yishga imkon tug‘ildi. Prezidentimizning farmoni bilan “Mahalla” xayriya jamg‘armasi tuzildi. Uning faoliyatini jonlantirish borasida qator tadbirlar ishlab chiqildi va uni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ishlar tezlikda hal qilina boshlandi. Jumladan,

¹⁰⁷ Xudoyqulov X. J. Komillik fazilatlari. -T.: Innovatsiya-Ziyo. 2021y. 60 b.

mahallaning oila bilan hamkorlikda fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiyasi masalasini o'rganish uchun har tomonlama qulayliklar yaratildi. "Mahalla" xayriya jamg'armasi jamiyat ma'naviyatini, talabalarning ma'naviy-huquqiy me'yorlarga mos ongini tarbiyalashda quyidagi ta'limiy va tarbiyaviy tadbirlar vositasida hamkorlikda ishlar mahalla bilan olib borilmoqda, bu albatta oila bilan bog'liqdir:

Mahallalar, oilalar va xotin-qizlar orasida amalga oshiriladigan ma'daniy-huquqiy tadbirlar tarzida;

Uzluksiz tarbiya muassasalari, umumta'lim maktablari, oliy va o'rta maxsus ta'lim talabalari, yoshlar va boshqa toifadagi fuqorolar o'rtasida olib borilayotgan tadbirlar;

Ommaviy axborot vositalari, matbuot vositasida amalga oshirilayotgan ma'naviy-huquqiy va axloqiy tadbirlar;

Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish ishlarini takomillashtirish uning samaradorligini oshirish bilan bog'liq; ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy va ilmiy metodik yo'nalishlarda tadqiqot ishlarni olib borish, ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish;

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda xalqlar, millatlararo do'stlik-birodarlik, ahillik, totuvlikni ta'minlashga qaratilgan tadbirlar;

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda madaniy-ma'rifiy, ijodiy tashkilotlar tomonidan aholining ma'naviy madaniyatlilik darajasini oshirish, ularning bo'sh vaqtini samarali tashkil etish maqsadida amalga oshirishdan iborat.

Mazkur yo'nalishlarda olib boriladigan ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda oila a'zolarining ishtirokisiz bo'lishi mumkin emas. Ushbu tadbirlar majmuasi negizida yirik ommaviy sport musoboqalari, qo'shiq bayramlari, oilaviy

ansambillarning ko‘rik tanlovlari, san‘at bayramlari, iqtidorli ijodkorlar bilan o‘tkaziladigan ijodiy kechalar, ilmiy musiqa, raqs, qo‘shiq, milliy estrada san‘atini keng targ‘ib etishga qaratilgan maxsus teleko‘rsatuvlar, teleradio darslarini tashkil etish har bir fuqoro ma‘naviy-huquqiy ongi va tafakkurini shakllantirishda ijobiy natijalar beradi.

Talabalarga ma‘naviy-huquqiy tarbiya berishda vatanparvarlik tarbiyasini berish muhim ahamiyat kasb etadi. Barkamol avlodda axloq va yaxshi xulq birdaniga paydo bo‘lmaydi. Xulq axloqiy me‘zonlari ko‘hna ona zamin bilan, Vatan deb atalmish mo‘jiza bir diyor bilan, uning jonli va jonsiz xilqati, dunyosi, havosi, bulog‘i, daryolariga ruhiy rishtalar bilan bog‘langan. Vatan ostonadan boshlanadi. Demak, Vatan oila ostonasidan boshlanadi. Vatanparvarlik, milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglash oilada shakllanmog‘i lozim.

Talabalarga ma‘naviy-huquqiy tarbiya berishda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” qonunida oilaning jamiyat, davlat oldidagi ma’suliyatni anglab yetadigan komil insonni tarbiyalashdagi roliga alohida e’tibor berildi. Bu borada “oilamahallamaktab” dasturining yaratilishi muhimdir. Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma‘naviy-huquqiy tarbiya berishda talabani darsdan tashqari vaqtlarida, jamoatchilik ishlarida faol bo‘lishida mahallaning roli katta.

Mahalla qadimdan kishilarni birlashtiradigan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jamoa vazifasini bajarib kelgan. O‘zaro mehr-oqibat, ahillik va totuvlik, ehtiyojmand, yordamga muhtoj kimsalar holidan xabar olish, yetim-yesirlarning boshini silash, to‘y-tomosha, hashamlar va marakalarni ko‘pchilik bilan bamaslahat o‘tkazish, yaxshi kunda ham, yomon kunda ham birga bo‘lish kabi xalqimizga xos urf-odat va an’analar avvalambor, mahalla

muhitida shakllangan va rivojlangan. Bu borada talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berish eng asosiy davlat miqyosidagi masala hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida mahalla hayoti bilan bog'liq ko'plab qadriyatlar udum va an'analarimiz qayta tiklanib, zamon talablari asosida boyib bormoqda. Shu bilan mahallaning huquq va vakolatlari kengaytirilmoqda va haqiqiy demokratiya darsxonasi sifatida keng ko'lamli faoliyat olib bormoqda. Milliy qadriyatlarni o'rganish, asrash, muhtojlarni muhofaza qilish, mahallalar rivojlanishiga har tomonlama ko'maklashishi kabi hayotiy masalalar yurtboshimiz tashabbusi va farmoni bilan tashkil etilgan. O'zbekiston **“Mahalla”** xayriya jamg'armasining asosiy faoliyati deb belgilandi. Bu bejiz emas albatta.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda oila, maktab, mahalla va jamoatchilik hamkorligi bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi.

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda mahallaning vazifalari quyidagilar:

- talabalarning ijtimoiylashuvi jarayoni orqali yoshlarni tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur, vatanparvarlik, milliy odob, baynalminallik kabi xislatlarni singdirishni har tomonlama rag'batlantirish;

- bu borada mahallada shanbalik, bayramlarda milliy g'oya bilan sug'orilgan tadbirlar, ko'rik tanlovlar tashkil etish, talabalarning sport musobaqalarini tashkil etish va rag'batlantirish;

- mahallada yoshlarni milliy davlatchilik, milliy mafkura g'oyalari, Respublikamizda iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda erishgan yutiqlarni

amalgama oshirish borasida turli tadbirkorlik va ishbilarmonlikni tashkil etish;

- talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida turli jamg'armalar, xotinqizlar qo'mitalari, turli jamiyatlar, birlashmalar, ijodiy uyushmalarning mahalla hamda to'garaklari tadbirlarini tashkil etish, ularga homiylik qilishni tashkil etish va rag'batlantirish;

- talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida sog'lom turmush tarzini ifoda etuvchi uchrashuvlar, kechalar tashkil etish va ularga yoshlarni jalb etish;

- talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda mahalla hududidagi obodonlashtirish maydonlarini ko'kalamzorlashtirish jarayonlariga, ota-onalar orqali yoshlarni jalb etish, ularga jamoaviy mehnat, Vatanga, mahallaga muhabbat hislarini, vatanparvarlik g'oyasini shakllantirish;

- talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda mahalla hududidagi ishlab chiqarish korxonalari tomonidan mahallada istiqomat qiladigan va oilasi moddiy qiynaladigan yoshlar uchun ish joylari kvotasining ajratilishiga erishish;

- har bir talaba ijtimoiylashuv jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish orqali yoshlarni tabiatga muhabbat, tarixga qiziqtirish uchun mahalla muzeylarini tashkil qilish va yoshlarni jamoatchilik, oila va mahalla orqali jalb etish;

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda mahallaning oilaga ta'siri masalasi dolzarb bo'lib, xalqimizning milliy qiyofasi, mahalla faoliyati va uning mahalladagilarga ta'siri bilan belgiylanadi. "Mahalla" xayriya jamg'armasi mahallalar faoliyatini muvofiqlashtirib turadigan va

uni bir maqsadga qaratilgan holda olib boradigan ko'ngilli mahalliy boshqaruv hisoblanadi.

O'zbekistonimizning kelajakdagi barkamolligi va buyukligi talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda uning iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyoti va fuqarolarning ma'naviy barkamolligi bilan belgilanadi. Ma'lumki, ba'zi hollarda yurtning iqtisodiy holatiga tashqi biror davlatning xayriyasi yoki mamlakatda noyob tabiiy boyliklarni oshkor qilishini, biror texnologik kashfiyot sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin, lekin shu yurt fuqarolarining ma'naviy kamoloti, ma'naviy boyliklari faqat shu yurt fuqarolari tomonidagina ruhiy sog'lom muhitda ularning ongli sa'y harakatlari, shaxsiy iroda kuchi zaminida, ma'naviy-huquqiy takomillanish zaruriyatini his qilgandagina vujudga keltirilishi mumkin. "Jamiyatning va ayrim fuqarolarning iqtisodiy to'kisligi yoki qashshoqligi ularning ma'naviy jihatdan na bardamligini, na nochorligini belgilab bermaydi va aksincha, ma'naviy sog'lom fuqarolar jamiyatining tezda iqtisodiy kamolotga erishishini kutish tabiiydir"¹⁰⁸.

Hozirgi kunga kelib talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda deyarli unutilayotgan ma'naviy ulug'lik bilan ma'naviy tubanlikni belgilovchi qirg'oqlarni, halollik-haromxo'plik, insoflilik-insofsizlik, shafqat-berahmlik, andishalilik-yuzsizlik, adolat-adolatsizlik, e'tiqodlilik-e'tiqodsizlik, kamtarlik-beandishalik, mehr-mehrsizlik, insoniy burch-mas'uliyatsizlik va boshqalarni insoniy to'kislikni va insoniy tubanlikni belgilovchi mezonlar sifatida tiklashimiz lozimdir. Bu ajoyib xislatlar faqat inson

¹⁰⁸ Xolmo'minov J.T. Ekologik tahdidlarning oldini olish va ularni bartaraf etish huquqiy muammolarining ilmiy-nazariy tahlili. Monografiya. Toshkent:TDYuU, 2016.-344-bet.

manfaatlariga qaratilgan ma'naviy-huquqiy qonunlar yordamida va sog'lom ijtimoiy muhit ibratida shakllanadi.

XULOSALAR

Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy – tadqiqot ishlari, kuzatish va umumlashtirish natijalaridan qo'ydagilarni xulosa etishga imkon berdi:

1. Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish orqali ularning ongida ma'naviy-huquqiy malaka va ko'nikmalar, fuqarolarga mos ma'naviy-huquqiy tarbiyalashda, fanlararo aloqadorlik e'tibor qaratildi va takomillashtirildi;

2. Talabalarni ma'naviy-huquqiy tarbiyalashda ajdodlarimiz qoldirgan ulkan ma'naviy meros, asrlar davomida to'plagan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analardan ta'lim jarayonida foydalanish lozimligi ishlab chiqildi.

3. Talabalarni ma'naviy-huquqiy tarbiyalashni samarali tashkil etish borasidagi ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirishning chora va tadbirlarini belgilash aniqlashtirildi;

4. Talabalarni ma'naviy-huquqiy tarbiyalashning yangi tizimi shakllantirildi, tavsiya va takliflar ishlab chiqildi va jamiyatning me'yorlari va qonunlariga hurmat bilan yondashish mexanizimlari ishlab chiqildi;

5. Talabalarni ma'naviy-huquqiy tarbiyalash uchun tajriba-sinov ishlarining natijalari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda uning samaradorligi aniqlandi.

6. «Yosh ma'naviyatchilar», «Inson huquqlari», «Huquqiy tarbiya uslublari» markazlarini tashkil etish asosida tajriba sinov ishlarining natijalarini matematik-statistik metodlar yordamida qayta ishlash, tadqiqot ishlarida ilgari surilgan g'oyalar to'g'ri kelganligi va samarador ekanligi tasdiqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2019.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”-gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son farmoni. 28.01.2022.
- 3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-son Qarori 1-ilovasi. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son.
- 4.O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati» to'g'risidagi 2016 yil 14 sentyabr,O'RQ-406-son Qonuni. – 1b.
- 5.O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.-T.: 2020 yil 23 sentyabr.
- 6.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi, ”Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi Farmoni// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi,10.01.2019 y.,06/19/5618/2452-son.
- 7.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019 yil 8 oktyabrda PF-5847-son Farmoni.-Toshkent 10.09. 2019 y.
- 8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2020 yil 6 noyabrda PF-6108 sonli farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston respublikasi yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”-gi PQ-4768-son Qarori. Toshkent sh. 2020 yil 30 iyun.
- 10.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.

- 11.Mirziyoev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O'zbekiston», 2017.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrda «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1059-son qarori.
- 13.O'zbekiston Respublikasi YOshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ-4768-son Qarori
- 14.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat. 2008. -58 b.
- 15.Akromov A.A. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish. Ped. fan. dok. ... diss. –T.: 2016. – 92 b.
- 16.Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.:A.Qodiriy, 1993. - 223 bet.
- 17.Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud- axloq. –T.: O'qituvchi.1992.-14 b.
- 18.Akaeva N.M. va boshqalar. Huquqni o'qitish metodikasi. Metodik qo'llanma. – T.: Fan. 2010.
- 19.Azarov A.Ya., Bolotina T.V.. Inson huquqlari: O'qituvchilar uchun qo'llanma: Annotatsiya. - M.: IPK i PRNO MO, 2004. - 208 b.
- 20.Baratov M., Zokirov I. O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning huquq va muomala layoqati. – T.: Adolat, 1998. -112 b.
- 21.Bahodirov O. Yangicha an'ana va urf-odatlar hayotga. –T.: O'zbekiston. 1995. -19 b.
- 22.Boboiev H.B. Inson huquqlari: Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma. - T.: O'zbekiston 1997. – 260 b.
- 23.Vosiqova M.S. Oila va qonun. – T.: Adolat, 1996. -96 b.
- 24.Gafarov Z.M., Karimova O.A. Huquqiy metodik o'qitish: O'quv qo'llanma.-T.: O'qituvchi. 1996.-232 b.
- 25.Islomov Z. Huquqiy siyosatning shakllanishi va amalga oshirilishida yuridik fanning ahamiyati. –T.: 2004. -9 b.
- 26.Islomov Z.M. Davlat va huquq: umumnazariy masalalari. –T.: Adolat. -2000.-

270 b.

27.Karimova O.A. Qonun, oila, farzand va jamiyat. – T.: 2001. -12 b.

28.Madaliev Z. D. Yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish va takomillashtirish muammolari: muallif. dis... yuridik fanlar nomzodi. - Toshkent 1992. – 21 b.

29.Mamatov X. Huquqiy madaniyat va O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanish muammolari. -T.: 2009. -117 b;

30.Musurmonova O., Sharipova D., Axmedova S. Oila, xotin-qizlar huquqiy madaniyati va sog‘lom avlod masalalari. –T.; 2007.

31.Musurmanova O. Ma’naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O‘qituvchi, 1996. -192 b.

32.Maxmudov Sh. Talabalarga ma’naviy – huquqiy tarbiya berishning pedagogik xususiyatlari. //Obrazovanie i nauka v XXI veke. //Mejdunarodniy nauchno-obrazovatelniy elektronniy jurnal. Rossiya, №25 tom 4. aprel, 2022.-s. (13.00.00.№12).

33.Maxmudov Sh,K, U. Musaeva. Pravovoe obrazovanie i vospitanie v sovremennom sotsialno-kulturnom razvitii obshchestva Uzbekistana // Mejdunarodniy nauchniy jurnal “**Put nauki**”, ISSN 2311-2158. The Way of Science. 2019. № 5 (63). Vol. II.[UDK 371].

34.Maxmudov Sh.K. Pravovaya pedagogika i pravovie znaniya kak podgotovka k pravovomu vospitanii// Jurnal nauchnix i prikladnix issledovaniy №8, Respublika Bashkortostan, g Ufa.- 2019. ISSN 2306-9147.-b. 22-24.

35.Maxmudov Sh.K. Formirovanie u studentov pravovix znaniy kak teoriticheskoy bazi ix podgotovki k pravovomu vospitaniiyu// Visshaya shkola, avgust №(15), Respublika Bashkortostan, Ufa.- 2019. ISSN 2409-1677.-b. 20-23.

36.Maxmudov Sh.K. Yoshlarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashning innovatsion usullari. (Ilmiy- metodik qo‘llanma).- Denov -2020 y.

37.Maxmudov Sh.K. Buyuk mutafakkirlar qarashlarida adolat-huquq tarbiyasi// “Barqaror rivojlanishda uzluksiz ta’lim: muammo va yechimlar” /Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. 2019 yil 21-24 may. Chirchiq sh. Tom 2.-s.136-137.

38. Musurmonova O. Oila ma'naviyati milliy g'ypyp.-T: O'qituvchi, 1999. 200 b.
39. Olimov Sh.Sh. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asoslari.T.: Fan va texnologiya. 2015 y. 228 b.
40. Odilqoriev X.T. Fuqaroviy jamiyatda oila huquqi. – Ayol va oila huquqi – Tashkent: 1999- B. 90-97.
41. Sabzaaliev F. Yoshlarning huquqiy ongiga ta'sir etish shakllari va usullari // Bozor iqtisodiyoti muammolari DTKN 1997. - B. 33-35.
42. Safarova R. Djuraev R. O'quvchi-yoshlarni «ommaviy madaniyat» xurujlaridan himoya qilishning nazariy-metodologik asoslari.-Toshkent. “Tafakkur qanoti”, 2017. 200 b.
43. Saidov A., Tojixonov U., Toshqulov J. Mustaqillik va huquqiy mafkura. –T.: O'zbekiston, 1995. - 120 b.
44. Sitarov V. A., Mixaylov V. G. Ta'lim jarayonida zo'ravonlik qilmaslik pedagogikasi va psixologiyasi; - M.: Akademiya, 2000. - 216s.
45. Tadjibaeva O.A., Ramazonova N.K. Inson huquqlari.-T.: 2010.-51b.
46. Tojiboeva D.O. Avesto - buyuk tarixiy manba. Toshkent, 2013 yil.
47. To'ychieva X.N. Huquqiy ta'lim-tarbiyani takomillashtirishning ba'zi masalalari. TDPU. Ilmiy ishlar to'plami.–Tashkent: 1998. 61-67 b.
48. Tojixanov U., Saidov A. Davlat va huquq asoslari.-Toshkent.: IIV Akademiyasi, 2002.496-499-betlar.
49. Tadjixanov U. O'zbekistonda mustaqil davlatchilikning huquqiy ma'naviy muammolari.-T.:O'z. Res. IIV Akademiyasi, 1996, -234 b.
50. Shoraxmetov Sh. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual huquqi. -Toshkent: Adolat. 2001. -339 b.
51. Shermuhammadov B. Sh. Yoshlar orasida milliy g'oya targ'iboti samaradorligini oshirish («Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati misolida) Ped. fan dokt.....diss. avtor. –Toshkent.; 2016.
52. Utamuradov A., Topildiev V., va boshq. Inson huquqlarini o'rganish. Uslubiy qo'llanma.–Toshkent, 2021. – 136 bet.
53. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma”. –T.:O'qituvchi. 1991, 67-b.

54. Karimova O.A. Yoshlar huquqiy tarbiyasining asosiy yo‘nalishlari. -T.: O‘zbekiston, 1999. 22-b.
55. Karimova O.A. Huquqiy tarbiya metodikasi.Toshkent.TDPU,2000,63-b.
56. Yo‘ldoshev J.F., Xasanov S. Avestoda axloqiy-ta’limiy qarashlar.-Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 28 b.
57. Xalilov E.X. Ijtimoiy turmushda huquqiy ongning o‘rni. -T.: O‘zbekiston. 2001. - 48 b.
58. Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya. – Toshkent.: Fan va texnologiya nashriyoti, 2012. – 165 b.
59. Xo‘janiyozov T. Oila tarixi va huquq. T.: Adolat, 2006.
60. Xudoyqulov X. J. Komillik fazilatlarini. -T.:Innovatsiya-Ziyo.2021y. 60 b.
61. Xudoyqulov X.J. Boshqaruvda rahbar odob-axloq fazilatlarining nazariy va amaliy asoslari.-T.:Mumtoz so‘z.2019 y.
62. Xudoyqulov X.J., Xolov O. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. O‘quv qo‘llanma.-Termiz-2020y.
63. Xolmo‘minov J.T. Suv huquqi. Darslik.-T.: TDYuI, 2011.-338- bet.
64. Quronov M.K., Daminova I., va boshq. Milliy tarbiya va yoshlar.T.: Kamalak. 2016 y. 112 b.
65. Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig/ Abduhamid Parda.-T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti-2018-556 b.

GLOSSARIY

Axloq – inson hayotida o‘z-o‘zini idora qilish me‘yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish madaniyatini, halol ishlab, to‘g‘ri hayot kechirish mezonlarini o‘rgatadi.

Baholashning reyting tizimi - talabanning joriy, modulli (oraliq) va semestr (yakuniy) nazorat davomida ushbu ish natijalarini baholash orqali har qanday auditoriyani va mustaqil ta‘lim ishlarini sifatini hamda olgan bilim va ko‘nikmalari darajasini aniqlash tizimi, keyinchalik an‘anaviy milliy shkala va YeSTS miqyosini baholashda ballarda baho berish.

Giyohvandlik - giyohvand moddalarga jismoniy va psixologik jihatdan bog‘lanib qolish kasalligi.

Davlat ta‘lim standarti - umumiy ta‘limning asosiy ta‘lim dasturlari mazmunining eng kam miqdorini, o‘quvchilarning o‘quv yuklamasining maksimal hajmini, ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini tayyorlash darajasini, shuningdek, ta‘lim jarayonini ta‘minlashga qo‘yiladigan asosiy talablarni belgilovchi normalar va talablar.

Delikvent xulq-atvor - bu jinoiy kodeksdagi huquqbuzarliklar nuqtai nazaridan jazo tayinlanmaydigan kichik bezorilik.

Deviatsiya- ijtimoiylashuvida ananaviy jinoyatchilikka qaraganda o‘rganish ob’ekti sifatida xulq-atvorning ancha keng, bir xil bo‘lmagan toifasini oladi.

Informatsion ta‘lim - ijtimoiy sabablar, ochiq axborot jamiyatini shakllantirish va shu munosabat bilan inson faoliyatining turli sohalarini shaxsiy va faol o‘qitishga yo‘naltirilgan yangi axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq bo‘lgan ta‘lim turi.

Ichkilikbozlik — spirtli ichimlikka patologik (me‘yor bo‘lmagan holda) ruju qo‘yish.

Talaba- (lotinchadan studens - tirishqoqlik bilan ishlovchi, o‘qish bilan shug‘ullanuvchi) bu oliy, ba’zi mamlakatlarda o‘rta ta‘lim muassasasi o‘quvchisi.

Ta‘limga bo‘lgan tadqiqot yondashuvi - o‘quv jarayonini tashkil etishning bir usuli bo‘lib, o‘quvchilarning o‘quv muammolarini hal qilishda faol qidiruv

faoliyatini o'z ichiga oladi va shu asosda ular uchun yangi bilimlarni, fikrlashni, ta'lim va bilim qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Modulni yaratish mezonlari - bilimlarni o'zlashtirishning mantiqiy bosqichlarida ta'lim oluvchilarning faoliyatini to'zish - idrok, tushunish, tushunish, eslash, ishlatish, tizimlashtirish.

Masofiviy ta'lim - axborotni o'zlash va saqlashning zamonaviy vositalariga asoslangan axborot - ta'lim muhiti sifatida o'qitish.

Modulli dastur - muayyan o'quv intizomining barcha modullari bilan birgalikda integratsiyalashgan didaktik maksadga erishish uchun vositalar, texnikalar tizimi.

Modulli ta'lim - modulli dasturga asoslangan yopiq boshqaruv turi bilan tavsiflanadigan, faoliyatli yondashuv va ta'limning ongli tamoyiliga asoslangan ta'lim (o'quv dasturi va ta'limning o'z traektoriyasi tushuniladi).

Mavzuning modulli ko'rinishi - o'quv mavzusining ajralmas mazmunini alohida modullarga ajratishdir.

Modulli blok - ishlab chiqarish vazifasi, kasb - hunar yoki faoliyat sohasi doirasida ishning mantiqiy ravishda tugallangan qismi, aniq belgilangan nazorat boshlanishi va tugashi bilan, qoida tariqasida, kelajakda kichikroq qismlarga bo'linmaydi.

Multimedia - audiovizual texnologiyalarning yutuqlarini (matnlar, tovushlar, video tasvirlar, grafikalar va boshqalar) birlashtirishga imkon beradigan va foydalanuvchining kompyuter bilan interaktiv aloqasini ta'minlaydigan zamonaviy raqamli texnologiyalar.

Multimedia ta'limi - vizual, eshitish, his qilish va fikrlashni bir vaqtning o'zida ishlatish sharti bilan bilimlarni uzatish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, qadriyatli munosabatlarini shakllantirish jarayonini o'z ichiga olgan shaxsiylashtirilgan ta'lim usuli.

Mustaqil ish - o'qituvchining ko'rsatmasi va uning rahbarligida talabalar mustaqil ravishda o'quv muammolarini hal qiladigan, harakat va faollik ko'rsatadigan o'qitish usuli.

Nikoh - bu oila qurish va naslning davom ettirish maqsadida ayol va erkak o'rtasida to'zilgan doimiy ittifoq.

Paradigma - muayyan vaqt davomida muammolarni shakllantirish va ularni ilmiy jamoatchilikka (T. Kun) hal qilish modelini taqdim etadigan barcha ilmiy yutuqlar.

Pedagogikada paradigma - yaxshi tashkil etilgan nuqtai nazar, muayyan standart, ta'lim va tadqiqot muammolarini hal qilishda namuna. Pedagogik paradigma nafaqat tadqiqot, balki amaliy muammolarni hal qilish uchun ishlatiladigan modeldir. Yangi ta'lim paradigmasiga bo'lgan ehtiyoj yangi fikrlash va harakatga o'tish, haqiqatni o'zgartirishning yangi usullari bilan bog'liq.

Rivojlanish ta'limi - talabalarning har tomonlama rivojlanishi, faol yondashuvni rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni olishda mustaqillik.

Reyting (reyting bahosi) - bu talabaning oldindan belgilangan o'quv vazifalarini bajarish jarayonida ko'p miqdordagi yutuqlarini miqdoriy baholashdir.

Ta'lim standart - mamlakatning barcha ta'lim muassasalari - maktablar, akademik litseylar, kollejlari va oliy o'quv yurtlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qoidalar va talablar tizimini belgilovchi bir qator ko'rsatmalar. U nimani, qanday qilib va qancha o'qitishni, shuningdek, muayyan darajadagi ta'lim muassasasi o'z o'quvchilarini nimalarga o'rgatishi kerakligini aniqlaydi.

Tanlov kurslari - ta'limda tegishli fakultet va kafedra tomonidan taqdim etiladigan majburiy kurslar.

Ta'lim maqsadlari - jamiyat, davlat hozirgi va yaqin kelajakda mavjud ta'lim tizimi orqali erishmoqchi bo'lgan kutilgan natijalardir.

O'qitish moduli - bu o'quv modulining tarkibiy qismining mantiqiy yakunlangan shakli bo'lib, u bilim va ilg'or jihatlarni o'z ichiga oladi, bu assimilyatsiya ushbu modulni o'rganish natijasida hosil bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishning tegishli shakli bilan bajarilishi kerak.

O'quv moduli - bu nazorat bilan tugaydigan kursning (mavzu, bo'lim) tugallangan qismidir. Modul submodullardan iborat bo'lishi mumkin submodullar kichikroq birliklardan iborat - o'quv elementlari (UE) Modulning o'zi kursning mazmunini uchta darajada ifodalaydi: tiliq, kiskartirilgan va chukur.

Fohishalik lotinchadan prostitution sha'niga isnod keltirmoq, badnom qilmoq.

Xulq – xulq-atvor, axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insonning fe'l-atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'lining axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi tushuniladi.

Huquq – qonun belgilab bergan erk me'yoridir.

Huquqiy tarbiya –bu insonning ongi va tafakkurida, fe'l-atvorida mavjud huquqiy shiorlarga, hayot tajribasini shakllantirish maqsadida ta'sir etish

Huquqiy ong- huquqiy madaniyatning g'oyat muhim qismilaridan biri bo'lib, u eng avvalo, odamlarning qonunga munosabatlarini ifodalovchi qarashlari va e'tiqodlaridan, ularning huquqiy tasavvurlaridan, intilish va tuyg'ularidan iboratdir.

Ekologiya (ekologik ta'lim) - ekologik element (ekologik g'oyalar, faktlar, tushunchalar, hukmlar, tamoyillari, muammolar va yondashuvlar) aniq va yanada rivojlangan bo'lib, ekologik ong, ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan o'rganilayotgan materialning maxsus ta'minoti, tabiatga xos bo'lgan munosabat.

M u n d a r i j a

Kirish.....	4-bet
1.Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishning roli va davlat miqiyosidagi siyosiy ahamiyati.....	9- bet
2.Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarining ilmiy-nazariy metodologik asoslari.....	30-bet
3.Sharq mutafakkirlari merosida ma'naviy-huquqiy tarbiya berish haqidagi ma'naviy merosdan foydalanish muammolari.....	40- bet
4.Talabalar orasida deviant xulq-atvorining kelib chiqish sabablari, ularning ma'naviy-huquqiy ijtimoiy nazorat mexanizmlarini takomillashtirish.....	49- bet
5.Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishning amaliy shakllari, uslublari va vositalari.....	75- bet
6.Talabalarga ma'naviy-huquqiy tarbiya berishda oila, jamoatchilik va mahalla hamkorligi munosabatlari	91- bet
XULOSALAR.....	111- bet
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	112- bet
GLOSSARIY.....	117-bet

QAYDLAR UCHUN

Maxmudov Shokir Kamolovich

**TALABALARGA MA'NAVIY-HUQUQIY
TARBIYA BERISH TEXNOLOGIYALARI**

MONOGRAFIYA

Bosishga 25.11.2023 yil ruxsat etildi. Bichimi 60x84.

“Times Nev Roman” garniturası.

Offset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 8. Nashr bosma tabog'i 8.

Adadi 200 nusxa



Maxmudov Shokir Kamolovich -1976 yilda Surxondaryo viloyati Denov tumanida tugʻilgan.

13.00.01- “Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi” ixtisosligi bo’yicha“Talabalarning ijtimoiylashuvi jarayonida fuqarolarga mos ma’naviy-huquqiy tarbiya berish texnologiyalarini takomillashtirish” mavzusida nomzodlik

dissertatsiyasini himoya qilgan.

Shuningdek, 2009 yilda “O’qituvchi psixologiyasi”darsligi, 2020 yilda “Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning innovatsion usullari” ilmiy-metodik qo’llanma, 2022 yilda “sotsialno psixologicheskiy treningi upravleniya konfliktami”, 2023 yilda “Pedagogik mahorat” darsligi va boshqa uslubiy qo’llanmalari chop etilgan. Pedagogik faoliyati davomida 50 dan ortiq ilmiy-amaliy maqolalar muallifi.

Hozirgi kunda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi p.f.f.d. (Phd), dotsent.